

V.T.Vetrova

53
✓ 51

$$I = \frac{\Phi}{4\pi R}$$

$$H = \frac{I}{2\pi R}$$

FIZIKA

MASALALAR TO'PLAMI



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI AXBOROT
TEXNOLOGIYALARI VA KOMMUNIKATSIYALARINI
RIVOJLANTIRISH VAZIRLIGI**

**MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI TOSHKENT
AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI**

FIZIKA

MASALALAR TO‘PLAMI

*O‘zbekiston Respublikasi
Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi
tomonidan o‘quv qo‘llanma sifatida tavsiya etilgan*

**«Mahalla va oila nashriyoti»
TOSHKENT – 2021**

КБК 22.3уа73
UO'K 53(076.1)
F 58

Ветрова В.Т. В39. ФИЗИКА Сборник задач. Учебное пособие для вузов. - Минск. Высшая школа 2021 - 515 с: ил.

О'zbek tiliga tarjima qilganlar:

К.П.Абдурахманов, А.В.Умаров, V.S. Xamidov, O.O.Ochilova.

“Fizikadan masalalar to‘plami” o‘quv qo‘llanmasi umumiy fizika kursi bo‘yicha masalalar to‘plami texnika yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalarning fizika fanidan masalalarni mustaqil bajarishlari uchun mo‘ljallangan. Qo‘llanmaning tuzilishi talabalarning auditoriya va auditoriyadan tashqaridagi mustaqil ishlarini tashkil etishda qo‘llash ko‘zda tutilgan. O‘quv qo‘llanma talabalar mustaqil ishlarni bajarishda ham foydalanishi mumkin. Shu maqsadda har bir mavzuning boshlanishida o‘quv dasturiga mos bo‘lgan va talabalarni tavsiya etiladigan adabiyotlardan foydalangan holda nazariy materiallarni o‘zlashtirishga yo‘naltiruvchi nazorat savollari keltirilgan. O‘quv qo‘llanmada masalalar shartlari o‘rniga umumiy fizika kursi bo‘yicha masalalar to‘plamlarida keltiriladigan katta miqdordagi aniq masalalarni shaklantirishga asos bo‘luvchi umumiy holatlar ifodasini keltirish ushbu o‘quv qo‘llanmaning eng farqli hususiyati hisoblanadi.

Muharrirlar:

Taqrizchilar:

O‘quv qo‘llanma Muxammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti ilmiy kenashining qarori bilan chop etishga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9943-7777-0-5

**© K.P.Abduraxmanov, A.V.Umarov,
V.S. Xamidov, O.O.Ochilova. 2021 y.
© «Mahalla va oila nashriyoti»2021 y.**

SO‘Z BOSHI

Oliy ta‘lim muassasalarining texnik yonalishlardagi talabalari o‘rganadigan fizika-fani bo‘lajak muhandislarni nazariy tayyorlash uchun fundamental bazani shakllantiradi.

Ta‘limning barcha bosqichlarida nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llash qobiliyati muhim ahamiyat kasb etadi, bunga talabalarning fizika kursini o‘rganishda masalalar echish bo‘yicha olgan malakasi yordam beradi. Uning ustiga, nazariy materiallarni muvaffaqiyatli o‘zlashtirishi amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish va o‘tkazish uslubiga va talabalarning boshqariladigan mustaqil ishlariga sezilarli darajada bog‘liqdir.

Talabalarda frizikadan masalalar echish jarayonida alohida aniq hodisalarga umumiy nazariy qonuniyatlarni qo‘llash qobiliyati shakllanadi. Bunda nazariy bilimlar chuqurlashadi va tartibga solinadi. Shu sababli har bir talabaning mustaqil ishini uslubiy to‘g‘ri tashkillashtirish juda muhimdir.

Ushbu umumiy fizika kursi bo‘yicha masalalar to‘plami texnika yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalarning fizika fanidan masalalarni mustaqil bajarishlari uchun mo‘ljalangan. U muallif tayyorlagan va 1991 yilda «**Высшая школа**» nashriyotida chop etilgan shahsiy topshiriqlari bilan fizikadan masalalar to‘plamiga asoslangan. Tavsiya etilgan topshiriqlar Belorussiya davlat agrar texnik universiteti fizika kafedrasida aprobasiyadan o‘tgan, kafedra o‘qituvchilarining fikricha, talabalarning mustaqil ishlarini amaliy mashg‘ulotlarda ham, uy vazifalarini bajarishda ham rasional tashkil etishga yordam beradi, bu esa fizika kursini o‘rganish jarayonida shahsiy o‘quv faoliyatini faollashtiradi.

Muallif masalalarni tuzishda ularni echish uchun faqat berilgan ma‘lumotlarni ma‘lum ifodalarga oddiygina qo‘yish bilan cheklanmay, avvalo masalalar shartida ta‘riflangan fizikaviy hodisalar ma‘nosini va shu hodisalarga asoslangan qonunlarni tushunib etishishga intildi. Qo‘llanmani tuzishda haqiqiy fizikaviy obektlar va kattaliklar ko‘lamini baholash imkonini beradigan masalalar afzal deb hisoblandi. To‘plamda fizikaviy tizimlar, hodisalar yoki jarayonlarni modellashtiradigan, ideallashtirilgan tizimli masalalar ham keltirilgan. Bu esa talabalarga asosiyni ajratib olish va ahamiyatga ega bo‘lmaganlarni chiqarib tashlashni o‘rgatadi.

Qo'llanmaning tuzilishi talabalarning auditoriya va auditoriyadan tashqaridagi mustaqil ishlarini tashkil etishda qo'llash ko'zda tutilgan. Talabalarning o'quv materiallarini tushunishda, asosiylarini ajratib olishda va mashg'ulotlarga maqsadli tayorlanishda yordam berish maqsadida har bir mavzuning boshlanishida masalani echish uchun asosiy tushunchalar, ifodalar hamda nazorat savollari keltirilgan. Materiallarning joylashishi umumiy fizika kursi bo'yicha mavjud ko'pgina o'quv qo'llanmalarga mos keladi.

Masalaning sharti o'rniga umumiy holat ta'rifli keltirilishi, uning asosida ko'p miqdordagi aniq masalalar ifodalanishi mumkinligi qo'llanmaning eng farqli xususiyatlari hisoblanadi. Bitta holatdan 28 ta aniq masalalarni tuzish uchun kerakli materiallar umumiy holat tavsiflashdan so'ng jadvallarda keltirilgan.

Ushbu masalalar to'plamidan foydalanilganda har bir talaba masalalar shartida tavsiflangan umumiy fizikaviy holatni tasavvur etaolishi, o'zining shaxsiy topshirig'ini aniq tasavvur etishi, topshiriq raqami bo'yicha aniq masalaning shartlarini o'zi ifodalayolishi va undan so'ng masalani echishga kirishishi o'qitishning asosiy muammosi bo'lishi mumkin. Masalalarning barcha variantlariga javoblar to'plamning oxirida jadvallar ko'rinishda berilgan.

To'plamning oxirida bu to'plamga kiradigan masalalar echimiga zarur bo'lgan ma'lumotlar bilan birga ma'lumotli jadvallar, hamda tavsiya etiladigan adabiyotlar joylashtirilgan.

Uslubiy tavsiyalar

Masalalar to'plami fizika fanini chuqur o'rganilmaydigan texnik yo'nalishdagi oliy ta'lim muassasalaridagi umumiy fizika kursining 24 ta mavzulari bo'yicha masalalarni qamrab olgan. Har bir mavzu o'nta umumlashgan masalalardan iborat bo'lib, bir auditoriya mashg'ulotiga va uy vazifasini bajarishga mo'ljallangan.

Masala sharti, qandaydir fizik hodisalar va qonunlarga asoslangan, umumiy vaziyatni tavsiflaydigan, miqdoriy qiymatlar va aniq topshiriqlardan tashkil topgan 28 ta variantli jadvaldan iborat. Talabalar mustaqil ishlari nazoratini boshqarishni osonlashtirish uchun, topshiriq raqami talaba familiyasining o'qituvchi jurnalidagi raqami bilan mos kelishi tavsiya etiladi.

Agar jadvalda topshiriqlarning turli to'rt xil variantlariga fizik kattalikning o'zgarish qonuni yoki uning bitta qiymati berilgan bo'lsa, bu to'rttala variant uchun bir xil ekanligini anglatadi. Ba'zi masalalarda o'ziga hos topshiriq shartda keltirilgan, variantlar boshlangich ma'lumotlar bilan farq qiladi. Noma'lum kattaliklarni, topshiriq raqamiga mos ravishda, topish kerak bo'lgan masalalarda, jadvaldagi noma'lum kattaliklar so'roq belgisi bilan belgilangan. Ko'pchilik masalalarda har ikki turdagi topshiriqlar mavjud. Har bir mavzu turli qiyinlikdagi masalalardan tashkil topgan. Barcha mavzularda birinchi masalalar eng oson masalalar hisoblanadi.

Har bir mavzu bo'yicha ushbu o'quv qo'llanmadagi masalalarni echish uchun kerak bo'ladigan asosiy tushunchalar, qonunlar va ifodalar keltirilgan. Mashg'ulotlarda muhokama jarayonida masalalarni turlicha yondashuvlarda iqtibos qilishga qulay bo'lishi uchun barcha ifodalar raqamlangan. Har bir mavzi boshidagi qisqacha nazariy ma'lumotlar talabalar o'quv rejasiga binoan darslik va ma'ruzalar to'plamidan o'rganishi kerak bo'lgan nazariy materialni o'rnini bosaolmaydi. Bu ma'lumotlar talabaga o'rganilgan mavzudan eng asosiyini eslatish va amaliy mashg'ulotda masala echushda nazariy shartlar muhokamasi vaqtini qisqartirish uchun keltirilgan.

Har bir mavzi bo'yicha nazat savollari berilgan bo'lib, ularning tartib raqami, tegishli masala tartib raqami bilan mos keladi. Lekin topshiriqni muvaffaqiyatli bajarish uchun nafaqat shu raqam ostidagi savol javobini balki, bundan oldingilarini ham bilish zarur.

Auditoriya mashg'uloti vaqtida, talabalarga o'z variantlarini echishga kirishishlarini taklif etishdan oldin, shu masalaga tegishli

nazorat savollarini muhokama qilish va javobini topish kerak. Sinf doskasida masalaning umumiy holati o'rganilib, uning asosida qaysi fizik qonun yotishini aniqlash kerak.

Auditoriya darslarida to'rt kishidan iborat guruhlariga quyidagi qo'shimcha topshiriq berilishi mumkin: ba'zi fizikaviy bog'lig'liklarni tahlil qilish, olingan natijalar asosida grafik chizish va boshqalar.

Fizikadan masalalar to'plami quyidagilardan iborat:

- 1) Bitta masalaning turlicha boshlang'ich ma'lumotlar va noma'lum qiymatlari bilan farq qiladigan individual variantlaridan iborat masalalar;
- 2) To'rt kishidan iborat guruhlar uchun bir-biridan farq qiluvchi yoki o'zaro ta'sirlashuvchi jismlar tizimi bilan, yoki o'zaro ta'sir shartlari bilan, yoki harakat tenglamalari va boshqalar bilan farqlanuvchi bir hil turdagi masalalar; bunda guruhning har bir a'zosi individual boshlang'ich ma'lumotlar oladi;
- 3) Har bir a'zo uchun faqat bitta parametri bilan farq qiluvchi, guruh uchun umumiy yoki bir xil turdagi masalalar; guruh har bir a'zosining natijalari asosida qidirilayotgan kattalikning o'zgaruvchi parametriga nisbatan bog'lanish grafigini chizadi; turli guruhlarda qidirilayotgan kattaliklar va (yoki) o'zgaruvchi parametrlar turlicha bo'ladi;
- 4) Guruhlar uchun umumiy shartli, lekin turli topshiriqli masalalar, ularning turli guruhlar tomonidan olingan echimi va natijalarini solishtirish, muammoli vaziyatni shakllantirilgandagi barcha savollarga javob topish imkonini beradi; bunda guruhning har bir a'zosi individual topshiriq oladi.

Auditoriya mashg'ulotlari uchun yaxshisi ikkinchi, uchunchi va to'rtinchi turdagi, bir guruh vakili uchun masala shartini muhokama qilish, har birining natijasi asosida grafik chizish, olingan natijalarni taxlil qilish imkonini beruvchi, masalalardan foydalangan ma'qul. 15-20 minut mustaqil ishlaganlaridan so'ng ikki-uch guruh vakillari doskada masalani echish yollari, olingan natijalar, grafiklarni tushuntirishlari mumkin. Birinchi turdagi masalalarni uy vazifasi sifatida foydalanish ma'qul. Buning uchun qo'llanma oxirida masala echushga doir ko'rsatmalar berilgan.

Masalalar javoblari jadval ko'rinishida berilgan. Javobli jadvallarda ustunlar tepasida masala raqami berilgan, qator raqami

topshiriq raqamiga to`g`ri keladi. Agar masalada bir nechta kattaliklar topish kerak bo`lsa, javobdagi kattaliklar ketma-ketligi topshiriqli jadvaldagi so`roq belgilari tartibiga mos bo`ladi. Bir qism masalalarda, ikkita-uchta fizik kattaliklarni topish kerak bo`lsa, javoblardan biri har to`rt topshiriq uchun umumiy bo`lishi mumkin. Bunday holda jadvalda javob 1 marta keltiriladi.

MEXANIKA

1-mavzu. Moddiy nuqta va qattiq jismning ilgarilanma harakati kinematikasi

Asosiy qonunlar va ifodalar

Berilgan vaqt momentidagi moddiy nuqta oniy tezligining vektori va uning koordinata o'qlariga proeksiyalari:

$$\vec{v} = \lim_{\Delta t \rightarrow 0} \frac{\Delta \vec{r}}{\Delta t} = \frac{d\vec{r}}{dt} = \dot{\vec{r}}, \quad v_x = \frac{dx}{dt}, \quad v_y = \frac{dy}{dt}, \quad v_z = \frac{dz}{dt}, \quad (1.1)$$

Tezlik vektori moduli:

$$v = \frac{ds}{dt} \Rightarrow ds = v \cdot dt, \quad v = \sqrt{v_x^2 + v_y^2 + v_z^2}, \quad (1.2)$$

Berilgan vaqt momentidagi moddiy nuqta oniy tezlanishi vektori va uning koordinata o'qlariga proeksiyalari:

$$\vec{a} = \frac{d\vec{v}}{dt}, \quad a_x = \frac{dv_x}{dt}, \quad a_y = \frac{dv_y}{dt}, \quad a_z = \frac{dv_z}{dt}, \quad (1.3)$$

Tezlanish vektori moduli:

$$a = \sqrt{a_x^2 + a_y^2 + a_z^2}, \quad (1.4)$$

t_1 vaqt momentidan t_2 moment oralig'ida moddiy nuqtaning bosib o'tgan yo'li,

$$s = \int_{t_1}^{t_2} v(t) dt, \quad (1.5)$$

bu erda v – tezlik moduli.

Moddiy nuqta tezlanishi vektorining tangensial tashkil etuvchisi va uning moduli:

$$\bar{a}_r = \frac{dv}{dt} \bar{\tau}, \quad a_r = \frac{dv}{dt}, \quad (1.6)$$

bu erda $\bar{\tau}$ - traektoriyaga urinma yo'nalishidagi birlik vektor.

Tezlanish vektorining normal tashkil etuvchisi va uning moduli:

$$\bar{a}_n = v \frac{d\bar{\tau}}{dt} = v \cdot \frac{v}{R} \bar{n} = \frac{v^2}{R} \bar{n}, \quad a_n = \frac{v^2}{R}, \quad (1.7)$$

bu erda \bar{n} - egrilikning oniy radiusi yo'nalishidagi birlik vektor.

Traektoriyaning oniy egrilik radiusi:

$$R = \frac{ds}{d\varphi}, \quad (1.8)$$

bu erda $d\varphi$ – moddiy nuqtaning traektoriya bo'yicha ds kichik masofaga ko'chishidagi $\bar{\tau}$ birlik vektorning burilgan burchagi.

Moddiy nuqta to'la tezlanish vektorining moduli:

$$a = \sqrt{a_n^2 + a_r^2} = \sqrt{\left(\frac{v^2}{R}\right)^2 + \left(\frac{dv}{dt}\right)^2}, \quad (1.9)$$

Fazodagi ikkita nuqta orasidagi masofa:

$$l = \sqrt{(x_2 - x_1)^2 + (y_2 - y_1)^2 + (z_2 - z_1)^2}, \quad (1.10)$$

Nazorat savollari va topshiriqlar

1.1. Mexanik harakat deb nimaga aytiladi? Qanday harakat ilgarilanma deb aytiladi? Moddiy nuqta nima? Jism ayrim hollarda moddiy nuqta, boshqa hollarda moddiy nuqta emasligiga misollar keltiring.

1.2. Sanoq tizimi deb nimaga aytiladi? Moddiy nuqta tezligi nima? Nuqtaning tezlanishi deb nimaga aytiladi? Nuqtaning koordinatalari o'zgarish qonunini bilgan holda berilgan yo'nalish

bo'ylab tezlik va tezlanish proeksiyalarining o'zgarish qonunlarini qanday aniqlash mumkin? Berilgan vaqt momentida tezlik va tezlanishlarning oniy qiymatlarini qanday hisoblash mumkin?

1.3. Koordinatalar boshiga nisbatan moddiy nuqtaning radius-vektori deb nimaga aytiladi? Agar koordinatalar boshiga nisbatan radius-vektorning o'zgarish qonuni ma'lum bo'lganda, moddiy nuqtaning tezlik va tezlanish vektorlarini qanday aniqlash mumkin? Tezlik va tezlanish vektorlari modullarini qaysi ifodalar orqali hisoblanadi? Moddiy nuqta harakat traektoriyasi deb nimaga aytiladi? Agar moddiy nuqta radius-vektorining o'zgarish qonuni ma'lum bo'lsa, traektoriya tenglamasini qanday keltirib chiqarish mumkin?

1.4. Vektor yo'nalishi qanday aniqlanadi? Berilgan vektorning koordinata o'qlari bilan hosil qilgan burchaklari qiymatlarini qanday hisoblash mumkin?

1.5. Yo'nalish bo'yicha tezlanishning o'zgarish qonuni berilgan bo'lsa, shu yo'nalish bo'ylab tezlik va koordinatalar o'zgarish qonunlarini qaysi ifodalar orqali aniqlash mumkin? Aniq javob berish uchun qo'shimcha nimalar keltirilishi kerak?

1.6. Fazodagi ikkita nuqta orasidagi masofa nimaga teng? Berilgan sanoq tizimidagi tezliklar o'zgarish qonunlari ma'lum bo'lganda, berilgan momentda harakatlanayotgan ikkita moddiy nuqtalar orasidagi masofani qanday aniqlash mumkin?

1.7. Harakatlarning bir-biriga bog'liq bo'lmaslik prinsipi nimadan iborat? Er sirti ustidan gorizontol otilgan jism qanday harakatlanadi?

1.8. Tezlanishning qaysi tashkil etuvchilarini normal va tangensial deb ataladi? Ular qanday yo'nalgan? Ular tezlik vektorining qaysi o'zgarishini xarakterlaydi?

1.9. Normal va tangensial tezlanishlarni bilgan holda to'la tezlanish vektori va uning modulini qanday aniqlash mumkin?

1.10. Traektoriya egriligi deb nimaga aytiladi? Radiusi nimaga teng?

1.1 - masala. Bir vertikal bo'yicha A va B jismlar bir-biri tomon harakatlanmoqda. A jism $(g_0)_1$ tezlik bilan vertikal yuqoriga, B jism esa $(g_0)_2 = 0$ tezlik bilan H balandlikdan vertikal pastga harakatlanmoqda. Jismlar bir vaqtda harakatini boshlab, t vaqtdan keyin ular orasidagi masofa h ga teng bo'ldi. Jadvaldagi topshiriq raqamiga qarab, noma'lum kattalikni toping. Jismlar qancha vaqtdan keyin uchrashishini aniqlang.

Topshiriq raqami	$(g_0)_1, m/s$	H, m	t, s	h, m
1	?	16	0,5	10
2	15	?	0,2	5
3	17,5	22	?	15
4	20	5	0,1	?
5	?	7	0,3	4
6	7,5	?	0,8	16
7	5	15	?	12
8	25	23	0,32	?
9	?	10	0,16	6
10	12,5	?	0,24	2
11	10	26	?	20
12	22	21	0,5	?
13	?	25	1,2	13
14	5	?	1,4	7
15	6	18	?	9
16	6,25	6	0,8	?
17	?	12	0,25	8
18	25	?	0,2	11
19	8	8	?	4
20	8	19	1,25	?
21	?	14	0,15	8
22	10	?	0,7	3
23	13,75	20	?	9
24	12	17	1	?
25	?	24	0,7	10
26	20	?	0,35	5
27	15	13	?	7
28	12,5	9	0,4	?

1.2 - masala. Ikkita moddiy nuqta bir sanoq tizimida X o'qi bo'ylab berilgan harakat tenglamasi bo'yicha harakatlanmoqda. Qaysi vaqt oralig'ida bu nuqtalar tezliklarining X o'qiga proeksiyalari bir xil bo'ladi? Bu vaqt oralig'ida nuqtalarning tezlik va tezlanish proeksiyalarini toping.

Topshiriq raqami	Birinchi nuqtaning harakat tenglamasi, m	Ikkinchi nuqtaning harakat tenglamasi, m
1	$X=20+4t-4,5t^2$	$X=2+2t+0,5t^2$
2	$X=12+19t+0,6t^2$	$X=21+16t+1,6t^2$
3	$X=8+12t-0,3t^2$	$X=9+15t-0,9t^2$
4	$X=23+2,6t+1,5t^2$	$X=16+8t-0,75t^2$
5	$X=24+6t+0,5t^2$	$X=8+20t-1,5t^2$
6	$X=6+17,8t-1,75t^2$	$X=17+3t+0,1t^2$
7	$X=30+15t-1,25t^2$	$X=25+14t+1,25t^2$
8	$X=11+3t-0,1t^2$	$X=10+6t-0,4t^2$
9	$X=21+19,4t-0,35t^2$	$X=15+8t+0,6t^2$
10	$X=13+12,9t-1,8t^2$	$X=30+5,2t-0,7t^2$
11	$X=1,2t+1,6t^2$	$X=4+18t-0,8t^2$
12	$X=29+10t+0,5t^2$	$X=18+14t+0,3t^2$
13	$X=15+9,4t-1,5t^2$	$X=24+7t-0,7t^2$
14	$X=4+16t+0,15t^2$	$X=5+19,5t-1,6t^2$
15	$X=26+2,2t+1,8t^2$	$X=32+15t+0,2t^2$
16	$X=19+6,2t-0,8t^2$	$X=20+4t+1,4t^2$
17	$X=18+10t+0,45t^2$	$X=11+11t+0,4t^2$
18	$X=3+18t-1,25t^2$	$X=26+7t+1,5t^2$
19	$X=25+20t-0,2t^2$	$X=6+16t-0,1t^2$
20	$X=10+7t+0,65t^2$	$X=19+13t-0,85t^2$
21	$X=27+14,7t+1,2t^2$	$X=3+30t-0,5t^2$
22	$X=2+16t-0,7t^2$	$X=29+17t-0,9t^2$
23	$X=22+6,2t+1,5t^2$	$X=23+14t+0,2t^2$
24	$X=14+15t-0,2t^2$	$X=12+10,2t+1,4t^2$
25	$X=5+12t+1,7t^2$	$X=14+14,2t+0,6t^2$
26	$X=28+20t-0,4t^2$	$X=28+13,4t+1,8t^2$
27	$X=16+14,3t-2t^2$	$X=7+12t+0,3t^2$
28	$X=9+9t+0,8t^2$	$X=22+7t+1,2t^2$

1.3 - masala. Moddiy nuqtaning koordinata boshiga nisbatan radius vektori vaqt o'tishi bilan ma'lum qonun bo'yicha o'zgaradi, bunda i va j , x va y o'qlarining ortalari (birlik vektorlari). a) traektoriya tenglamasini toping va grafigini chizing; b) koordinata o'qlaridagi tezlik proeksiyalarini toping; c) t_1 vaqt momentidagi tezlik va tezlanish vektorlarining vaqtga bog'liqligi va kattaliklarning modullari topilsin.

Topshiriq raqami	Radius-vektorning o'zgarish qonuni $r=r(t),m$	A	B	t_1,c
1	$r = Ati + Bt^2j$	2 m/s ²	6 m/s ²	1,5
2		1 m/s	5,5 m/s ²	3
3		4 m/s	48 m/s ²	0,5
4		3 m/s	18 m/s ²	1
5	$r = At^2i + Bt^2j$	3 m/s ²	5 m/s ²	2
6		2 m/s ²	4 m/s ²	3
7		2 m/s ²	3 m/s ²	0,5
8		4 m/s ²	6 m/s ²	0,2
9	$r = At^2i - Btj$	16 m/s ²	12 m/s	0,1
10		4 m/s ²	7 m/s	4
11		9 m/s ²	15 m/s	2
12		25 m/s ²	7,5 m/s	0,4
13	$r = Ati - Bt^2j$	1,5 m/s	5 m/s ²	1
14		2 m/s	6 m/s ²	2
15		0,5 m/s	2 m/s ²	0,5
16		3 m/s	4,5 m/s ²	5
17	$r = At^2i + Btj$	36 m/s ²	12 m/s	0,3
18		16 m/s ²	16 m/s	0,6
19		9 m/s ²	3 m/s	0,8
20		4 m/s ²	5 m/s	3
21	$r = At^2i - Bt^2j$	0,2 m/s ²	1,2 m/s ²	2
22		1,5 m/s ²	3 m/s ²	2,5
23		0,5 m/s ²	2 m/s ²	1,5
24		2 m/s ²	5 m/s ²	0,2
25	$r = Ati + Btj$	0,4 m/s	2 m/s	0,25
26		2,5 m/s	5 m/s	4
27		3 m/s	4,5 m/s	1,3
28		8 m/s	20 m/s	1,7

1.4 - masala. Agar moddiy nuqta radius-vektorining koordinatalar boshiga nisbatan o'zgarish qonuni ma'lum bo'lganda, tezlik va tezlanish vektorlari orasidagi α burchakning vaqtga bog'liqligi, uning t_1 vaqt momentidagi qiymati topilsin?

Topshiriq raqami	Radius-vektor o'zgarishi qonuni	A	V	t_1, c
1	$r = -At^2i + Btj$	2 m/s^2	32 m/s	1
2				2
3				3
4				4
5	$r = -Ati - Bt^2j$	0.5 m/s	2 m/s^2	1
6		1 m/s		
7		1.5 m/s		
8		2 m/s		
9	$r = At^2i + Btj$	2.5 m/s^2	10 m/s	2
10				4
11				6
12				8
13	$r = -Ati + Bt^2j$	12 m/s	2 m/s^2	2
14			4 m/s^2	
15			6 m/s^2	
16			8 m/s^2	
17	$r = At^2i - Btj$	1.5 m/s^2	16 m/s	4
18		2 m/s^2		
19		2.5 m/s^2		
20		3 m/s^2		
21	$r = Ati - Bt^2j$	20 m/s	5 m/s^2	2,5
22				5
23				7,5
24				10
25	$r = -At^2i + Btj$	4 m/s^2	4 m/s	0,25
26			8 m/s	4
27			12 m/s	1,3
28			16 m/s	1,7

1.5 - masala. Moddiy nuqta o'zining tinch holatidan to'g'ri chiziqli harakat qilmoqda. Moddiy nuqtaning tezlanishi moduli $a = A + Bt + Ct^2$ qonun bo'yicha o'zgaradi, bu erda A, B, C - o'zgarmas kattaliklar. Tinch holatdan harakatlangan moddiy nuqta t_1 sekunddan keyin qanday tezlikka erishadi? Bu vaqtda u qancha yo'l bosib o'tadi?

Topshiriq raqami	$A, m/s^2$	$B, m/s^3$	$C, m/s^4$	t, s
1	1	-2	2	2,5
2	8	4	14	0,4
3	16	9	5	1,2
4	4	-6	11	0,8
5	10	-3	13	0,75
6	22	-14	-6	2
7	12	18	15	0,4
8	8	7	-3	1,5
9	2	-5	4	0,9
10	17	-20	7	1,6
11	6	-10	8	0,5
12	9	4	19	0,3
13	8	-1	16	1,5
14	10	7	-3	2
15	18	-11	9	0,6
16	-2	20	14	0,5
17	2	-6	11	1,7
18	19	15	5	1
19	15	-3	18	0,8
20	12	20	-4	1,5
21	5	-7	13	0,7
22	12	-19	1	0,4
23	16	9	20	0,9
24	-3	-1	10	1,6
25	-6	3	12	1,8
26	17	-14	5	1,3
27	9	8	-15	0,6
28	7	10	-1	1,2

1.6 - masala. Bitta sanoq tizimidagi koordinata boshidan ikkita moddiy nuqta harakatlana boshladi. Ularning ϑ_1 va ϑ_2 tezlik vektorlari ma'lum qonuniyat bilan o'zgaradi, bu qonunlarda i, j, k – X, Y, Z o'qlarining ortalaridir. t_1 vaqt momentidagi moddiy nuqtalar orasidagi masofa topilsin va moddiy nuqtalar orasidagi l masofaning t vaqtga bog'liqlik grafigi chizilsin ($t_{1min} < t < t_{1max}$).

Topshiriq raqami	$(\vartheta_1), \text{m/s}$	$(\vartheta_2), \text{m/s}$	t, s
1	$\vartheta_1 = 5ti + 2t^2j + 3k$	$\vartheta_2 = 4i + tj + 2t^2k$	1
2			2
3			3
4			4
5	$\vartheta_1 = 9t^2i - j + 2k$	$\vartheta_2 = 2ti + 6t^2k$	1
6			1,5
7			2
8			2,5
9	$\vartheta_1 = -1,2t^2j + 3t^2k$	$\vartheta_2 = 6t^2i + 4tj - k$	0,5
10			1
11			1,5
12			2
13	$\vartheta_1 = 8ti - 12t^2j + k$	$\vartheta_2 = i - 2tj + 3t^2k$	0,2
14			0,3
15			0,5
16			0,8
17	$\vartheta_1 = 2ti - 6t^2k$	$\vartheta_2 = 4,5t^2i - 4tj + 2tk$	2
18			3
19			4
20			5
21	$\vartheta_1 = -i + 3t^2j + 6tk$	$\vartheta_2 = 2ti - 9t^2k$	2
22			4
23			6
24			8
25	$\vartheta_1 = 4ti + 2tj$	$\vartheta_2 = 3t^2i - j + 1,5t^2k$	0,2
26			0,4
27			0,6
28			0,8

1.7 - masala. Θ_0 tezlik bilan gorizontol otilgan koptok undan l masofada joylashgan devorga uriladi. Koptokning devorga urilish burchagi φ ga teng, koptokni devorga urilgan balandligi otilgan balandlikdan Δh ga kichikdir. Jadvalda ko'rsatilgan noma'lum kattaliklarni toping. Havoning qarshiligi hisobga olinmasin.

Topshiriq raqami	l, m	$(\Theta_0), m/s$	$\varphi, grad$	$\Delta h, m$
1	?	11,2	?	2,5
2	6	?	36,9	?
3	?	24,75	81	?
4	10,5	?	?	6
5	5	5,92	?	?
6	?	11,88	?	5
7	8,5	?	46,7	?
8	?	18,78	80,5	?
9	7	?	?	3
10	11	9,94	?	?
11	?	10,58	?	0,7
12	9	?	66	?
13	?	22,27	84,9	?
14	4,5	?	?	2,5
15	8	25,04	?	?
16	?	22,27	?	0,8
17	10	?	84,3	?
18	?	11,07	68,2	?
19	12	?	?	4
20	5,5	7,7	?	?
21	?	10,51	?	7,5
22	6,5	?	81,25	?
23	?	8,95	49,4	?
24	4	?	?	1
25	7,5	26,25	?	?
26	?	24,35	?	1
27	9,5	?	40,8	?
28	?	20,35	72,9	?

1.8 - masala. Nuqta radiusi R bo'lgan aylana bo'ylab o'zgarmas a_t tangensial tezlanish bilan harakatlanmoqda. Harakat boshlangandan t_1 vaqt momentida nuqta normal tezlanishining moduli $a_n = n a_t$ ga teng. Noma'lum kattalik topilsin.

Topshiriq raqami	R, cm	$a_t, \text{m/s}^2$	t, s	n
1	?	0,5	2,1	0,6
2	87,27	?	0,8	2,2
3	840	2,8	?	0,75
4	115,2	1,6	1,2	?
5	?	0,8	1,5	1
6	14,4	?	0,6	1,25
7	4	0,4	?	1,6
8	270,75	3	1,9	?
9	?	1,4	0,5	0,5
10	320	?	2	2,5
11	8,33	0,25	?	3
12	887,47	2,6	1,6	?
13	?	1,5	0,8	1,75
14	28,17	?	1,3	2,4
15	176	2,2	?	5
16	8	0,7	0,2	?
17	?	1,2	0,4	2
18	125	?	1	0,8
19	168	3,5	?	3
20	324	0,2	1,8	?
21	?	1	1,4	1,2
22	5,4	?	1	2,5
23	33,3	2,4	?	1,8
24	173,4	0,6	1,8	?
25	?	2	0,9	0,4
26	162,9	?	1,1	2,6
27	546,13	3,2	?	1,5
28	35,28	1,8	0,7	?

1.9 - masala. Harakatlanayotgan moddiy nuqta koordinatalarining o'zgarish qonunlari berilgan. Nuqtaning to'la tezlanish moduli, t_1 vaqt momentidagi tezlanishning tangensial va normal tashkil etuvchilari hamda shu vaqt momentidagi traektoriyaning egrilik radiusini toping.

Topshiriq raqami	x, m	y, m	t, s
1	$x = 2t - t^3$	$y = t^2 + 2t^3$	0,2
2			0,4
3			0,6
4			0,8
5	$x = 2t + 3t^2$	$y = 24 - 4t^3$	0,1
6			0,3
7			0,8
8			1
9	$x = 34 - t + 2t^3$	$y = 5t - t^2$	0,6
10			0,8
11			1
12			1,2
13	$x = 0,5t^2 + 3t$	$y = 15 - 4t + 1,5t^3$	1,2
14			1,3
15			1,4
16			1,5
17	$x = 11 + t^2 - 0,5t^3$	$y = 7 - 2,5t^3$	0,2
18			0,3
19			0,4
20			0,5
21	$x = -6 + 0,1t^3$	$y = 0,2t^3 - t^2$	5
22			4
23			3
24			2
25	$x = 5 + 2t + 1,5t^2$	$y = 18 + 0,25t^3$	1
26			1,1
27			1,2
28			1,3

1.10 - masala. Jism Yer sirtidan gorizontga α burchak ostida, ϑ_0 boshlang'ich tezlik bilan otilgan. Masalani topshiriq raqamiga qarab bajaring. Havо qarshligi hisobga olinmasin.

Topshiriq raqami	α , grad	ϑ_0 , m/s	Topshiriq
1	30	30	Ko'tarilish balandligi, uchish uzoqligi va uchish vaqti topilsin. $\tau = f(\alpha)$, $H = f(\alpha)$, $l = f(\alpha)$ bog'lanish grafikasini tuzing
2	45		
3	60		
4	75		
5	30	30	Jism harakatining tenglamasini tuzing, ko'tarilish balandligi va uchish uzoqligini toping. $H = f(\alpha)$, $l = f(\alpha)$ bog'lanish grafikasini tuzing
6	45		
7	60		
8	75		
9	30	30	Traektoriya boshidagi R_0 va eng yuqori nuqtadagi R_H egrilik radiuslarini toping, $R_0 = f(\alpha)$, $R_H = f(\alpha)$ bog'lanish grafikasini tuzing
10	45		
11	60		
12	75		
13	30	5	Ko'tarilish balandligi, uchish uzoqligi va uchish vaqti topilsin. $\tau = f(\vartheta_0)$, $H = f(\vartheta_0)$, $l = f(\vartheta_0)$ bog'lanish grafikasini tuzing
14		10	
15		15	
16		20	
17	30	5	Traektoriya boshidagi R_0 va eng yuqori nuqtadagi R_H egrilik radiuslarini toping, $R_0 = f(\vartheta_0)$, $R_H = f(\vartheta_0)$ bog'lanish grafikasini tuzing
18		10	
19		15	
20		20	
21	45	30	Harakat boshidan 1 s, 2s, 3s, 4s o'tgandan keyingi tezlikning kattaligi va yo'nalishini toping, $\vartheta = f(t)$ bog'lanish grafikasini tuzing
22			
23			
24			
25	45	30	Harakat boshidan 1 s, 2s, 3s, 4s o'tgandan keyingi normal va tangensial tezlanishlarni toping $a_n = f(t)$, $a_\tau = f(t)$ bo'lanish grafikasini tuzing
26			
27			
28			

2 - mavzu. Moddiy nuqta, qattiq jism ilgari lanma harakatlari va mexanik tizimning dinamikasi

Asosiy qonunlar va ifodalar

Nyutonning birinchi qonuni: Jism o'zining tinch holatini yoki to'g'ri chiziqli tekis harakatini tashqaridan boshqa jismlar ta'sir etmagunicha saqlab qoladigan sanoq tizimlari *inersial sanoq tizimlari* deb ataladi.

Nyutonning ikkinchi qonuni: inersial sanoq tizimida bir vaqtda n ta kuch ta'sirida moddiy nuqta quyidagi tezlanish bilan harakatlanadi,

$$\vec{a} = \frac{1}{m} \sum_{i=1}^n \vec{F}_i, \quad (2.1)$$

Nyutonning uchinchi qonuni: Moddiy nuqta yoki jismlarning bir – biriga ta'siri, o'zaro ta'sir kuchlar xarakteriga ega, bu kuchlar moduli bo'yicha teng bo'lib, bir –biriga qarama – qarshi yo'nalgandir:

$$\vec{F}_{12} = -\vec{F}_{21}, \quad (2.2)$$

Ishqalanish koeffisienti

$$k = \frac{F_{ishq}}{N}, \quad (2.3)$$

bu erda F_{ishq} - ishqalanish kuchi, N – sirtga ta'sir etuvchi bosim kuchi moduli.

Moddiy nuqta impulsi

$$\vec{P} = m\vec{v}, \quad (2.4)$$

Moddiy nuqtalar tizimi impulsi

$$\vec{P} = \sum_{i=1}^n \vec{P}_i, \quad (2.5)$$

n tashqi kuchlar ta'sirida moddiy nuqtalar tizimi impulsining o'zgarish qonuni:

$$\frac{d\vec{P}}{dt} = \sum_{i=1}^n \vec{F}_i, \quad (2.6)$$

Moddiy nuqtalar yopiq tizimi impulsining saqlanish qonuni:

$$\frac{d\vec{P}}{dt} = 0, \quad (2.7)$$

n ta moddiy nuqtalar tizimiga tashqi kuchlar ta'siri:

$$m_1 \overline{v_1} + m_2 \overline{v_2} + \dots + m_n \overline{v_n} = m_1 \overline{u_1} + m_2 \overline{u_2} + \dots + m_n \overline{u_n}, \quad (2.8)$$

bu yerda v_1, v_2, \dots, v_n va u_1, u_2, \dots, u_n - mos holda moddiy nuqtalarning boshlang'ich va keyingi tezliklari.

Kuch impulsining jism impulsini o'zgarishi bilan bog'liqligi:

$$\overline{F} \Delta t = m \Delta \overline{v}, \quad (2.9)$$

Nazorat savollari va topshiriqlar

2.1. Moddiy nuqta dinamikasining asosiy qonuni va qattiq jismlar ilgarilanma harakati qonunlarini ta'riflang. Inersiya qonuni nima? Inersial sanoq tizimlari deb nimaga aytiladi? Qanday hollarda, masala yechishda Nyutonning ikkinchi qonunini qo'llash mumkin? Moddiy nuqta tezlanishining o'zgarishi ma'lum bo'lsa, unga ta'sir qilayotgan kuchni qanday aniqlash mumkin?

2.2. Jism tezligining o'zgarish qonuni ma'lum bo'lib, unga ta'sir qilayotgan kuch ma'lum qiymatga erishsa, kuchning ta'sir qilish vaqtini qanday aniqlash mumkin?

2.3. Nyutonning uchinchi qonunini tushuntiring? Tashqi va ichki kuchlar deb nimaga aytiladi? Mexanik tizimning massa markazi (inersiya markazi) deb nimaga aytiladi? Mexanik tizimning harakati qaralayotgan vaqtda, uning faqat massa markazining harakatini qarash etarlimi?

2.4. To'g'ri chiziqli tekis o'zgaruvchan harakatda bosib o'tilgan yo'l va tezlik ifodalarini yozing. Bu holda tezlanish qanday topiladi? Qanday kuchlar ta'sirida amalga oshirilgan harakatda tezlanish o'zgarimas saqlanadi?

2.5. Ippa osilgan jismga qanday kuchlar ta'sir qiladi? Jism og'irligi deb nimaga aytiladi, Qachon jismning og'irligi og'irlik kuchiga son jihatdan teng bo'ladi? Yuk cho'zilmaydigan va og'irlikka ega bo'lmagan ipga osilgan, bunda qaysi jismga og'irlik, qaysi jismga og'irlik kuchi ta'sir qiladi?

2.6. Ham tashqi, ham ichki kuchlar ta'sir qilayotgan n ta jismdan tashkil topgan mexanik sistema nechta tenglama bilan yoritiladi? Bu tenglamalar qanday tuziladi? Bu tizimga ta'sir qilayotgan barcha tashqi kuchlarning yig'indisi nimaga teng?

2.7. Impulsning saqlanish qonuni nima va uning fazoning bir jinslili bilan bog'lanishini tushuntiring.

2.8. O‘zaro ta‘sirlashayotgan ikkita jism uchun impulsning saqlanish qonunini yozing.

2.9. Bir biri bilan biror α burchak hosil qilib harakatlanayotgan ikkita jism uchun impulsning saqlanish qonunini yozing.

2.10. Kuch impulsi deb nimaga aytiladi? Agar o‘zaro ta‘sirlashayotgan ikkita jismdan birining massasi ikkinchisidan ancha katta bo‘lsa, impulsning saqlanish qonuni qanday ko‘rinishda yoziladi?

2.1 - masala. m massali moddiy nuqta tinch holatidan o'zgarishi $a = A + Bt$ qonun bo'yicha tezlanish bilan harakatlanadi. Bu yerda A va B – o'zgarmas kattaliklar. t_j vaqt momentidagi tezlashtiruvchi kuch qiymati F_j ga teng. Noma'lum kattalikni toping.

Topshiriq raqami	$A, m/s^2$	$B, m/s^2$	m, kg	F, N	t, s
1	-0,8	2,2	?	3,42	1,4
2	2,5	5	0,4	?	2,75
3	4	-1	2,2	6,05	?
4	1,5	-2,5	1	?	0,5
5	6	-3	?	1,2	1,8
6	0,5	1,1	0,4	0,86	?
7	-0,2	0,8	?	0,36	2,5
8	-1	4,5	2,6	?	1
9	7	-4	1	?	1,25
10	6	-2,5	2,5	2,5	?
11	-0,6	0,3	1,2	0,72	?
12	-3	1,5	?	0,9	2,6
13	-2,5	2	2,8	?	1,5
14	2	0,4	2	6,4	?
15	0,2	0,6	5	?	2,2
16	0,75	3	?	1,8	1,75
17	2	-0,5	1,8	1,35	?
18	1,5	1	0,5	?	2
19	0,4	1,2	?	3,48	1,6
20	4,5	3,5	?	1,5	3
21	-0,5	0,5	2,4	0,6	?
22	-0,7	0,25	0,3	0,09	?
23	3	-2	?	2,4	1,2
24	1	1,2	1,3	?	2,25
25	-0,4	2,5	?	2,24	2,4
26	3,5	4	0,15	?	0,8
27	-1,5	4,5	0,4	?	2,1
28	0,8	-0,2	2,5	0,9	?

2.2 - masala. Ikkita jism to'g'ri chiziqli harakat qilmoqda. m_1 massali jism $\vartheta_1 = A_1 + B_1t + C_1t^2 + D_1t^3$ tezlik bilan, m_2 massali jism esa $\vartheta_2 = A_2 + B_2t + C_2t^2 + D_2t^3$ tezlik bilan harakatlanmoqda. Bu erda barcha kattaliklar o'zgarmasdir. Qachon jismga ta'sir qilayotgan kuchlarning harakat yo'nalishiga proeksiyalari o'zaro tenglashadi?

Topshiriq raqami	m_1 , kg	A_1 m/s	B_1 m/s ²	C_1 m/s ³	D_1 m/s ⁴	m_2 kg	A_2 m/s	B_2 m/s ²	C_2 m/s ³	D_2 m/s ⁴
1	2,5	-3,2	-4,8	1	0,267	0,2	20	40	10	1,667
2	2	2,4	-3,5	1,5	0,5	2,5	2,5	2	1,4	0,267
3	1	2	-1	0,75	1,333	0,5	3	6	-1,5	2
4	2	5	1	-1,25	0,667	1	-4	10	-3,5	1
5	2	3	4,5	-1	0,333	3	2,5	1	-1,5	0,333
6	0,4	6	-12,5	7,5	-2,5	0,666	10	15	3	-2
7	5	0,9	2	0,5	0,067	2	-2	-10	1,5	0,333
8	0,2	3,5	-5	2,5	3,33	0,333	4	6	-1,5	1
9	4	-0,8	-0,5	1	0,5	2	0,25	3	1,5	0,833
10	3	1,2	-3	-0,5	0,333	4	-2,5	0,25	0	0,167
11	2	6	8	2,25	0,333	6	1	-2	0,5	0,167
12	1	-1,5	1	2	1	2	5	3,5	1,25	0,333
13	0,5	5,5	-6	-2	4	2	-1,4	0	-1	0,833
14	3	0,75	1	-0,5	0,667	2	3	4	0,25	0,833
15	2	3	-2,5	-2	2	1	3,5	3	-5	3,67
16	2,5	5	-3,2	-2,4	1,2	4	2	1	-1	0,667
17	1	4	-10	0,5	1,333	2	1	7	-0,25	0,5
18	2	-1,5	-2	0,75	1,5	2	0,8	-1	0,5	1,333
19	6	1	-1,5	0	0,333	2,5	3	2	1	0,667
20	4	7,5	-2	-0,25	-0,333	0,333	7	12	-4,5	-5
21	2	3	6	-0,5	1	1	1	0	3	1,667
22	1	4	6	-0,5	0,667	0,5	-2	4	3	0,667
23	1,5	5	2	-1	0,667	2	1,2	-1	0,75	0,333
24	0,333	2,8	-4,5	4,5	3	0,5	3	5	-2	2,667
25	2	2,2	0,5	0,5	1	3	1,3	-1	1	0,555
26	0,667	3	-7,5	-2,25	2,5	2	1	1,5	-0,25	0,667
27	2	-0,67	-2	-1	0,333	0,8	1,5	-1,25	-1,25	0,417
28	3	1,66	3	0	1	2	0,75	1	2	1,333

2.3 - masala. Massasi ballasti bilan m ga, hajmi esa V ga teng bo'lgan aerostat balandlikdan bir tekis tushayabdi. Agar m_1 massali ballast tashlab yuborilsa, aerostat xuddi avvalgi tezligi bilan yuqoriga tekis ko'tariladi. Aerostatning ko'tarish kuchi F ga teng. Shu balandlikdagi havoning zichligi ρ ga teng. Noma'lum kattalikni toping. Ko'tarilishdagi va tushishdagi havoning qarshilik kuchini bir xil deb hisoblang.

Topshiriq raqami	m, kg	V, m^3	m_1, kg	F, N	$\rho, \text{kg/m}^3$
1	?	—	36,73	800	—
2	90	?	24	—	1,05
3	135	156,25	?	—	0,8
4	120	—	15,5	?	—
5	85	86,11	15	—	?
6	?	—	34,7	1300	—
7	110	?	22	—	1
8	125	—	?	1150	—
9	140	—	24,9	?	—
10	85	80	10	—	?
11	?	—	35,65	1000	—
12	105	?	18	—	1,25
13	115	122,2	?	—	0,9
14	150	—	14,29	?	—
15	75	64,5	8	—	?
16	?	—	32,65	1800	—
17	160	?	23	—	1,2
18	148	—	?	1400	—
19	180	—	33,45	?	—
20	70	83,44	6,5	—	?
21	?	103	5,5	—	0,75
22	140	?	19	—	1,1
23	100	—	?	900	—
24	135	—	4,7	?	—
25	95	72,92	15	—	?
26	?	—	25,51	1100	—
27	170	?	34	—	0,85
28	130	—	?	1250	—

2.4. – masala. ϑ_0 tezlik bilan harakatlanayotgan m massali avtomobil F_t tormozlash kuchi ta'sirida t_t vaqt davomida tekis sekinlanuvchan harakat qilib, S masofani o'tib to'xtaydi. Noma'lum kattaliklarni toping. Qo'shimcha topshiriqni ham bajaring.



Topshiriq raqami	m, t	$\vartheta_0, km/soat$	F_t, N	t, s	S, m	Bog'lanish grafigi tuzilsin
1	1,5	70	8000	?	?	Avtomobil massasining tormozlash yo'liga
2	2			?	?	
3	2,5			?	?	
4	3			?	?	
5	2	60	?	5	?	Avtomobil tezligining tormozlash yo'liga
6		80	?		?	
7		100	?		?	
8		120	?		?	
9	2,5	60	5000	?	?	Avtomobil tezligining tormozlash vaqtiga
10		80		?	?	
11		100		?	?	
12		120		?	?	
13	1,2	80	?	4	?	Berilgan vaqtdagi tormozlash kuchining avtomobil massasiga
14	1,4		?		?	
15	1,6		?		?	
16	1,8		?		?	
17	3	70	?	?	30	Berilgan tormozlash yo'lida avtomobilning tezligini tormozlash kuchiga
18		90	?	?		
19		110	?	?		
20		130	?	?		
21	1,5	80	?	?	25	Berilgan tormozlash yo'lini tormozlash kuchiga
22			?	?	50	
23			?	?	75	
24			?	?	100	
25	2	90	10000	?	?	Avtomobil massasining tormozlash yo'liga
26	3			?	?	
27	4			?	?	
28	5			?	?	

2.5 - masala. m massali yuk osilgan ipning F_t taranglik kuchining, shu yukning $a = ng$ tezlanishiga bog'liqlik grafigini tuzing (n – proporsionallik koeffisienti). Olingan bog'lanishlarni baholang. Havoning qarshiligini hisobga olmang.

Topshiriq raqami	Yukning yo'nalishi	m, kg	n
1	Yuqoriga	2	0,4
2			0,6
3			0,8
4			1
5			0,4
6	Pastga	2	0,6
7			0,8
8			1
9			0,25
10	Yuqoriga	1	0,5
11			0,75
12			1
13			0,25
14	Pastga	1	0,5
15			0,75
16			1
17			0,7
18	Yuqoriga	0.5	0,8
19			0,9
20			1
21			0,7
22	Pastga	4	0,8
23			0,9
24			1
25			0,2
26	Yuqoriga	4	0,3
27			0,4
28			0,5

2.6 - masala. Cho'zilmaydigan va vaznsiz iplar orqali bog'langan ikkita yoki uchta jism vaznsiz blokka osilgan. Jismlar massalari (m_1, m_2, m_3), qiya tekislik bilan gorizont orasidagi burchaklar (α_1, α_2), ishqalanish koeffitsientlari (k_1, k_2) berilgan. Jismlar harakati tezlanishlari va taranglik kuchlari topilsin. Qo'shimcha topshiriqni bajaring. Bloklardagi ishqalanishi hisobga olinmasin.

N_2	Jismlar sistemasi	m_1, kg	m_2, kg	m_3, kg	α_1, grad	α_2, grad	k_1	k_2	Bog'lanis hni baholash
1		2	1	-	30	-	0,12	0,15	Taranglik kuchi va tezlanishni alpha_1 ga
2					40				
3					50				
4					60				
5		0,3	0,1	-	30	45	0,1	0,15	Taranglik kuchi va tezlanishni m_1 ga
6		0,4							
7		0,5							
8		0,6							
9		3	1	-	45	-	0,1	-	Taranglik kuchi va tezlanishni k_1 ga
10							0,2		
11							0,3		
12							0,4		
13		0,1	0,1	0,2	30	30	0,2	0,2	Taranglik kuchi va tezlanishni m_3 ga
14				0,3					
15				0,4					
16				0,5					
17		0,2	0,1	0,5	-	-	0,1	0,1	Taranglik kuchi va tezlanishni
18							0,2		

8									$k_1(k_2)$ ga	
1								0,3	0,3	
9								0,4	0,4	
2										
0										
2		0,1	0,1	0,2	-	-	0,15	0,15	Taranglik kuchi va tezlanishni m_3 ga	
1				0,4						
2				0,6						
2				0,8						
3										
2		2	0,5	-	30	-	0,1	-	Taranglik kuchi va tezlanishni k_1 ga	
5							0,15			
2							0,2			
6							0,25			
7										
2										
8										

2.7 - masala. ϑ_x tezlik bilan uchayotgan jism ikki qismga bo'lindi. Jism birinchi qismining massasi umumiy massaning β % ini tashkil etadi va u boshlang'ich harakat yo'nalishiga proeksiyasi u_{1x} bo'lgan tezlik bilan harakatlanadi. Ikkinchi bo'lagi esa boshlang'ich harakat yo'nalishiga proeksiyasi u_{2x} bo'lgan tezlik bilan harakatlanadi. Noma'lum kattaliklarni toping.

Topshiriq raqami	ϑ_x , m/s	β , %	u_{1x} , m/s	u_{2x} , m/s
1	?	35	-15	28,1
2	9,5	?	-12	23,8
3	12,5	75	?	-22
4	7	10	-16	?
5	?	25	-4,5	19,5
6	11,5	?	15	-2,5
7	14,5	85	?	-5,33
8	9	70	17,5	?
9	?	30	25	12,14
10	15,5	?	-20	51
11	8	55	?	-9,1
12	11	80	19	?
13	?	25	15	13,67
14	6,5	?	-18	12,625
15	14	50	?	8
16	10	65	18	?
17	?	75	22	-26
18	13	?	28,5	-23,17
19	7,5	45	?	21,82
20	16	20	15,5	?
21	?	55	28	-7,56
22	10,5	?	-24	25,29
23	6	40	?	19,33
24	15	30	5	?
25	?	60	19	9
26	12	?	23	-4,5
27	8,5	15	?	12,65
28	13,5	90	20	?

2.8 - masala. m_1 massali konkichi m_2 massali toshni gorizontol yo'nalishda uloqtirishi natijasida ϑ_1 tezlik bilan harakatlana boshladi. t_1 vaqtdan keyin tosh konkichidan S masofaga borib tushdi. Konkichi va muz orasidagi ishqalanish koeffitsienti k . Havoning qarshiligini inobatga olmang. Noma'lum kattaliklarni toping.

Topshiriq raqami	m_1, kg	m_2, kg	$\vartheta_1, \text{m/s}$	t_1, s	S, m	k
1	?	7,5	2,2	0,56	13,54	0,01
2	65	?	1,2	0,58	14,56	0,034
3	72	4	?	0,61	16,21	0,006
4	80	4	1,6	?	20,12	0,022
5	54	6	2	0,51	?	0,008
6	60	3	?	0,57	15,5	0,043
7	?	5	1,8	0,55	13,82	0,025
8	78	?	1,75	0,58	14,18	0,016
9	90	4,5	?	0,63	17,14	0,03
10	75	5	1,65	?	14,5	0,012
11	50	2,5	1,4	0,52	?	0,035
12	84	?	1,55	0,64	20,74	0,044
13	?	2	1,1	?	19,07	0,018
14	75	?	1	0,56	19,14	0,04
15	57	3	?	0,62	16,44	0,038
16	62	4	1,3	0,55	12,4	0,024
17	55	5,5	1,9	0,52	?	0,032
18	68	4	?	0,59	15,32	0,045
19	?	5	1,7	0,62	15,77	0,02
20	81	?	1,15	0,65	14,18	0,011
21	63	7	?	0,6	11,97	0,015
22	76	4	1,35	?	17,48	0,036
23	70	3,5	1,25	0,63	?	0,028
24	52	?	1,85	0,5	12,89	0,046
25	?	5	1,75	0,53	11,09	0,026
26	85	?	1,4	0,63	9,69	0,006
27	56	2,8	?	0,54	13,59	0,014
28	66	6	2,1	?	14,55	0,042

2.9 - masala. ϑ_1 tezlik bilan harakatlanayotgan temir yo'l platformasiga zambarak o'rnatilgan. Zambarak bilan platformaning birgalikdagi massasi m_1 ga teng. Zambarakdan platforma harakati yo'nalishi bo'yicha gorizontalga α burchak ostida o'q otiladi. m_2 massali o'q zambarakdan ϑ_2 tezlik bilan uchib chiqadi. Otilayotgan o'qning aks ta'siri natijasida platformaning tezligi u_1 ga teng bo'ldi. Noma'lum kattaliklarni toping.

Topshiriq raqami	m_1, t	$\vartheta_1, km/soat$	$\alpha, grad$	m, kg	$\vartheta_2, m/s$	$u_1, km/soat$
1	?	26	30	95	465	18,49
2	24	?	60	110	-400	21,38
3	11	34	?	80	490	27,83
4	15,5	21	45	?	-475	28,14
5	14	30	45	90	?	37,72
6	18,5	24	60	100	445	?
7	?	38	30	115	430	30,87
8	17	?	60	105	-410	40,78
9	12,5	35	?	65	510	26,91
10	23	20	45	?	495	14,34
11	10	40	60	70	?	45,82
12	20,5	29	30	120	435	?
13	?	32	60	110	425	28,77
14	14,5	?	30	90	-450	32,86
15	12	37	?	75	-500	45,19
16	17,5	18	45	?	480	12,5
17	20	31	30	105	?	22,98
18	11,5	39	45	85	-470	?
19	?	23	60	100	405	17,57
20	19,5	?	45	95	460	24,44
21	9	22	?	70	-505	29,24
22	16	36	45	?	415	29,62
23	13,5	27	30	75	?	18,84
24	22	19	60	100	440	?
25	?	25	60	115	420	19,4
26	16,5	?	30	85	-455	31,43
27	10,5	28	?	80	-485	39,73
28	19	33	30	?	450	26,15

2.10 - masala. m massali jism ϑ tezlik bilan harakatlanib, devorga normalga nisbatan α burchak ostida absolyut elastik urilib, tezligini o'zgartirmasdan qaytadi. Urilish vaqtida devorga $F\Delta t$ kuch impuls ta'sir etedi. Noma'lum kattaliklarni toping.

Topshiriq raqami	m, g	$\vartheta, m/s$	α	$F\Delta t, N\cdot s$
1	?	24	30	3,12
2	50	?	45	1,273
3	15	30	?	0,45
4	80	8	60	?
5	?	6,5	60	0,26
6	125	?	45	0,884
7	10	22	?	0,22
8	45	10	30	?
9	?	12	60	0,72
10	75	?	30	1,04
11	40	9	?	0,509
12	100	15	45	?
13	?	18	45	2,546
14	30	?	30	1,04
15	120	5	?	0,85
16	70	26	60	?
17	?	16	30	0,416
18	65	?	45	0,92
19	110	4,5	?	0,857
20	20	7,5	60	?
21	?	25	45	1,77
22	60	?	60	0,9
23	25	6	?	0,15
24	85	15	30	?
25	?	4,5	30	0,624
26	55	?	45	0,933
27	90	20	?	2,546
28	35	14	60	?

3 - Mavzu. Mexanik energiya. Mexanik ish. Mexanikada energiyaning saqlanish qonuni

Asosiy qonunlar va ifodalar

O'zgaruvchan kuch ta'sirida moddiy nuqtani 1 nuqtadan 2 nuqtaga ko'chirishda bajarilgan ish:

$$A = \int_{(1)}^{(2)} (\vec{F}, d\vec{r}) = \int_{(1)}^{(2)} F, ds = \int_{(1)}^{(2)} F \cos \alpha ds, \quad (3.1)$$

bu erda α - kuch ta'siri yo'nalishi va elementar ko'chish $d\vec{r}$ orasidagi burchak.

Oniy quvvat

$$P = \frac{\delta A}{dt}, \quad (3.2)$$

bu erda $\delta A - dt$ vaqtdagi bajarilgan elementar ish.

Moddiy nuqtaning kinetik energiyasi

$$W_k = \frac{mv^2}{2}, \quad (3.3)$$

Jismning ilgariharakatidagi kinetik energiyasi

$$W_k = \frac{mv_c^2}{2}, \quad (3.4)$$

bu erda v_c – massa markazi tezligi.

Moddiy nuqta yoki qattiq jismning kinetik energiyasini o'zgarishi to'g'risidagi qonun:

$$W_{k_2} - W_{k_1} = A, \quad (3.5)$$

Moddiy nuqta yoki qattiq jismning potensial energiyasi – bu ularga ta'sir etuvchi konservativ kuchlarning bajargan ishiga teng energiyaning kamayishidir:

$$W_{P_2} - W_{P_1} = A_{kons.kuch}, \quad (3.6)$$

Moddiy nuqta (jism) ga ta'sir etuvchi konservativ kuchlar va ularning potensial energiyasi orasidagi bog'lanish:

$$\vec{F}_{kons} = -gradW_p = -\left(\frac{\partial W_p}{\partial x}\vec{i} + \frac{\partial W_p}{\partial y}\vec{j} + \frac{\partial W_p}{\partial z}\vec{k}\right), \quad (3.7)$$

Tizimning to'la mexanik energiyasini o'zgarish qonuni: moddiy nuqtalar (jism) tizimining to'la mexanik energiyasining o'zgarishi tizimga ta'sir qiluvchi barcha konservativ bo'lmagan kuchlarning bajargan ishiga tengdir:

$$W_2 - W_1 = A_{konservativ kuch}, \quad (3.8)$$

Tizim to'la mexanik energiyasining salanish qonuni: moddiy nuqtalar tizimning to'la mexanik energiyasiga ta'sir qiluvchi faqat konservativ kuchlar o'zgarmasdan qoladi:

$$W_2 - W_1 = 0, \quad (3.9)$$

Nazorat savollari va topshiriqlar

3.1. Mexanik ish deganda nimani tushunasiz? Quvvat deb nimaga aytiladi?

3.2. O'zgaruvchan kuchning bajargan ishi ifodasini yozing va tushuntirib bering.

3.3. Kinetik energiya deb nimaga aytiladi? U qaysi ifoda orqali hisoblanadi? Kinetik energiya bilan tizimga ta'sir qilayotgan tashqi va ichki kuchlar orasida qanday bog'lanish bor?

3.4. Potensial energiya deb nimaga aytiladi? Qandaydir potensial energiyaga ega bo'lgan jismlar haqida misollar keltiring. Potensial energiyani hisoblash ifodalaridan qaysilarini bilasiz? Jismlar va jismlar tizimining to'la mexanik energiyasi nimalardan iborat?

3.5. Moddiy nuqtaning tashqi kuch maydonidagi potensial energiyasi bilan moddiy nuqtaga ta'sir etayotgan kuch orasida qanday bog'lanish bor?

3.6. Markaziy kuch maydoni deb nimaga aytiladi? Gravitatsion maydon kuchlanganligi deb nimaga aytiladi? Gravitatsion maydon potentsiali deb nimaga aytiladi? Maydon kuchlanganligi va potentsiali orasida qanday bog'lanish bor?

3.7. Mexanik energiyaning saqlanish qonunini ifodalang. Uning vaqtning bir jinsliliigi bilan bog'lanishini tushuntiring.

3.8. Ikkita jism orasidagi absolyut elastik to‘qnashish deb nimaga aytiladi? Absolyut elastik to‘qnashishda qanday saqlanish qonunlari bajariladi? Ularni ifodalang.

3.9. Absolyut noelastik to‘qnashish deb nimaga aytiladi? Absolyut noelastik to‘qnashishda mexanikaning saqlanish qonunlaridan qaysi biri bajariladi?

3.10. Energiya dissipatsiyasi deb nimaga aytiladi? Qanday mexanik tizimlar dissipativ hisoblanadi? Dissipativ tizimlarga misollar keltiring.

3.1 - masala. m massali moddiy nuqta biror kuch ta'sirida to'g'ri chiziqli harakatlanmoqda. Uning harakat tenglamasi $x = B + Ct + Dt^2$ ko'rinishga ega. Bu erda B, C, D — o'zgarmas kattaliklar. t_1 vaqt davomida kuch qanday A ish bajaradi? t_2 vaqt davomida moddiy nuqta qanday P quvvatga erishadi? $A = f(t)$ va $P = f(t)$ bog'lanishlar grafiklarini chizing.

Topshiriq raqami	m, kg	B, m	$C, \text{m/s}$	$D, \text{m/s}^2$	t_1, s	t_2, s
1	2	10	-2	1	5	2
2					10	4
3					15	6
4					20	8
5					1	0,5
6	3	5	8	2	2	1
7					3	1,5
8					4	2
9					2	1
10	1,5	-4	-1	5	4	2
11					6	3
12					8	4
13					2,5	0,5
14	2,5	-9	3	2	5	1
15					7,5	1,5
16					10	2
17					1	1
18	1	7	-4	3	1,5	1,5
19					2,	2
20					2,5	2,5
21					2	0,4
22					4	0,6
23	0,5	-8	-3	4	6	0,8
24					8	1
25					10	5
26					20	10
27	4	6	5	-1	30	15
28					40	20

3.2 - masala. m massali moddiy nuqta konservativ kuch ta'sirida koordinatasi x_1 nuqtadan koordinatasi x_2 nuqtaga ko'chdi. X o'qi bo'yicha kuchning tashkil etuvchisi F_x , koordinata bilan, $F_x = f(x)$ qonun ko'rinishda bog'langan. Moddiy nuqtani ko'chirishda kuchning bajargan ishini toping. Bajarilgan ishning ko'chish kattaligiga bog'liqlik grafigini tuzing.

Topshiriq raqami	m, kg	Tashkil etuvchi kuchning o'zgarish qonuni $F_x=f(x), \text{N}$	$B,$	$C,$	x_1, m	x_2, m
1	0,5	$F_x = \frac{Bm}{x^2} + C$	$\frac{4}{\text{m}^3/\text{s}^2}$	0,2 N	2	4
2					4	6
3					6	8
4					8	10
5	1	$F_x = B + Cmx$	$\frac{4}{\text{m}^3/\text{s}^2}$	0,2 N	0,2	0,4
6					0,4	0,6
7					0,6	0,8
8					0,8	1
9	-	$F_x = \frac{B}{x} + C$	2 N·m	0,5 N	1	2
10					2	3
11					3	4
12					4	5
13	2	$F_x = Bm + C$	0,3 N/kg	1 N	0	0,5
14					0	1
15					0	1,5
16					0	2
17	-	$F_x = -Bx + C$	5 N/m	0,6 N	0,1	0,2
18					0,2	0,3
19					0,3	0,4
20					0,4	0,5
21	1	$F_x = B \frac{m}{x^2} + C$	$\frac{1,5}{\text{m}^1/\text{s}^2}$	4 N/m	0,5	1
22					1	1,5
23					1,5	2
24					2	2,5
25	-	$F_x = B + Cx^2$	1 N	3 N/m ²	0	0,25
26					0,25	0,5
27					0,5	0,75
28					0,75	1

3.3 - masala. m massali jism gorizont bilan α burchak hosil qilgan qiya tekislikda harakatlanmoqda. Yo'lning S ga teng qismida unga harakat yo'nalishida F doimiy kuch ta'sir qiladi. Yo'lning shu qismidagi kinetik energiyaning o'zgarishi ΔW_k ga teng, k - ishqalanish koeffitsienti. Noma'lum kattaliklarni toping.

Topshiriq raqami	m, kg	α, grad	S, cm	F, N	$\Delta W_k, \text{J}$	k
1	?	10	16	1,5	0,29	0,16
2	1,2	20	?	2,07	0,3	0,28
3	2,5	30	50	?	9,98	0,07
4	0,08	40	4	3,12	0,14	?
5	?	20	60	4,48	6,4	0,14
6	1,8	25	?	2,35	3,6	0,05
7	0,15	30	20	?	0,56	0,34
8	0,2	35	15	1,12	0,3	?
9	?	15	45	1,34	0,9	0,24
10	4	24	?	8,64	6,3	0,1
11	0,06	35	5	?	0,2	0,18
12	0,25	40	18	1,9	0,54	?
13	?	18	32	4,3	2,56	0,06
14	1,3	26	?	3,42	0,75	0,35
15	0,3	34	25	?	0,6	0,2
16	2,2	42	55	6,38	11	?
17	?	14	6	1,53	0,12	0,2
18	0,8	18	?	2,44	0,36	0,25
19	2,4	22	45	?	4,95	0,12
20	0,2	26	12	1,17	0,18	?
21	?	20	40	5,66	5,4	0,08
22	0,5	28	?	0,58	0,38	0,32
23	0,1	34	71,6	?	1,1	0,26
24	0,15	40	10	2,19	0,3	?
25	?	12	35	0,8	0,49	0,15
26	0,4	24	?	1,7	0,4	0,36
27	2,5	36	42	?	6,51	0,22
28	0,12	48	8	2,85	0,28	?

3.4 - masala. v_0 boshlang'ich tezlik bilan vertikal yuqoriga otilgan m massali jism harakatining t_1 va t_2 vaqt momentidagi kinetik, potensial, va to'la energiyalarining qiymatlarini toping. Kinetik, potensial va to'la energiyalarning vaqtga bog'liqlik grafiklarini tuzing.

Topshiriq raqami	$m, m/s$	v_0, m	t_1, s	t_2, s
1	0,5	4,9	0,1	0,9
2			0,2	0,8
3			0,3	0,7
4			0,4	0,6
5	0,2	19,6	0,4	3,6
6			0,8	3,2
7			1,2	2,8
8			1,6	2,4
9	0,4	12,25	0,25	2,25
10			0,5	2
11			0,75	1,75
12			1	1,5
13	0,6	2,45	0,05	0,45
14			0,1	0,4
15			0,12	0,35
16			0,2	0,3
17	0,3	14,7	0,3	2,7
18			0,6	2,4
19			0,9	2,1
20			1,2	1,8
21	0,25	9,8	0,2	1,8
22			0,4	1,6
23			0,6	1,4
24			0,8	1,2
25	0,1	24,5	0,5	4,5
26			1	4
27			1,5	3,5
28			2	3

3.5 - masala. Zarracha potensial energiyasi kuch maydonida berilgan qonun bo'yicha o'zgaradi. Zarrachaning koordinatalari x_1, y_1, z_1 bo'lgan nuqtadan, koordinatalari x_2, y_2, z_2 nuqtaga ko'chirishda maydon kuchlarining bajargan ishini toping. Zarrachaga ta'sir qilayotgan kuchning ifodasi va uning boshlang'ich va oxirgi nuqtalardagi kattaligi topilsin.

	Potensial energiyaning o'zgarish qonuni, J	x_1, m	y_1, m	z_1, m	x_2, m	y_2, m	z_2, m
1	$W_p = 2x^2 + 3y^2 + 0,5z$	0,5	1	0,2	0,1	0,75	0,1
2	$W_p = -\frac{4}{x} - 6z + 2$	2	0	0,5	0,5	0	0,2
3	$W_p = 2,5x^2 + 2y^2 - \frac{3}{z}$	1	2	1,5	2	3	0,75
4	$W_p = x + 2(y^2 + x^2)$	6,2	4	5,5	2,4	2,5	3
5	$W_p = -y^2 - 3,5z + 0,8$	0,8	0,5	0,1	0,4	0,7	0,5
6	$W_p = 2/x + 5y^2 + 2z^2$	4,5	2,5	1,2	3	3,5	1
7	$W_p = x^2 + 1,2y - 2/z$	1,2	0,8	1,5	1	1,2	1,4
8	$W_p = 3x - \frac{1,5}{y} + 1,1z$	2,4	0,5	2	1,5	0,4	1,5
9	$W_p = -x + 2,2\left(\frac{1}{y} + \frac{1}{z}\right)$	4	1,4	2,5	3,5	0,6	2
10	$W_p = x^2 + 4z + 5$	0,3	0,75	0,6	0,15	0,75	0,5
11	$W_p = \frac{1}{x} + 6y^2 - 4,8z$	1,4	1	1,25	1,2	0,8	1
12	$W_p = -y - z^2 + 1,5$	0,6	0,8	1	0,3	0,5	0,8
13	$W_p = \frac{6}{x} + \frac{4}{y} + \frac{2}{z}$	25	2	1,7	1,5	1,3	1,2
14	$W_p = y + 5(x^2 + z^2)$	0,7	0,4	0,5	0,5	0,4	0,6
15	$W_p = -x^2 + 2/y^2 - 4$	6	2,5	0	4	2	0
16	$W_p = 1,5x + y - 1,4/z$	0,5	0,8	1,2	0,75	0,9	1
17	$W_p = \frac{3,8}{y} - 2z^2 + 0,6$	5	2,2	4	3,5	1,8	3
18	$W_p = 2x + 1,6y^2 - 1/z$	0,4	0,7	0,6	0,6	0,5	1
19	$W_p = 5/x - 4/z$	3	1,5	2	2,5	1,1	1,4

20	$W_p = x^2 - 4(y + z) + 0,75$	1,25	1,1	1,6	1	1,5	1,5
21	$W_p = 2x^2 - 0,4y + 5/z$	0,1	0,4	0,2	0,25	0,6	0,4
22	$W_p = 8/x + 1,25z^2 + 2$	1,6	1,2	1	2	1,4	0,6
23	$W_p = 2x - y^2 + 1,8$	5,5	4	3,6	5	3,5	3
24	$W_p = 6/y + 2,2z^2$	0,75	1	0,9	0,5	0,6	1
25	$W_p = 4x - \frac{1}{y} - 2,6$	3,5	3	0	3	3,5	0
26	$W_p = 3,5/x + 2y + z$	6,5	4,5	5	5	4	3,5
27	$W_p = 2,2(x^2 + y) + 1,5$	0,2	0,75	0,5	0,4	1	0,75
28	$W_p = 2y^2 + 4z^2 + 1$	0,9	1,2	1,4	1	1,5	1,2

3.6 - masala. Massasi m va radiusi R bo'lgan planeta hosil qilayotgan gravitatsion maydon potensialining planeta sirtidagi qiymatini toping. Planeta yuzasidan qanday r masofada uning potentsiali moduli n marta kamayadi. Gravitatsion maydonning ekvipotensial sirtlari va gravitatsion maydon kuchlanganligi chiziqlarini sxemotexnik ravishda ko'rsating.

Topshiriq raqami	Planeta	m, kg	R, m	n
1	Yer	$5,96 \cdot 10^{24}$	$6,37 \cdot 10^6$	20
2				40
3				60
4				80
5				200
6	Venera	$4,9 \cdot 10^{24}$	$6,05 \cdot 10^6$	300
7				400
8				500
9				1,5
10	Mars	$6,56 \cdot 10^{23}$	$3,4 \cdot 10^6$	2
11				2,5
12				3
13				2,5
14	Yupiter	$1,9 \cdot 10^{27}$	$7,1 \cdot 10^7$	5
15				7,5
16				10
17				10
18	Saturn	$5,67 \cdot 10^{26}$	$6 \cdot 10^7$	20
19				30
20				40
21				50
22				100
23	Uran	$8,64 \cdot 10^{25}$	$2,5 \cdot 10^7$	150
24				200
25				2
26	Pluton	$1,19 \cdot 10^{23}$	$1,4 \cdot 10^6$	20
27				200
28				2000

bu erda α – harakatlanayotgan zarracha v tezligi vektori va \vec{B} magnit maydon induksiyasi orasidagi burchak.

j tok zichligi vektori va \vec{B} magnit maydon induksiyasi joylashgan metal plastina, parallel tekisliklar qirralari orasida Xoll effekti natijasida hosil bo'ladigan kuchlanish,

$$U_H = R_H j B b, \quad (13.7)$$

bu erda $R_H = 1/(ne)$ – Xoll doimiysi; b – qirralar orasidagi masofa.

Magnit maydon induksiyasi vektori oqimi

$$\Phi_B = \int_S \vec{B} d\vec{S} = \int_S B_n dS, \quad (13.8)$$

Magnit maydon uchun Ostrogradskiy – Gauss teoremasi:

$$\oiint_S \vec{B} d\vec{S} = \oiint_S B_n dS = 0, \quad (13.9)$$

Magnit maydonida o'tkazgich va tokli konturni ko'chirishda bajarilgan elementar ish

$$\delta A = Id\Phi, \quad (13.10)$$

Nazorat savollari va topshiriqlar

13.1. Magnit maydonida harakatlanayotgan zaryadga qanday kuch ta'sir qiladi? Uning qiymati qancha? Yo'nalishi qayerga yo'nalgan? Moddiy nuqta impuls momenti deb nimaga aytilishini eslab ko'ring. Tezlanishning normal va tangensial tashkil etuvchilari nimaga teng va qaysi tomonga yo'nalgan? Aylanma harakat davomida moddiy nuqtaning aylanish davri nimaga teng?

13.2. Qanday holda magnit maydoniga uchi kirayotgan zaryadlangan zarracha o'rama bo'ylab harakat qiladi? O'rama radiusi nimaga bog'liq? Uni qanday aniqlash mumkin? O'rama qadamini qanday hisoblash mumkin? U nimaga bog'liq?

13.3. Qanday kuch moddiy nuqtani aylanma orbitada ushlab turadi? Zaryadlangan zarrachaning magnit maydonidagi harakati davomida bu kuch o'rnini nima egallaydi? Qanday shartlardan zaryadlangan zarrachaning o'rama bo'ylab harakati tezligini va uning kinetik energiyasini aniqlash mumkin?

13.4. Xoll effekti nimadan iborat? Bunda vujudga keladigan ko'ndalang potentsiallar farqi nimaga teng? Xoll doimiysi zaryad tashuvchilar konsentratsiyasi bilan qanday bog'langan? Agar metallidagi tok tashuvchi elektronlar konsentratsiyasi undagi atomlar konsentratsiyasiga teng bo'lsa, atomlar konsentratsiyasini qanday aniqlash mumkin?

13.5. Metall va yarim o'tkazgichlarda yuzaga keluvchi Xoll effektlari orasida farq bormi? Yarim o'tkazgichlarda zaryad tashuvchilar nimadan iborat?

13.6. Magnit maydonidagi tokli o'tkazgichga qanday kuch ta'sir qiladi? Uning qiymati va yo'nalishini qanday aniqlash mumkin?

13.7. Kuch momenti nima? U nimaga teng? Magnit maydoniga joylashtirilgan tokli konturga qaysi vaqtda aylantiruvchi kuch momenti ta'sir qiladi? Konturga ta'sir qiluvchi kuch momenti qachon nolga teng bo'ladi?

13.8. Ajratilgan maydon orqali o'tuvchi magnit oqimi deb nimaga aytiladi? Uni qanday aniqlash mumkin? Magnit maydoni uchun Ostrogradskiy-Gauss teoremasini ifodalang.

13.9. Paralell tokli o'tkazgichlar uchun Amper qonunini ifodalang. Bu qonunidan foydalanib, o'tkazgichlar orasidagi masofani o'zgartirganda bajariladigan ish ifodasini qanday aniqlash mumkin?

13.10. Magnit maydonida tokli o'tkazgich va konturni ko'chirishda bajarilgan ish nimaga teng? Konturni biror burchakka burishda bajarilgan ishni qanday aniqlash mumkin? Bajarilgan ish qaysi vaqtda musbat va qaysi vaqtda manfiy bo'ladi?

13.1 - masala. U potentsiallar farqi ostida tezlanish olgan zaryadlangan zarracha, harakat yonalishiga perpendikulyar bo'lgan B induksiyali bir jinsli magnit maydoniga kirib kelmoqda. Magnit maydonidagi zarracha traektoriyasining egrilik radiusi R ga teng. Noma'lum kattalikni toping va qo'shimcha topshiriqni bajaring.

Topshiriq raqami	Zarracha	U, V	B, T	R, cm	Qo'shimcha ravishda aniqlansin
1	Proton	1 800	$6 \cdot 10^{-2}$?	Aylanish davri
2		450	?	15	Impuls momenti
3		?	$3 \cdot 10^{-2}$	12	Normal tezlanish
4		200	$4 \cdot 10^{-2}$?	Tangensial tezlanish
5	Elektron	8 000	$6 \cdot 10^{-3}$?	Impuls momenti
6		?	$3 \cdot 10^{-3}$	5	Normal tezlanish
7		320	?	6	Tangensial tezlanish
8		720	$9 \cdot 10^{-4}$?	Aylanish davri
9	Pozitron	720	?	3	Normal tezlanish
10		320	$2 \cdot 10^{-3}$?	Tangensial tezlanish
11		8 000	?	15	Aylanish davri
12		?	$3 \cdot 10^{-3}$	6	Impuls momenti
13	Proton	800	$2 \cdot 10^{-2}$?	Aylanish davri
14		?	$4 \cdot 10^{-2}$	10	Impuls momenti
15		1 250	?	25	Normal tezlanish
16		?	$3 \cdot 10^{-2}$	20	Tangensial tezlanish
17	α -zarracha	?	$4 \cdot 10^{-2}$	11	Tangensial tezlanish
18		900	?	12	Impuls momenti
19		400	$2 \cdot 10^{-2}$?	Normal tezlanish
20		?	$8 \cdot 10^{-2}$	15	Aylanish davri
21	Pozitron	8 000	?	6	Tangensial tezlanish
22		?	$4 \cdot 10^{-3}$	3	Normal tezlanish
23		320	$3 \cdot 10^{-4}$?	Impuls momenti
24		720	?	9	Aylanish davri
25	Elektron	720	$3 \cdot 10^{-3}$?	Aylanish davri
26		320	?	2	Tangensial tezlanish
27		8 000	$1,5 \cdot 10^{-2}$?	Normal tezlanish
28		?	$5 \cdot 10^{-4}$	20	Impuls momenti


13.2 - masala. U potentsiallar farqi ostida tezlanish olgan zaryadlangan zarracha, maydon yonalishiga φ burchak ostida bir jinsli magnit maydoniga kirib kelmoqda va vintsimon traektoriya bo'ylab hakaratlana boshlaydi. Magnit maydon induksiyasi – B , vint traektoriyasi radiusi – R ga, vint chizig'i qadami – h ga teng. Noma'lum kattaliklarni toping.

Topshiriq raqami	Zarracha	U, V	α , grad	B, T	R, cm	h, cm
1	α -zarracha	1 600	30	$2 \cdot 10^{-1}$?	?
2	Pozitron	3 500	60	$4 \cdot 10^{-2}$?	?
3	Proton	800	45	$1,41 \cdot 10^{-1}$?	?
4	Elektron	14 050	45	$6,28 \cdot 10^{-2}$?	?
5	Pozitron	7 900	45	?	6	?
6	Proton	1 250	30	?	2,5	?
7	Elektron	878	60	?	0,87	?
8	α -zarracha	2 500	60	?	2,5	?
9	Proton	?	45	$4,24 \cdot 10^{-1}$?	6,28
10	Elektron	?	60	$4 \cdot 10^{-2}$?	1,57
11	α -zarracha	?	45	$2,12 \cdot 10^{-1}$?	6,28
12	Pozitron	?	30	$2 \cdot 10^{-2}$?	5,44
13	Elektron	?	45	$3,53 \cdot 10^{-3}$	6	?
14	α -zarracha	?	30	10^{-1}	1,5	?
15	Pozitron	?	45	$7,07 \cdot 10^{-3}$	3	?
16	Proton	?	60	$3,46 \cdot 10^{-1}$	2	?
17	Proton	800	45	?	?	12,56
18	α -zarracha	900	30	?	?	16,3
19	Pozitron	14 050	45	?	?	2,83
20	Elektron	7 900	45	?	?	18,8
21	α -zarracha	1 600	?	$2 \cdot 10^{-1}$	2	?
22	Elektron	3 500	?	$2 \cdot 10^{-2}$	0,5	?
23	Pozitron	21 950	?	$3,53 \cdot 10^{-2}$	1	?
24	Proton	1 800	?	$4,24 \cdot 10^{-1}$	1	?
25	Pozitron	878	?	10^{-2}	?	3,14
26	Elektron	21 950	?	$3,53 \cdot 10^{-2}$?	6,28
27	Proton	1 250	?	10^{-1}	?	27,2
28	α -zarracha	2 500	?	$1,73 \cdot 10^{-1}$?	9,1

13.3 - masala. Zaryadlangan zarracha, bir jinsli magnit maydoniga maydon yonalishiga φ burchak ostida kirib, R radiusli vintsimon traektoriya bo'ylab hakaratlanishni boshlaydi. Magnit maydon induksiyasi – B , zarracha kinetik energiyasi – W_k ga teng. Noma'lum kattalikni toping.

Topshiriq raqami	Zarracha	φ , grad	R , cm	B , T	W_k , J
1	Proton	45	2,12	$3 \cdot 10^{-2}$?
2		30	2,5	?	$6,9 \cdot 10^{-17}$
3		60	?	$1,73 \cdot 10^{-2}$	$7,66 \cdot 10^{-18}$
4		?	4,0	$5 \cdot 10^{-2}$	$1,23 \cdot 10^{-16}$
5	α -zarracha	30	1,25	$5 \cdot 10^{-3}$?
6		60	4,33	?	$1,91 \cdot 10^{-16}$
7		60	?	$2,6 \cdot 10^{-1}$	$6,2 \cdot 10^{-16}$
8		?	4,5	$6,66 \cdot 10^{-3}$	$2,76 \cdot 10^{-18}$
9	Elektron	60	2,0	$4,33 \cdot 10^{-3}$?
10		45	1,07	?	$5,04 \cdot 10^{-15}$
11		45	?	$1,77 \cdot 10^{-2}$	$1,26 \cdot 10^{-15}$
12		?	1,73	10^{-2}	$5 \cdot 10^{-16}$
13	Proton	30	1,5	$2 \cdot 10^{-2}$?
14		60	8,66	?	$1,23 \cdot 10^{-16}$
15		45	?	$1,41 \cdot 10^{-1}$	$3,064 \cdot 10^{-17}$
16		?	4,24	$1,3 \cdot 10^{-1}$	$4,9 \cdot 10^{-16}$
17	Pozitron	45	1,5	$2,36 \cdot 10^{-3}$?
18		60	4,33	?	$5,6 \cdot 10^{-16}$
19		30	?	$2,5 \cdot 10^{-3}$	$2,24 \cdot 10^{-15}$
20		?	3,5	10^{-2}	$6,86 \cdot 10^{-15}$
21	α -zarracha	60	3,0	$1,73 \cdot 10^{-2}$?
22		45	7,07	?	$3,75 \cdot 10^{-16}$
23		30	?	$1,25 \cdot 10^{-2}$	$7,66 \cdot 10^{-18}$
24		?	1,41	$4 \cdot 10^{-1}$	$4,9 \cdot 10^{-16}$
25	elektron	30	2,5	$1,2 \cdot 10^{-2}$?
26		45	3,535	?	$1,4 \cdot 10^{-16}$
27		60	?	$5 \cdot 10^{-3}$	$3,5 \cdot 10^{-15}$
28		?	1,5	$2 \cdot 10^{-2}$	$5,04 \cdot 10^{-15}$

13.4 - masala. Metall plastinkaning $S = ab$ ko'ndalang kesimidan (a – plastinka qalinligi, b – balandligi) I tok o'tmoqda. Plastinka induksiyasi B bo'lgan magnit maydonga b qirrasiga va tok yo'nalishiga perpendikulyar ravishda joylashtirilgan. Bunda U ko'ndalang potentsiallar farqi paydo bo'ladi. Noma'lum kattalikni aniqlang. O'tkazuvchan elektronlar konsentratsiyasini atomlar konsentratsiyasiga teng deb hisoblang.



Topshiriq raqami	Metall	I, A	B, T	U, V	a, mm
1	Alyuminiy	?	0,5	$2,7 \cdot 10^{-7}$	0,25
2		2,6	?	$8,1 \cdot 10^{-7}$	0,12
3		5,2	0,4	?	0,27
4		3,9	0,6	$4,5 \cdot 10^{-7}$?
5	Kumush	?	1,05	$6,48 \cdot 10^{-7}$	0,41
6		2,1	?	$2,7 \cdot 10^{-7}$	0,44
7		6,5	0,21	?	1,08
8		5,25	0,8	$4 \cdot 10^{-7}$?
9	Platina	?	0,64	$1,6 \cdot 10^{-7}$	0,78
10		2,15	?	$3,9 \cdot 10^{-7}$	0,38
11		6,45	0,2	?	0,15
12		7,2	0,43	$7,8 \cdot 10^{-7}$?
13	Alyuminiy	?	0,78	$3 \cdot 10^{-7}$	0,81
14		3,6	?	$5,4 \cdot 10^{-7}$	0,18
15		2,6	0,8	?	0,54
16		6,0	0,26	$3,6 \cdot 10^{-7}$?
17	Kumush	?	0,41	$1,64 \cdot 10^{-6}$	0,135
18		4,2	?	$3,2 \cdot 10^{-7}$	0,54
19		10,5	0,35	?	0,7
20		2,1	0,45	$9 \cdot 10^{-7}$?
21	Alyuminiy	?	0,26	$3,6 \cdot 10^{-7}$	0,54
22		1,3	?	$5,4 \cdot 10^{-7}$	0,21
23		4,5	0,25	?	0,135
24		7,8	0,2	$1,8 \cdot 10^{-7}$?
25	Platina	?	0,86	$1,2 \cdot 10^{-6}$	0,39
26		4,3	?	$1,95 \cdot 10^{-6}$	0,16
27		3,1	0,43	?	0,13
28		2,15	0,28	$1,4 \cdot 10^{-7}$?

13.5 - masala. Qalinligi a bo'lgan yarim o'tkazgich plastinka, a bo'ylab yo'nalgan magnit maydoniga kiritilgan. Yarim o'tkazgichning solishtirma qarshiligi – ρ , magnit maydoni induksiyasi – B ga teng. Maydonga perpendikulyar yo'nalishda plastinka bo'ylab I tok o'tkaziladi. Bunda U ko'ndalang potentsiallar farqi paydo bo'ladi. Yarim o'tkazgichdagi tok tashuvchi zaryadlar harakatchanligi u ga teng. Noma'lum kattalikni toping.

Topshiriq raqami	a , mm	ρ , Om·m	B , T	I , A	U , V	u , m ² / (V·s)
1	?	$2 \cdot 10^{-5}$	0,4	0,7	$5,6 \cdot 10^{-4}$	$3,2 \cdot 10^{-2}$
2	0,85	?	0,35	0,9	$4,2 \cdot 10^{-4}$	$1,7 \cdot 10^{-2}$
3	0,64	10^{-5}	?	0,32	$1,2 \cdot 10^{-4}$	$4 \cdot 10^{-2}$
4	0,36	$5 \cdot 10^{-5}$	0,72	?	$5,4 \cdot 10^{-3}$	$1,08 \cdot 10^{-1}$
5	0,56	$1,4 \cdot 10^{-5}$	0,5	0,75	?	$1,6 \cdot 10^{-1}$
6	0,20	10^{-5}	1,0	0,1	$3,25 \cdot 10^{-3}$?
7	?	$3 \cdot 10^{-5}$	0,48	0,5	$1,2 \cdot 10^{-3}$	$7,1 \cdot 10^{-2}$
8	0,45	?	0,6	0,9	$2,4 \cdot 10^{-3}$	$5 \cdot 10^{-2}$
9	0,27	$1,5 \cdot 10^{-5}$?	0,54	$3,3 \cdot 10^{-3}$	$1,25 \cdot 10^{-1}$
10	0,52	10^{-5}	0,45	?	$7,2 \cdot 10^{-4}$	$1,04 \cdot 10^{-1}$
11	0,32	$2 \cdot 10^{-5}$	0,55	0,4	?	$6,4 \cdot 10^{-2}$
12	0,30	$2 \cdot 10^{-5}$	0,8	1,2	$3,2 \cdot 10^{-3}$?
13	?	$4 \cdot 10^{-5}$	0,6	0,9	$3,6 \cdot 10^{-3}$	$5,5 \cdot 10^{-2}$
14	0,62	?	0,93	0,25	$1,8 \cdot 10^{-3}$	$8 \cdot 10^{-2}$
15	0,46	$2,2 \cdot 10^{-5}$?	0,92	$5,72 \cdot 10^{-3}$	$1,3 \cdot 10^{-1}$
16	0,34	$6 \cdot 10^{-5}$	0,72	?	$1,44 \cdot 10^{-4}$	$1,7 \cdot 10^{-1}$
17	0,68	$2 \cdot 10^{-5}$	0,85	0,4	?	$3,82 \cdot 10^{-2}$
18	0,80	$3,2 \cdot 10^{-5}$	1,6	1,0	$9,6 \cdot 10^{-4}$?
19	?	$4 \cdot 10^{-5}$	0,36	1,5	$1,44 \cdot 10^{-3}$	$1,2 \cdot 10^{-2}$
20	0,35	?	0,64	1,05	$5,76 \cdot 10^{-4}$	$2 \cdot 10^{-2}$
21	0,40	$1,2 \cdot 10^{-5}$?	0,6	$3,6 \cdot 10^{-3}$	$2,2 \cdot 10^{-1}$
22	0,28	$1,4 \cdot 10^{-5}$	0,5	?	$5,8 \cdot 10^{-4}$	$1,16 \cdot 10^{-1}$
23	0,60	$2 \cdot 10^{-5}$	0,75	0,4	?	$5,35 \cdot 10^{-2}$
24	0,75	$2,5 \cdot 10^{-5}$	0,54	0,8	$7,2 \cdot 10^{-4}$?
25	?	$2,8 \cdot 10^{-5}$	0,25	0,55	$7 \cdot 10^{-4}$	$4 \cdot 10^{-2}$
26	0,58	?	1,16	0,6	$3,6 \cdot 10^{-4}$	$3 \cdot 10^{-2}$
27	0,42	$4 \cdot 10^{-5}$?	0,6	$1,2 \cdot 10^{-4}$	$2,1 \cdot 10^{-1}$
28	0,39	$1,3 \cdot 10^{-5}$	0,9	?	$3,36 \cdot 10^{-4}$	$1,12 \cdot 10^{-1}$

13.6 - masala. Elektromagnit qutblari orasida B induksiyali bir jinsli magnit maydoni paydo qilinadi. Uzunligi l bo'lgan o'tkazgich elektromagnit qutblari orasidaga kuch chiziqlariga nisbatan φ burchak ostida joylashtirilgan, undan t vaqt davomida $q = f(t)$ qonunga bo'ysunuvchi zaryad oqib o'tadi. Bunda o'tkazgichga ta'sir qiluvchi kuch F ga teng. Noma'lum kattalikni aniqlang.

Topshiriq raqami	$q = f(t), C$	l, m	B, T	$\varphi, grad$	F, N
1	$q = 0.5t + 2$?	$3 \cdot 10^{-2}$	30	$1,5 \cdot 10^{-4}$
2	$q = 1.6 + 0.2t$	2.5	?	45	$7,07 \cdot 10^{-4}$
3	$q = t - 0.75$	5	$3,8 \cdot 10^{-2}$?	$1,34 \cdot 10^{-3}$
4	$q = 0.1t - 0.25$	20	$1,4 \cdot 10^{-2}$	60	?
5	$q = 0.25t + 1.8$?	$8 \cdot 10^{-2}$	60	$4,33 \cdot 10^{-4}$
6	$q = 2.47 + 0.6t$	3.33	?	45	$1,41 \cdot 10^{-3}$
7	$q = 0.15t - 0.04$	15	$4,3 \cdot 10^{-2}$?	$8,38 \cdot 10^{-4}$
8	$q = 0.3t - 2.2$	18	$6,2 \cdot 10^{-2}$	30	?
9	$q = 1.2t - 3.0$?	$5,83 \cdot 10^{-2}$	30	$3,5 \cdot 10^{-4}$
10	$q = 0.75 + 2t$	7.5	?	60	$8,66 \cdot 10^{-4}$
11	$q = 0.5t - 0.48$	10	$5,7 \cdot 10^{-2}$?	$2 \cdot 10^{-3}$
12	$q = 0.3t - 0.23$	5	$8,2 \cdot 10^{-2}$	45	?
13	$q = 0.35t + 1.21$?	$2,72 \cdot 10^{-2}$	45	$4,24 \cdot 10^{-4}$
14	$q = 2.75 + 0.8t$	6.25	?	30	$2,5 \cdot 10^{-3}$
15	$q = 3.84 + 0.55t$	3	$6,4 \cdot 10^{-2}$?	$5,28 \cdot 10^{-4}$
16	$q = 0.4t - 0.17$	11	$9,6 \cdot 10^{-3}$	60	?
17	$q = 0.9t - 1.75$?	$5,55 \cdot 10^{-2}$	60	$1,73 \cdot 10^{-3}$
18	$q = 0.55t + 0.83$	9	?	45	$2,12 \cdot 10^{-3}$
19	$q = 0.12 + 0.4t$	5	$9,5 \cdot 10^{-3}$?	$1,34 \cdot 10^{-4}$
20	$q = 0.8t - 0.98$	8	$5,8 \cdot 10^{-2}$	30	?
21	$q = 0.6t - 2.15$?	$5 \cdot 10^{-2}$	30	$6 \cdot 10^{-4}$
22	$q = 3.84 + 0.45t$	6.66	?	60	$2,6 \cdot 10^{-3}$
23	$q = 2.14 + 0.7t$	9	$8,8 \cdot 10^{-3}$?	$4,8 \cdot 10^{-4}$
24	$q = 0.75t - 0.18$	2	$7,3 \cdot 10^{-2}$	45	?
25	$q = 1.12 + 0.35t$?	$4 \cdot 10^{-2}$	45	$4,95 \cdot 10^{-4}$
26	$q = 0.44 + 0.85t$	8.82	?	30	$7,5 \cdot 10^{-4}$
27	$q = 0.45t - 2.11$	10	$7,8 \cdot 10^{-3}$?	$3,04 \cdot 10^{-4}$
28	$q = 0.7t - 1.31$	4	$9,2 \cdot 10^{-3}$	60	?

13.7 - masala. Uzunligi l bo'lgan o'tkazgichdan turli ko'rinishdagi konturlar tayyorlandi. Induksiyasi B bo'lgan bir jinsli magnit maydoniga joylashtrilgan har bir konturga M aylanish momenti ta'sir qilmoqda. Kontur bo'ylab I tok o'tmoqda. Kontur tekisligiga o'tkazilgan normal magnit maydoni yo'nalishiga nisbatan φ burchak tashkil qiladi. Noma'lum kattalikni aniqlang.

Topshiriq raqami	Kontur turi	l, cm	B, T	$M, \text{N}\cdot\text{m}$	I, A	φ, grad
1	Aylana	12,56	$4 \cdot 10^{-3}$?	0,6	45
2		6	?	$4,5 \cdot 10^{-7}$	0,2	30
3		?	$3,14 \cdot 10^{-3}$	$8,66 \cdot 10^{-7}$	0,1	60
4		6,28	$3 \cdot 10^{-2}$	$3,33 \cdot 10^{-6}$	0,5	?
5	Kvadrat	4	$1,5 \cdot 10^{-2}$	$2,6 \cdot 10^{-7}$?	60
6		8	$4 \cdot 10^{-2}$?	0,15	45
7		10	?	$7,51 \cdot 10^{-6}$	0,32	30
8		?	$1,25 \cdot 10^{-2}$	$4,33 \cdot 10^{-6}$	0,25	60
9	Tomonlari a va b , $a=2b$ bo'lgan to'g'rito'rtburchak	9	10^{-2}	$8,7 \cdot 10^{-7}$	0,2	?
10		6	$2,5 \cdot 10^{-2}$	$1,41 \cdot 10^{-6}$?	45
11		12	$1,5 \cdot 10^{-3}$?	0,3	60
12		11	?	$1,21 \cdot 10^{-6}$	0,9	30
13	Aylana	?	$1,57 \cdot 10^{-2}$	$7,07 \cdot 10^{-7}$	0,125	45
14		9,3	$1,5 \cdot 10^{-2}$	$6,36 \cdot 10^{-6}$	0,3	?
15		10	$3,14 \cdot 10^{-2}$	$3,53 \cdot 10^{-6}$?	45
16		31,4	$7 \cdot 10^{-3}$?	0,4	30
17	Tomonlari a va b , $a=4b$ bo'lgan to'g'rito'rtburchak	8	?	$1,28 \cdot 10^{-6}$	0,5	30
18		?	$1,25 \cdot 10^{-2}$	$7,07 \cdot 10^{-6}$	0,5	45
19		14	$5 \cdot 10^{-2}$	$3,4 \cdot 10^{-6}$	0,1	?
20		12	$2,5 \cdot 10^{-2}$	$2,6 \cdot 10^{-6}$?	60
21	Kvadrat	16	$5,5 \cdot 10^{-3}$?	0,25	60
22		12	?	$2,12 \cdot 10^{-6}$	0,35	45
23		?	$2,5 \cdot 10^{-2}$	$1,8 \cdot 10^{-6}$	0,64	30
24		6,4	$5 \cdot 10^{-2}$	$1,28 \cdot 10^{-6}$	0,2	?
25	Aylana	8	$6,28 \cdot 10^{-3}$	$8 \cdot 10^{-7}$?	30
26		15,7	$3 \cdot 10^{-3}$?	0,8	60
27		5	?	$7,07 \cdot 10^{-7}$	0,63	45
28		?	$9,42 \cdot 10^{-3}$	$4,33 \cdot 10^{-6}$	0,66	60

13.8 - masala. Disk, unga o'tkazilgan normal magnit maydoni induksiya chiziqlariga nisbatan φ burchak ostida joylashgan bo'lib, normal bilan mos keluvchi o'q atrofida ν chastota bilan aylanmoqda. R radiusli diskni t , vaqt davomida kesib o'tuvchi magnit maydoni oqimi – Φ ga teng. Mangit maydoni induksiyasi – B ga teng. Noma'lum kattalikni aniqlang.

Topshiriq raqami	φ , grad	ν , Hz	r , cm	t , min	F , Vb	B , T
1	?	15	3	2	$5,1 \cdot 10^{-2}$	$2 \cdot 10^{-2}$
2	60	?	4	0,1	$6,28 \cdot 10^{-3}$	$2,08 \cdot 10^{-2}$
3	45	20	?	0,5	$1,7 \cdot 10^{-2}$	$8 \cdot 10^{-3}$
4	30	20	5	?	$9,79 \cdot 10^{-2}$	$6 \cdot 10^{-3}$
5	45	25	2	1	?	$4 \cdot 10^{-2}$
6	60	15	3	0,5	$3,8 \cdot 10^{-2}$?
7	?	30	5	0,5	$1,25 \cdot 10^{-1}$	$2,5 \cdot 10^{-2}$
8	45	?	1	0,2	$1,33 \cdot 10^{-3}$	$5 \cdot 10^{-2}$
9	60	5	?	2	$1,13 \cdot 10^{-2}$	$3 \cdot 10^{-2}$
10	45	18	1,5	?	$5,4 \cdot 10^{-3}$	$2 \cdot 10^{-2}$
11	30	10	4	0,5	?	$8 \cdot 10^{-3}$
12	60	25	6	0,2	$1,36 \cdot 10^{-2}$?
13	?	12	2,5	1	$6,36 \cdot 10^{-3}$	$9 \cdot 10^{-3}$
14	30	?	5	0,5	$3,67 \cdot 10^{-2}$	$1,2 \cdot 10^{-2}$
15	45	20	?	1,5	$5,99 \cdot 10^{-2}$	$6 \cdot 10^{-3}$
16	45	30	1,5	?	$3,6 \cdot 10^{-2}$	$4 \cdot 10^{-2}$
17	60	20	8	3	?	$3 \cdot 10^{-2}$
18	30	5	4	2	$1,57 \cdot 10^{-2}$?
19	?	10	6	1,5	$5,03 \cdot 10^{-2}$	$7 \cdot 10^{-3}$
20	60	?	3	0,5	$8,48 \cdot 10^{-2}$	$8 \cdot 10^{-3}$
21	30	15	?	0,1	$1,1 \cdot 10^{-2}$	$5 \cdot 10^{-2}$
22	60	10	2	?	$2,83 \cdot 10^{-3}$	$9 \cdot 10^{-3}$
23	45	18	7	1	?	$2 \cdot 10^{-2}$
24	45	5	2	1,5	$4,8 \cdot 10^{-2}$?
25	?	14	2	2	$2,74 \cdot 10^{-2}$	$1,5 \cdot 10^{-2}$
26	30	?	2,5	1	$7,14 \cdot 10^{-3}$	$7 \cdot 10^{-3}$
27	45	5	?	0,5	$4,8 \cdot 10^{-2}$	$4 \cdot 10^{-2}$
28	60	25	3	?	$7,95 \cdot 10^{-2}$	$5 \cdot 10^{-2}$

13.9 - masala. Ikkita to'g'ri chiziqli cheksiz uzun parallel o'tkazgichlar bir-biridan r_1 masofada joylashgan. O'tkazgichlardan bir yo'nalishda I_1 va I_2 toklar o'tmoqda. O'tkazgichlarni r_2 masofaga siljitish uchun o'tkazgichning uzunlik birligiga to'g'ri keluvchi A ish bajarish kerak. Noma'lum kattalikni aniqlang.

Topshiriq raqami	r_1, cm	r_2, cm	I_1, A	I_2, A	A, J
1	?	5	1,4	0,5	$9,7 \cdot 10^{-8}$
2	2	?	0,75	1,2	$1,98 \cdot 10^{-7}$
3	r_1	$1,5 \cdot r_1$?	2,5	$4,05 \cdot 10^{-7}$
4	$0,5 \cdot r_2$	r_2	0,5	?	$6,93 \cdot 10^{-8}$
5	r_1	$2 \cdot r_1$	0,5	0,8	?
6	?	8	1,5	0,6	$2,49 \cdot 10^{-7}$
7	5	?	0,6	0,4	$3,33 \cdot 10^{-8}$
8	r_1	$3 \cdot r_1$?	0,25	$1,1 \cdot 10^{-7}$
9	$0,2 \cdot r_2$	r_2	0,4	?	$1,6 \cdot 10^{-7}$
10	r_1	$4 \cdot r_1$	1,0	1,5	?
11	?	4,5	0,8	0,5	$8,8 \cdot 10^{-8}$
12	6	?	1,2	1,6	$2,66 \cdot 10^{-7}$
13	$0,25 \cdot r_2$	r_2	?	1,25	$1,38 \cdot 10^{-7}$
14	r_1	$2 \cdot r_1$	1,5	?	$2,77 \cdot 10^{-7}$
15	$0,5 \cdot r_2$	r_2	2,2	1,5	?
16	?	12	0,7	1,0	$7 \cdot 10^{-8}$
17	3	?	1,3	0,5	$9 \cdot 10^{-8}$
18	$0,1 \cdot r_2$	r_2	?	0,4	$4,6 \cdot 10^{-7}$
19	r_1	$3 \cdot r_1$	0,2	?	$8,8 \cdot 10^{-8}$
20	r_1	$5 \cdot r_1$	0,2	0,6	?
21	?	12	0,3	0,7	$4,6 \cdot 10^{-8}$
22	4,5	?	1,4	2,0	$3,88 \cdot 10^{-7}$
23	r_1	$2,5 \cdot r_1$?	0,5	$9,16 \cdot 10^{-8}$
24	$0,25 \cdot r_2$	r_2	2,0	?	$2,77 \cdot 10^{-7}$
25	10	20	0,7	2,1	?
26	?	15	1,3	0,9	$1,88 \cdot 10^{-7}$
27	2	?	0,5	1,1	$7,62 \cdot 10^{-8}$
28	$0,4 \cdot r_2$	r_2	?	0,8	$1,83 \cdot 10^{-7}$

13.10 - masala. Vertikal joylashgan r radiusli aylanma kontur bir jinsli gorizontaal magnit maydoniga, kontur tekisligining musbat normali magnit maydoniga nisbatan φ_1 burchak hosil qiladigan qilib joylashtirilgan. Magnit maydon induksiyasi – B , kontur orqali oqayotgan tok kuchi – I ga teng. Konturni vertikal diametri bilan mos keluvchi o‘qi atrofida, uning normali magnit maydoniga nisbatan φ_2 burchak hosil qiladigan qilib burish uchun A ish bajarish kerak. Noma‘lum kattalikni toping.

Topshiriq raqami	B, T	I, A	r, cm	$\varphi_1, grad$	$\varphi_2, grad$	A, J
1	?	0,25	4	60	0	$7,54 \cdot 10^{-5}$
2	0,02	?	3	30	90	$-2,45 \cdot 10^{-5}$
3	0,3	1,5	?	0	45	$-1,49 \cdot 10^{-3}$
4	0,45	0,9	6	?	120	$-5,53 \cdot 10^{-3}$
5	0,5	0,6	7	150	?	$3,22 \cdot 10^{-3}$
6	0,1	0,5	2	30	60	?
7	?	0,8	12	90	135	$-5,12 \cdot 10^{-3}$
8	0,25	?	5	60	120	$-1,57 \cdot 10^{-3}$
9	0,02	1,0	?	45	90	$-7,1 \cdot 10^{-5}$
10	0,3	0,7	4	?	90	$-9,14 \cdot 10^{-4}$
11	0,6	0,2	1	120	?	$5,65 \cdot 10^{-5}$
12	0,4	0,1	10	30	120	?
13	?	1,2	1	135	45	$3,2 \cdot 10^{-4}$
14	0,5	?	4	120	30	$3,43 \cdot 10^{-4}$
15	0,6	0,75	?	30	150	$-6,12 \cdot 10^{-3}$
16	0,1	0,5	8	?	120	$-5,03 \cdot 10^{-4}$
17	0,35	0,4	6	30	?	$-1,37 \cdot 10^{-3}$
18	0,05	1,2	5	0	45	?
19	?	0,6	2	45	30	$3 \cdot 10^{-5}$
20	0,8	?	3	150	90	$1,96 \cdot 10^{-3}$
21	0,7	0,8	?	0	30	$-9,43 \cdot 10^{-5}$
22	0,4	0,3	2	?	30	$5,52 \cdot 10^{-5}$
23	0,5	0,1	4	180	?	$2,51 \cdot 10^{-4}$
24	0,25	0,4	6	90	30	?
25	?	0,3	2	180	360	$3 \cdot 10^{-4}$
26	0,75	?	8	90	180	$-7,54 \cdot 10^{-3}$
27	0,08	0,6	?	60	150	$-1,85 \cdot 10^{-4}$
28	0,2	0,15	9	?	90	$-7,63 \cdot 10^{-4}$

14 – mavzu. Moddalarda magnit maydoni. Elektromagnit induksiya. Elektromagnit maydon uchun Maksvell nazariyasining asoslari

Asosiy qonunlar va ifodalar

Moddaning magnitlanganligi (magnitlanganlik vektori) magnetikning birlik hajmi magnit momentlarining yig'indisiga tengdir:

$$\mathbf{J} = \frac{\sum \vec{p}_m}{\Delta V}, \quad (14.1)$$

Magnit qabulqiluvchanlik miqdor jihatdan IA/m ga teng magnit maydoni kuchlanganligida magnetikning magnitlanganligiga teng:

$$\chi = \frac{|\mathbf{J}|}{|\vec{H}|}, \quad (14.2)$$

Moddaning magnit singdiruvchanligi

$$\mu = B/B_0, \quad (14.3)$$

bu erda B – magnetikdagi magnit maydon induksiyasi; B_0 – vakuumda o'sha maydonning induksiyasi.

Magnit maydoninig kuchlanganligi

$$\vec{H} = \frac{\vec{B}}{\mu_0} - \mathbf{J}, \quad (14.4)$$

Moddadagi magnit maydon uchun to'la tok qonuni:

$$\oint_L \vec{H}_i dl = \sum_i I_i, \quad (14.5)$$

bu erda $\sum_i I_i$ – L kontur o'rab oladigan o'tkazgich toklari yig'indisi.

Moddada \vec{H} magnit maydoni kuchlanganligi bilan \vec{B} magnit maydon induksiyasi orasidagi bog'lanish:

$$\vec{B} = \mu\mu_0\vec{H}, \quad (14.6)$$

Moddaning μ magnit singdiruvchanligi bilan χ magnit qabul qiluvchsnligi orasidagi bog'lanish:

$$\mu = 1 + \chi, \quad (14.7)$$

μ_1 va μ_2 magnit singdiruvchanlikka ega bo'lgan ikkita magnetiklar chegarasidagi magnit maydonining \vec{B} induksiyasi va \vec{H} kuchlanganligining normal va tangensial tashkil etuvchilari orasidagi nisbat:

$$H_{r1} = H_{r2}, \quad B_{n1} = B_{n2}, \quad \frac{H_{n1}}{H_{n2}} = \frac{\mu_2}{\mu_1}, \quad \frac{B_{r1}}{B_{r2}} = \frac{\mu_1}{\mu_2}, \quad (14.8)$$

Ikkita magnetik chegarasida magnit induksiya chiziqlarining sinish qonuni:

$$\frac{\operatorname{tg}\alpha_1}{\operatorname{tg}\alpha_2} = \frac{\mu_1}{\mu_2}, \quad (14.9)$$

bu erda α_1, α_2 – birinchi va ikkinchi magnetiklarda induksiya vektorlari yo'nalishlari va chegara normali oralaridagi burchaklar.

Elektromagnit induksiya qonuni:

$$E_i = -\frac{d\Phi}{dt}, \quad (14.10)$$

Tokli kontur induktivligi

$$L = \frac{\Phi}{i}, \quad (14.11)$$

Induksiya EYK

$$E_i = -\left(L\frac{di}{dt} + i\frac{dL}{dt}\right), \quad (14.12)$$

Ferromagnetiklar yoqligida deformatsiyalanmaydigan konturda induksiya EYK

$$E_i = -L\frac{di}{dt}, \quad (14.13)$$

Tokli kontur (solenoid) magnit maydonining energiyasi

$$W_m = -\frac{LI^2}{2}, \quad (14.14)$$

Magnit maydoni energiyasining hajmiy zichligi

$$\omega_m = \frac{BH}{2}, \quad (14.15)$$

Zanjir uzilgandagi tokning kamayish qonuni:

$$i = I_0 e^{-\frac{Rt}{L}}, \quad (14.16)$$

bu erda e – natural logarifm asosi.

Zanjir ulanganda tokning o‘shish qonuni:

$$i = I_0 \left(1 - e^{-\frac{Rt}{L}}\right), \quad (14.17)$$

Ko‘chish toki zichligi

$$\vec{j}_k = \frac{\partial \vec{D}}{\partial t}, \quad (14.18)$$

Maksvell tenglamalarining integral ko‘rinishlari:

$$\oint_L E_i dl = -\int_s \left(\frac{\partial \vec{B}}{\partial t}\right)_n dS, \quad \oint_s D_n dS = \int_v \rho dV \quad (14.19)$$

$$\oint_L H_i dl = \int_s \left(\vec{j} + \frac{\partial \vec{D}}{\partial t}\right)_n dS, \quad \oint_s B_n dS = 0$$

Nazorat savollari va topshiriqlar

14.1. Modda magnitlanganligi (magnitlanganlik vektori) deb nimaga aytiladi? Moddaning magnit qabul qiluvchanligi nima? Bular orasida qanday bog‘lanishlar bor: a) ma’lum hajmdagi magnetikning magnitlanganligi vektori va magnit momentlar yig‘indisi bilan; b) magnit qabul qiluvchanlik va moddaning magnitlanganligi bilan; c)

Moddadagi magnit maydon kuchlanganligi bilan magnit maydon induksiyasi orasida; d) Moddaning nisbiy magnit singdiruvchanligi va uning magnit qabul qiluvchanligi orasida? Magnetiklar turlari qanday parametrlar bilan farqlanadilar?

14.2. Moddadagi magnit maydoni uchun to'liq tok qonunini ifodalang. Ikki magnetiklar chegarasida: a) magnit maydon induksiyasining normal tashkil etuvchisi va b) magnit maydoni kuchlanganligining normal tashkil etuvchisi orasida qanday bog'liqlik mavjud?

14.3. Ikkita magnetiklar chegarasida magnit maydonining tangensial tashkil etuvchilari orasida qanday bog'liqlik mavjud? Ikkita magnetik chegarasida magnit induksiya chiziqlarining sinish qonunini yozing.

14.4. Elektromagnit induksiya hodisasi nima? Elektromagnit induksiya qonunini ifodalang. Lens qoidasini tariflang.

14.5. Qaysi holda EYK. induksiyasi maksimal bo'ladi? Konturning qaysi holatida uning aylanishi konturni kesib o'tuvchi magnit oqimi o'zgarishiga olib kelmaydi?

14.6. Oqimni ushlab olish deb nimaga aytiladi? N ta o'ramdan iborat ramkadagi EYK induksiyasi, xuddi shunday yuzaga ega bo'lgan bitta o'ramdan iborat kontur EYK induksiyasidan qanchaga farq qiladi.

14.7. O'zinduksiya hodisasi nima? O'zinduksiya EYKsi nimaga teng? Induktivlik nima? U qanday birliklarda o'lchanadi? Qaysi hollarda solenoid induktivligi o'zgarmas bo'ladi? Qachon induktivlik solenoid o'ramlaridagi tok kuchiga bog'liq bo'ladi? Ohirgi holatda o'zinduksiya EYK nimaga teng? Tokli kontur energiyasi nimaga teng? O'zaro bog'langan bir necha konturlarning energiyalarini qanday aniqlanadi? Energiyaning hajmiy zichligi nima va uni qanday aniqlanadi?

14.8. Zanjir uzilganda tok qanday qonun bo'yicha kamayadi? Zanjirning vaqt doimiysi (relaksatsiya vaqti) deb nimaga aytiladi? Zanjir ulanganda tok qanday qonunga asosan o'sib boradi? Nima uchun zanjir tutashganda yoki uzilganda tok birdaniga emas, balki asta-sekinlik bilan o'zgaradi?

14.9. Elektromagnit maydon Maksvell nazariyasi asosida nima yotadi? Siljish toki deb nimaga aytiladi? U qanday aniqlanadi?

14.10. Maksvell tenglamalarini yozing va ularni tushuntiring.

14.1 - masala. Magnit maydoniga R radiusli sharcha joylashtirilgan. Sharcha moddasi magnit qabul qiluvchanligi – χ ga, sharchaning magnit momenti – p ga, sharcha ichidagi magnit maydoni induksiyasi – B ga teng. Noma'lum kattalikni toping. Sharcha tayyorlangan magnetik moddaning turini aniqlang.

Topshiriq raqami	B, T	R, cm	χ	$p, A \cdot m^2$
1	$6 \cdot 10^{-3}$	2	$1,76 \cdot 10^{-4}$?
2	$2 \cdot 10^{-3}$	1,5	?	$3,375 \cdot 10^{-6}$
3	$5 \cdot 10^{-2}$?	$2,1 \cdot 10^{-5}$	$3,5 \cdot 10^{-6}$
4	?	2,5	$-1,4 \cdot 10^{-5}$	$-3,645 \cdot 10^{-6}$
5	$4 \cdot 10^{-2}$	0,8	$6 \cdot 10^{-5}$?
6	$2 \cdot 10^{-2}$	0,5	?	$-1,466 \cdot 10^{-6}$
7	$8 \cdot 10^{-3}$?	$-9 \cdot 10^{-6}$	$-1,92 \cdot 10^{-6}$
8	?	1,5	$-2 \cdot 10^{-5}$	$-4,5 \cdot 10^{-7}$
9	$3 \cdot 10^{-3}$	3,5	$2,6 \cdot 10^{-4}$?
10	$5 \cdot 10^{-2}$	2	?	$-1,2 \cdot 10^{-5}$
11	$1,5 \cdot 10^{-3}$?	$1,4 \cdot 10^{-3}$	$1,887 \cdot 10^{-4}$
12	?	0,6	$-1,7 \cdot 10^{-5}$	$-1,224 \cdot 10^{-8}$
13	$1,2 \cdot 10^{-3}$	1,5	$3,6 \cdot 10^{-3}$?
14	$3,6 \cdot 10^{-3}$	1	?	$1,678 \cdot 10^{-5}$
15	10^{-3}	?	$5,8 \cdot 10^{-3}$	$1,538 \cdot 10^{-4}$
16	?	2,5	$-8 \cdot 10^{-6}$	$-2,083 \cdot 10^{-5}$
17	$7 \cdot 10^{-2}$	0,5	$-3 \cdot 10^{-6}$?
18	$6 \cdot 10^{-2}$	1	?	$-3,4 \cdot 10^{-6}$
19	$2 \cdot 10^{-3}$?	$1,2 \cdot 10^{-3}$	$7,99 \cdot 10^{-6}$
20	?	0,2	$-1,8 \cdot 10^{-4}$	$-1,44 \cdot 10^{-8}$
21	$6 \cdot 10^{-3}$	3	$-2 \cdot 10^{-5}$?
22	$1,5 \cdot 10^{-3}$	2,5	?	$1,092 \cdot 10^{-4}$
23	$1,2 \cdot 10^{-3}$?	$5,8 \cdot 10^{-3}$	$2,31 \cdot 10^{-5}$
24	?	0,5	$-1,7 \cdot 10^{-5}$	$-7,083 \cdot 10^{-8}$
25	$8 \cdot 10^{-2}$	0,1	$2,6 \cdot 10^{-4}$?
26	$4 \cdot 10^{-3}$	0,8	?	$8,182 \cdot 10^{-6}$
27	$9 \cdot 10^{-2}$?	$-3 \cdot 10^{-6}$	$-2,43 \cdot 10^{-5}$
28	?	1,5	$2,1 \cdot 10^{-5}$	$2,362 \cdot 10^{-7}$

14.2 - masala. Kengligi h_0 bo'lgan tor vakuimli tirqichi ferromagnit o'zak ko'rinishdagi torroid, uzunlik birligiga to'g'ri kelgan n ta o'ramdan iborat. Tirqish kengligi h_0 toroidning o'rtacha diametri d ga nisbatan ancha kichik. Toroid o'ramlaridagi tok kuchi I bo'lganida tirqishdagi magnit maydoni induksiyasi B_0 ga, o'zakning nisbiy magnit singdiruvchanligi μ ga teng. Noma'lum kattalikni toping. Qo'shimcha topshiriqni bajaring.

Topshiriq raqami	d , cm	h_0 , mm	n , m ⁻¹	I , A	B_0 , T	μ	Bog'liqlikni tushuntiring
1	30	1	1 000	1,68	1,1	?	$\mu = f(I)$
2				2,41	1,2	?	
3				3,10	1,3	?	
4				3,64	1,35	?	
5	40	2	1 000	2,46	?	280	$B_0 = f(\mu)$
6					?	540	
7					?	710	
8					?	1 140	
9	50	3	500	?	0,6	238	$B_0 = f(I)$
10				?	0,3	318	
11				?	0,4	290	
12				?	0,5	265	
13	30	1,5	?	3,0	1,30	1 035	$B_0 = f(n)$
14			?		1,35	716	
15			?		1,25	1 170	
16			?		1,20	1 270	
17	50	?	850	1,5	0,56	2 000	$B_0 = f(h_0)$
18		?			0,46		
19		?			0,63		
20		?			0,51		
21	?	3	1 000	2,5	1,0	26 50	$\mu = f(d)$
22	?				1,1	1 750	
23	?				1,25	1 120	
24	?				1,4	650	
25	45	1,8	1 350	2,0	1,2	?	$\mu = f(n)$
26			860		1,0	?	
27			630		0,8	?	
28			430		0,6	?	

14.3 - masala. Ikkita turli magnetiklardan iborat tekis parallel plastinkalar birgalikda birlashtirilgan va magnit maydoniga joylashtirilgan. Bunda birinchi magnetikdagi magnit induksiyasi vektori B_1 bo'linish chegarasiga o'tkazilgan normal bilan α_1 burchak, ikkinchi magnetikdagi B_2 vektori esa α_2 burchakni tashkil etadi. Magnetiklarning magnit singdiruvchanliklari nisbati μ_1/μ_2 ga teng. Noma'lum kattaliklarni toping.

Topshiriq raqami	B_1, T	α_1, grad	B_2, T	α_2, grad	μ_1/μ_2
1	$2,5 \cdot 10^{-3}$	20	$2,506 \cdot 10^{-3}$?	?
2	?	45	$2 \cdot 10^{-3}$?	1,05
3	$5 \cdot 10^{-4}$	30	?	?	1,01
4	$4,08 \cdot 10^{-4}$?	$4 \cdot 10^{-4}$	45	?
5	$8 \cdot 10^{-3}$	60	?	?	0,97
6	?	30,124	$3 \cdot 10^{-3}$	30	?
7	$5,955 \cdot 10^{-4}$?	$6 \cdot 10^{-4}$	60	?
8	?	?	$5 \cdot 10^{-2}$	40	1,004
9	$2,0014 \cdot 10^{-4}$?	$2 \cdot 10^{-4}$	20	?
10	$7 \cdot 10^{-3}$	45	?	?	0,995
11	$5 \cdot 10^{-3}$	30	$4,988 \cdot 10^{-3}$?	?
12	?	?	$4 \cdot 10^{-4}$	60	0,992
13	?	89	$2 \cdot 10^{-4}$?	$5 \cdot 10^3$
14	$6,982 \cdot 10^{-2}$?	$5 \cdot 10^{-3}$	1	?
15	$5 \cdot 10^{-2}$?	?	2	10^3
16	$1,146 \cdot 10^{-1}$	88	$4 \cdot 10^{-3}$?	?
17	$2 \cdot 10^{-4}$	1,5	$5,24 \cdot 10^{-3}$?	?
18	$3 \cdot 10^{-3}$?	$6,876 \cdot 10^{-2}$	87,5	?
19	$4 \cdot 10^{-3}$	1	?	?	$5 \cdot 10^{-4}$
20	?	?	$8 \cdot 10^{-2}$	88	$2 \cdot 10^{-3}$
21	$6 \cdot 10^{-2}$?	?	1,366	800
22	?	86	$2 \cdot 10^{-3}$?	1 200
23	$2,864 \cdot 10^{-2}$?	10^{-3}	1,49	?
24	10^{-3}	87	$5,233 \cdot 10^{-5}$?	?
25	$8 \cdot 10^{-3}$?	$1,4 \cdot 10^{-4}$	4,368	?
26	$5 \cdot 10^{-3}$	88,5	?	?	680
27	?	?	10^{-4}	0,8	900
28	$2 \cdot 10^{-2}$	87,5	$8,727 \cdot 10^{-4}$?	?

14.4 - masala. Induksiyasi B bo'lgan birjinsli magnit maydonida uzunligi l bo'lgan tayoqcha ω o'zgarimas burchak tezlik bilan aylanayapdi. Aylanish o'qi tayoqcha uchiga mos keladi va magnit maydoni kuch chiziqlariga nisbatan α burchakni hosil qiladi. Bunda tayoqcha uchlarida ε ga teng EYK induksiyasi vujudga keladi. Noma'lum kattalikni toping.

Topshiriq raqami	B, T	l, cm	$\omega, rad/s$	$\alpha, grad$	ε, V
1	?	12	20	30	$2,5 \cdot 10^{-3}$
2	0,05	?	32	60	$3,6 \cdot 10^{-2}$
3	0,2	25	?	45	$1,77 \cdot 10^{-1}$
4	0,34	42	16	?	$2,4 \cdot 10^{-1}$
5	0,08	30	45	60	?
6	?	18	22	30	$3,4 \cdot 10^{-2}$
7	0,4	?	50	45	$2,83 \cdot 10^{-1}$
8	0,02	10	?	60	$1,5 \cdot 10^{-3}$
9	0,15	40	35	?	$2,97 \cdot 10^{-1}$
10	0,5	24	60	45	?
11	?	36	40	30	$8,98 \cdot 10^{-1}$
12	0,04	?	28	60	$1,75 \cdot 10^{-2}$
13	0,26	16	?	30	$1,44 \cdot 10^{-1}$
14	0,6	28	62	?	$7,29 \cdot 10^{-1}$
15	0,1	50	24	60	?
16	?	35	15	45	$1,3 \cdot 10^{-1}$
17	0,03	?	25	60	$1,875 \cdot 10^{-3}$
18	0,45	8	?	30	$7,48 \cdot 10^{-2}$
19	0,24	32	50	?	$4,34 \cdot 10^{-1}$
20	0,35	22	36	45	?
21	?	40	18	30	$6,235 \cdot 10^{-1}$
22	0,07	?	65	60	$2,56 \cdot 10^{-2}$
23	0,12	14	?	45	$4,16 \cdot 10^{-2}$
24	0,32	27	43	?	$4,34 \cdot 10^{-1}$
25	0,48	33	52	60	?
26	?	28	30	45	$2,5 \cdot 10^{-1}$
27	0,56	?	55	60	$6,93 \cdot 10^{-1}$
28	0,06	50	?	30	$1,3 \cdot 10^{-1}$

14.5 - masala. Induksiyasi B bo'lgan bir jinsli magnit maydonida yuzasi S bo'lgan ramka ω burchak tezlik bilan bir tekis aylanayapdi. Aylanish o'qi ramka tekisligida bo'lib, magnit maydoni kuch chiziqlari bilan α burchakni hosil qiladi. Aylanayotgan ramkada E_{max} induksiyning maksimal EYK toping. E_{max} ning o'zgaruvchi parametrga nisbatan qanday bog'liqligini kuzating

Topshiriq raqami	B, T	S, cm^2	$\omega, rad/s$	$\alpha, grad$	Bog'liqlikni tushuntiring
1	0,05	35	60	30	$\epsilon_{max} = f(\alpha)$
2				60	
3				90	
4				120	
5	0,3	4	10	45	$\epsilon_{max} = f(\omega)$
6			20		
7			30		
8			40		
9	0,5	10	80	30	$\epsilon_{max} = f(S)$
10		20			
11		30			
12		40			
13	0,05	25	6	150	$\epsilon_{max} = f(B)$
14	0,10				
15	0,15				
16	0,20				
17	0,4	16	120	90	$\epsilon_{max} = f(\alpha)$
18				120	
19				135	
20				150	
21	0,75	8	50	60	$\epsilon_{max} = f(\omega)$
22			100		
23			150		
24			200		
25	0,2	12	15	120	$\epsilon_{max} = f(B)$
26	0,4				
27	0,6				
28	0,8				

14.6 - masala. Induksiyasi B bo'lgan bir jinsli magnit maydonida bir-biriga zich holda o'ralgan N o'ramdan iborat ramka ν chastota bilan aylanayapdi. Ramka yuzasi S ga teng va aylanish o'qi induksiya chiziqlariga nisbatan perpendikulyardir. Induksion EYuKning t vaqtdagi induksiya EYK ning oniy qiymati E_i ga teng. Noma'lum kattalikni toping.

Topshiriq raqami	B, T	ν, Hz	N	S, cm^2	ϵ_b, V	t, s
1	?	27,77	900	40	108,8	0,15
2	0,3	20,5	1 000	12	?	0,25
3	0,08	5	?	30	4,52	10,05
4	0,4	36,44	750	?	68,68	1,1
5	0,2	5	800	26	?	0,05
6	0,5	37	900	22	230	?
7	?	25	1 100	15	54,97	4,005
8	0,75	11	?	30	130,63	2,02
9	0,6	16,75	?	18	64,3	1,5
10	0,1	42,5	1 200	?	34	0,05
11	0,05	22,11	860	24	?	1,5
12	0,4	19,3	480	32	37,25	?
13	?	35	800	16	196,94	0,55
14	0,32	25	920	20	?	1,005
15	0,28	6,25	?	40	43,98	6,04
16	0,12	9,05	600	?	12,28	5
17	0,46	5,5	500	48	?	2,75
18	0,6	16,5	300	14	22,62	?
19	?	25	720	28	126,67	3,01
20	0,09	6	400	?	3,838	5,042
21	0,42	12,11	?	45	62,27	1,5
22	0,55	18,1	950	?	142,61	2,5
23	0,30	28,2	800	16	?	1,25
24	0,16	4,021	1 200	36	8,73	?
25	?	12,5	750	18	37,47	2,01
26	0,64	10	500	34	?	2,025
27	0,5	26,1	?	25	164	2,5
28	0,4	15,25	850	?	57,58	0,5

14.7 - masala. D diametrlil silindrik karkasga d diametrlil simdan bir biriga zich o'ralgan N o'ramlardan iborat bir qatlamli solenoid L induktivlikka ega. O'ramlardan I tok kuchi o'tganda o'zak moddasining magnit singdiruvchanligi μ ga, magnit maydoni energiyzsining hajmiy zichligi w ga teng bo'ladi. Noma'lum kattalikni toping.

Topshiriq raqami	L, Gn	N	d, mm	D, cm	I, A	μ	$w, \text{J/m}^3$
1	?	700	?	3,6	0,1	2 300	40.12
2	11,21	?	0,4	5,2	?	3 500	2 198
3	?	2 500	0,85	6,5	0,7	600	?
4	8,796	?	0,07	4,4	0,45	?	22 008
5	?	1 000	0,15	6,0	?	3 300	58 948
6	5,613	?	?	2,5	0,75	4 200	16 485
7	1,244	500	?	?	0,3	1 000	115.35
8	?	750	0,5	5,0	0,09	?	24.417
9	0,8184	?	0,8	3,5	0,4	950	?
10	5,764	460	?	4,6	?	3 000	2 713
11	3,435	550	0,45	?	0,2	?	272.54
12	1,988	300	0,1	2,2	0,65	?	?
13	5,83	600	0,2	?	?	2 700	5 193
14	?	850	?	4,2	0,15	1 500	2 120
15	0,6	?	0,65	3,0	0,5	800	?
16	4,828	320	?	5,4	0,9	?	6 666.9
17	?	950	0,3	3,8	0,07	2 000	?
18	3,12	360	0,09	4,5	?	?	1 703.9
19	0,994	?	0,55	2,4	0,85	?	3 450
20	19,6	800	?	5,6	0,12	950	?
21	?	900	0,75	4,0	?	700	25.32
22	19,319	?	?	6,6	0,80	1 100	11 053
23	2,504	450	0,25	?	0,55	?	5 465
24	7,944	1 100	0,6	?	0,06	1 400	?
25	1,19	?	0,35	3,2	?	1 650	1 713
26	3,723	830	?	?	0,25	2 500	126.7
27	?	400	0,7	5,3	0,60	?	425.86
28	6,776	650	0,08	2,6	0,35	?	?

14.8 - masala. G'altak R elektr qarshiligiga va L induktivlikka ega. G'altakdagi tok kuchi I_0 ga teng. Tok o'chirilganidan t vaqt o'tgach, g'altakdagi tok kuchi i ga teng bo'lib qoladi. Nomalum kattalikni toping. Qo'shimcha topshiriqni bajaring.

Topshiriq raqami	R, Om	L, Gn	I_0, A	i, A	t, s	Bog'liqlikni taxlil qiling
1	?	0,133	i_0	$0,5 i_0$	$4 \cdot 10^{-3}$	$i = f(t)$ $i_0, R, L - \text{const}$
2	30	?	i_0	$0,2 i_0$	$1,6 \cdot 10^{-2}$	
3	12	0,036	?	0,1	$5,37 \cdot 10^{-3}$	
4	25	0,75	0,5	?	$2,08 \cdot 10^{-2}$	
5	11,1	0,032	i_0	$0,25 i_0$?	$i = f(R)$ $i_0, L, t - \text{const}$
6	?	0,04	i_0	$0,1 i_0$	$4,6 \cdot 10^{-3}$	
7	120	?	i_0	$0,4 i_0$	$9,16 \cdot 10^{-4}$	
8	230	0,115	?	0,2	$8,05 \cdot 10^{-4}$	$i = f(L)$ $i_0, R, t - \text{const}$
9	180	0,09	0,8	?	$6,93 \cdot 10^{-4}$	
10	138,6	0,1	i_0	$0,5 i_0$?	
11	?	0,16	i_0	$0,25 i_0$	$2,77 \cdot 10^{-3}$	
12	35	?	i_0	$0,4 i_0$	$1,83 \cdot 10^{-2}$	$i/I_0 = f(t)$
13	90	0,27	?	0,125	$4,16 \cdot 10^{-3}$	
14	146	0,073	0,6	?	$8,95 \cdot 10^{-4}$	
15	28	0,252	i_0	$0,2 i_0$?	
16	?	0,24	i_0	$0,1 i_0$	$6,9 \cdot 10^{-3}$	$i/I_0 = f(R)$
17	180	?	i_0	$0,25 i_0$	$9,7 \cdot 10^{-4}$	
18	110,9	0,84	?	0,05	$1,05 \cdot 10^{-2}$	
19	72	0,144	0,1	?	$3,22 \cdot 10^{-3}$	
20	45,8	0,15	i_0	$0,4 i_0$?	$i/I_0 = f(L)$
21	?	0,45	i_0	$0,5 i_0$	$2,08 \cdot 10^{-3}$	
22	96,6	?	i_0	$0,2 i_0$	$8 \cdot 10^{-4}$	
23	85	0,34	?	0,14	$6,44 \cdot 10^{-3}$	
24	35,8	0,26	0,12	?	$1,3 \cdot 10^{-2}$	$i/I_0 = f(t)$
25	104	0,2	i_0	$0,125 i_0$?	
26	?	0,024	i_0	$0,1 i_0$	$9,2 \cdot 10^{-4}$	
27	183,2	?	i_0	$0,4 i_0$	$1,1 \cdot 10^{-3}$	
28	62	0,31	?	0,15	$1,04 \cdot 10^{-2}$	

14.9 - masala. Plastinalari orasidagi masofa t vaqt mobaynida d_0 dan d gacha v tezlik bilan o'zgarib turuvchi yassi kondensatordagi j_{sil} siljish toki zichligini toping: a) kondensator plastinalaridagi zaryadlar o'zgarmaydi; b) bu vaqt mobaynida kondensator plastinalari orasidagi potentsiallar farqi $\Delta\phi$ o'zgarmaydi. Plastinalar orasidagi masofa butun jarayon vaqtida plastinkalar chiziqli o'lchamlariga nisbatan juda kichkligacha qoladi. Kondensator qoplamalari orasidagi muhitning dielektrik sindiruchanligi ϵ ga teng.

Topshiriq raqami	$\Delta\phi, V$	d_0, cm	ϵ	$v, cm/s$	t, s	Bog'liqlikni tushuntiring
1	150	0,5	1,8	0,5	0,2	$j_{sil} = f(v)$
2				0,1		
3				0,3		
4				0,8		
5	220	1,0	4,0	1,0	0,5	$j_{sil} = f(t)$
6					1,0	
7					1,5	
8					2,0	
9	100	0,8	25,2	2,0	1,5	$j_{sil} = f(\Delta\phi)$
10	200					
11	300					
12	400					
13	500	2,0	1,4	3,5	0,75	$j_{sil} = f(d_0)$
14		4,0				
15		6,0				
16		8,0				
17	250	1,5	2,2	5,0	1,0	$j_{sil} = f(\epsilon)$
18			4,5			
19			20			
20			81			
21	350	3,0	2,0	2,0	0,5	$j_{sil} = f(v)$
22				4,0		
23				6,0		
24				8,0		
25	180	2,5	1,5	3,0	0,01	$j_{sil} = f(t)$
26					0,1	
27					1,0	
28					10	

14.10 - masala. Doiraviy parallel plastinkalar orasi, bir jinsli yomon o'tkazuvchi, elektr o'tkazuvchanligi σ , dielektrik singdiruvchanligi ε (mangit sindiruvchanligi $\mu = 1$) bo'lgan muhit bilan to'ldirilgan. Plastinalar orasidagi masofa d , plastinalar radiusi R dan ancha kichik. Plastinalarga $U = U_m \cos \omega t$ qonuniyat bo'yicha o'zgaruvchi kuchlanish qo'yilgan. $U = 0$ bo'lganda hisob boshlanish vaqtini belgilab, t vaqt momentida plastina o'qidan R ga nisbatan ancha kichik bo'lgan r oraliqdagi magnit maydoni kuchlanganligi H ni toping.

Topshiriq raqami	$\sigma, (\text{Om}\cdot\text{m})^{-1}$	ε	d, cm	U_m, V	$\omega, \text{rad/s}$	r, cm	t, s	Bog'liqlikni fushuntirin g
1	10^{-8}	6,0	2	300	500	1,0	10^{-2}	$H = f(\sigma)$
2	$5 \cdot 10^{-8}$							
3	10^{-7}							
4	$3 \cdot 10^{-8}$							
5	$4 \cdot 10^{-8}$	2,0	1	250	1 000	0,5	$2 \cdot 10^{-3}$	$H = f(\varepsilon)$
6		2,6						
7		6,0						
8		81						
9	$6 \cdot 10^{-8}$	2,6	1	150	800	0,8	$6 \cdot 10^{-3}$	$H = f(d)$
10			2					
11			3					
12			4					
13	$8 \cdot 10^{-8}$	4,2	0,5	200	750	0,1	$5 \cdot 10^{-4}$	$H = f(U_m)$
14				400				
15				600				
16				800				
17	$2 \cdot 10^{-7}$	8,2	3,5	200	500	0,6	$7 \cdot 10^{-3}$	$H = f(\omega)$
18					1 000			
19					2 000			
20					3 000			
21	$7 \cdot 10^{-8}$	5,4	3	500	400	0,5	$8 \cdot 10^{-4}$	$H = f(r)$
22						1,0		
23						1,5		
24						2,0		
25	$2 \cdot 10^{-8}$	4,8	1,5	350	600	1,0	10^{-3}	$H = f(t)$
26							$1,5 \cdot 10^{-3}$	
27							$2,5 \cdot 10^{-3}$	
28							$5 \cdot 10^{-3}$	

TEBRANISHLAR VA TO‘LQINLAR

15 – mavzu. Garmonik mexanik va elektromagnit tebranishlar

Asosiy qonunlar va ifodalar

Erkin so‘nmaydigan mexanik garmonik tebranishlarning differensial tenglamasi:

$$\ddot{x} + \omega_0^2 x = 0, \quad (15.1)$$

Uning yechimi:

$$x = A \cos(\omega_0 t + \varphi_0) \quad \text{yoki} \quad x = A \sin(\omega_0 t + \varphi_1), \quad (15.2)$$

bu erda A – tebranish amplitudasi; ω_0 – siklik chastota; $\omega_0 t + \varphi_0$ (yoki $\omega_0 t + \varphi_1$) – tebranish fazasi, φ_0 (yoki φ_1) – tebranishning boshlang‘ich fazasi.

Tebranuvchi nuqtaning maksimal tezligi

$$v_{\max} = A\omega_0, \quad (15.3)$$

Tebranuvchi nuqtaning maksimal tezlanishi

$$a_{\max} = A\omega_0^2, \quad (15.4)$$

Guk qonuni (qaytaruvchi kuch):

$$F_x = -kx, \quad (15.5)$$

Garmonik tebranayotgan moddiy nuqtaning potensial energiyasi

$$W_p = \frac{kx^2}{2} = \frac{kA^2}{2} \cos^2(\omega_0 t + \varphi), \quad (15.6)$$

Garmonik tebranayotgan moddiy nuqtaning kinetik energiyasi

$$W_k = \frac{mv^2}{2} = \frac{kA^2}{2} \sin^2(\omega_0 t + \varphi), \quad (15.7)$$

Garmonik tebranayotgan moddiy nuqtaning to'la energiyasi

$$W = \frac{kA^2}{2}, \quad (15.8)$$

Siklik chastota va tebranish davri orasidagi bog'lanish:

$$T = \frac{2\pi}{\omega_0}, \quad (15.9)$$

Prujinali mayatnikning tebranish davri

$$T = 2\pi\sqrt{\frac{m}{k}}, \quad (15.10)$$

bu erda m – mayatnik massasi; k – prujina bikirligi
Matematik mayatnikning tebranish davri

$$T = 2\pi\sqrt{\frac{l}{g}}, \quad (15.11)$$

bu erda l – matematik mayatnik ipining uzunligi; g – erkin tushish tezlanishi.

Fizik mayatnikning tebranish davri

$$T = 2\pi\sqrt{\frac{J}{mgL}}, \quad (15.12)$$

bu erda J – fizik mayatnikning inersiya momenti; L – osilish nuqtasidan massa markazigacha bo'lgan masofa.

Tebranish konturi kodensator qoplamalaridagi zaryadning garmonik tebranishining differensial tenglamasi:

$$\ddot{q} + \omega_0^2 q = 0, \quad (15.13)$$

Uning yechimi:

$$q = q_{\max} \cos(\omega_0 t + \varphi_0), \quad (15.14)$$

Ideal tebranish konturidagi garmonik elektromagnit tebranishlarning davri (Tomson ifodasi)

$$T = 2\pi\sqrt{LC} , \quad (15.15)$$

bu erda L – kontur induktivligi; C – uning sig'imi.

Konturdagi elektromagnit tebranishlarning ω_0 siklik chastotasi bilan konturning L induktivligi va C kontur sizimi orasidagi bog'lanish:

$$\omega_0 = \frac{1}{\sqrt{LC}} , \quad (15.16)$$

Nazorat savollari va topshiriqlar

15.1. Qanday tebranishlar garmonik deyiladi? Garmonik tebranishlarning differensial tenglamalari va uning yechimini yozing. Qanday kattaliklar garmonik qonun bo'yicha o'zgaradi: a) mexanik tebranishlarda; b) elektromagnit tebranishlarda? Bu kattaliklarning qaysi parametrga bog'liqligi garmonik qonuniyat bo'yicha ifodalanadi?

15.2. Tebranish darvi, uning amplitudasi, fazasi deb nimaga aytiladi? Tebranishning boshlang'ich fazasi nima? Tebranuvchi nuqta qachon maksimal tezlikka erishadi? U nimaga teng? Qachon uning tezlanishi maksimal qiymatga erishadi?

15.3. Qanday kuchlar elastik va kvazielastik deyiladi? Guk qonunini yozing va uning fizik ma'nosini tushuntiring. Prujinali mayatnik nimadan iborat, unda tebranayotgan moddiy nuqtaga qanday kuchlar ta'sir qiladi? Prujinali mayatnik tebranish davri nimaga teng?

15.4. Fizik mayatnik deb nimaga aytiladi? Fizik mayatnikning keltirilgan uzunligi deb nimaga aytiladi? Fizik mayatnikning tebranish davrini qaysi ifoda yordamida hisoblab topish mumkin? Ingichka halqa, yupqa disk, shar, sterjenlarning og'irlik markazidan o'tuvchi o'qiga nisbatan inersiya momenti nimaga teng? Og'irlik markazidan o'tmaydigan o'qqa nisbatan inersiya momentini qanday aniqlash mumkin?

15.5. Matematik mayatnik deb nimaga aytiladi? Matematik mayatnikning tebranish davri nimaga teng?

15.6. Nuqtaning muvozanat nuqtasiga nisbatan siljiganidagi tebranishlarining kinetik va potensial energiyalari o'zgarishlar grafiklarini chizing va tushuntiring. Garmonik tebranayotgan moddiy nuqtaning to'liq energiyasi qanday aniqlanadi?

15.7. Tebranayotgan moddiy nuqtaning kinetik energiyasi vaqt o'tishi bilan qanday qonuniyat asosida o'zgaradi? U qachon maksimal qiymatga erishadi? Garmonik mexanik tebranishlarda moddiy nuqta potensial energiyasining o'zgarishi qaysi qonuniyatga bo'ysunadi? Vaqtning qaysi momentlarida potensial energiya maksimal qiymatga erishadi?

15.8. Elektr tebranish konturi deb nimaga aytiladi? Ideal tebranish konturi real tebranish konturidan nimasi bilan farq qiladi? Konturdagi elektromagnit tebranishlar chastotasi konturning induktivligi va sig'imi bilan qanday bog'langan?

15.9. Garmonik elektromagnit tebranishlar tenglamasi va kondensator qoplamalaridagi zaryadning vaqt bo'yicha o'zgarishi uchun uning echimini yozing. Bu holda induktivlik g'altigidan oqayotgan tok kuchi o'zgarishi qanday qonuniyatga bo'ysunadi? Kondensator qoplamalaridagi potensiallar farqi vaqt bo'yicha qanday o'zgaradi?

15.10. Garmonik tebranishlar chastotasi va davri o'rtasida qanday bog'liqlik mavjud? Tebranish konturidagi garmonik elektromagnit tebranishlar davrini aniqlash bo'yicha Tomson ifodasini yozing.

15.1 - masala. Tebranish amplitudasi A bo'lgan, t vaqt davomida n marta tebranayotgan va boshlang'ich tebranish fazasi φ_0 ga teng bo'lgan garmonik tebranma harakat tenglamasini yozing. a) $t = 0$ vaqtidagi nuqtaning siljishini; b) nuqtaning maksimal tezligini; c) uning maksimal tezlanishini toping. Bu harakat grafigini chizing.

Topshiriq raqami	A, cm	t, s	n	φ_0
1	0,5	60	150	$\pi/4$
2	3,2	96	120	$\pi/2$
3	2,0	16	80	$-\pi/4$
4	1,4	25,6	160	$-\pi/2$
5	1,5	51,2	160	$\pi/4$
6	0,3	8,0	80	$\pi/2$
7	2,2	48	120	$-\pi/4$
8	2,4	12	150	$-\pi/2$
9	1,2	24	120	$\pi/2$
10	3,3	6,0	150	π
11	0,4	32	80	$-\pi/2$
12	2,5	19,2	120	$-\pi$
13	0,2	2,4	120	$\pi/4$
14	1,3	64	80	$-\pi/4$
15	2,4	24	150	$\pi/2$
16	1,5	9,6	120	$-\pi/2$
17	1,2	64	160	$-\pi/2$
18	3,0	4,8	120	$\pi/2$
19	0,4	4,8	60	$-\pi/4$
20	5,0	32	100	$\pi/4$
21	2,0	12,8	80	π
22	3,5	12,0	120	$-\pi$
23	4,2	38,4	120	$\pi/2$
24	0,5	30	150	$-\pi/2$
25	2,5	15	150	$-\pi/4$
26	0,6	6,4	80	$\pi/4$
27	4,0	2,4	120	$-\pi/2$
28	5,2	48	240	$\pi/2$

15.2 – masala. Moddiy nuqtaning garmonik tebranishlari boshlang'ich fazasi nolga teng. Nuqtaning muvozanat nuqtasiga nisbatan siljishi x_1 ga teng bo'lganida uning tezligi v_1 ga teng, siljishi x_2 ga teng bo'lganida esa tezligi v_2 ga teng. Tebranish davri T ga teng. Noma'lum kattalikni toping. Tebranish amplitudasini (0.01 cm aniqlikda) aniqlang.

Topshiriq raqami	x_1, cm	x_2, cm	$v_1, \text{cm/s}$	$v_2, \text{cm/s}$	T, s
1	?	1,5	4,2	2,5	2,08
2	3,0	?	8,0	6,0	3,14
3	1,5	2,0	?	1,0	2,94
4	2,4	2,8	3,0	?	4,05
5	1,2	1,5	2,0	1,6	?
6	?	4,0	3,5	0,4	4,78
7	0,1	?	2,5	2,0	2,052
8	4,5	6,0	?	0,8	6,36
9	0,8	1,0	3,5	?	2,09
10	2,0	2,5	3,0	2,0	?
11	?	6,0	4,5	1,0	4,75
12	4,0	?	14,0	2,8	2,05
13	1,4	2,0	?	1,0	3,9
14	0,2	0,8	5,0	?	1,062
15	3,5	4,0	2,6	1,4	?
16	?	1,0	4,0	3,5	2,81
17	1,0	?	2,5	1,0	4,75
18	0,4	0,6	?	1,6	2,34
19	2,2	2,8	2,0	?	6,28
20	5,0	6,0	12,0	3,2	?
21	?	2,5	4,5	1,2	2,17
22	0,5	?	5,2	2,5	0,86
23	6,0	6,5	?	2,0	2,78
24	1,6	2,0	4,0	?	2,85
25	2,5	3,0	3,6	1,2	?
26	?	0,5	5,0	3,0	0,72
27	5,5	?	10,0	1,5	2,75
28	0,6	1,2	?	1,4	2,46

15.3 – masala. Prujina F kuch ta'siri ostida x *cm* masofaga cho'ziladi. Agar bu prujinaga m massali yuk ossak, yukning vertikal tebranishlar davri T ga teng bo'ladi. Noma'lum kattalikni toping. Prujina massasini e'tiborga olmang.

Topshiriq raqami	F, N	x, cm	m, kg	T, s
1	?	0,5	0,02	0,4
2	0,925	?	0,5	0,8
3	1,58	2,5	?	0,5
4	10,36	7,0	0,15	?
5	?	5,0	0,25	1,2
6	0,266	?	0,9	4,0
7	14,8	6,0	?	0,08
8	0,162	1,5	0,7	?
9	?	4,0	0,2	0,04
10	61,69	?	0,45	0,12
11	5,55	9,0	?	0,8
12	19,74	8,0	0,04	?
13	?	3,5	0,75	0,20
14	21,93	?	0,05	0,06
15	0,395	2,0	?	1,26
16	8,88	6,0	0,6	?
17	?	1,0	0,4	1,20
18	59,22	?	0,01	0,02
19	13,88	4,5	?	0,16
20	3,7	3,0	0,32	?
21	?	5,0	0,08	0,04
22	0,329	?	0,3	0,60
23	20,05	6,5	?	0,08
24	0,592	4,0	0,24	?
25	?	2,0	0,06	0,1
26	0,247	?	0,8	3,2
27	8,636	7,0	?	0,4
28	22,8	5,5	0,42	?

15.4 – masala. Berilgan shaklli va o'lchamlikdagi jism devorga qoqilgan mixga osilib, devorga parallel tekislikda kichik tebranishlarni amalga oshirmoqda. Berilgan jism uchun tebranish davrini aniqlang. Osilish nuqtasidagi halqa o'lchamlarini e'tiborga olmang.

Topshiriq raqami	Fizik jism	Jism o'lchamlari		Ipning uzunligi L, cm
		Radiusi r, cm	Uzunligi l, cm	
1	Halqa	19,6	—	—
2		4,9		
3		122,5		
4		44,1		
5	Disk	5,29	—	—
6		26,13		
7		6,53		
8		4,18		
9	Ipga osilgan disk	6,0	—	10
10		5,0		5
11		10,0		5
12		8,0		12
13	Shar	5,67	—	—
14		4,48		
15		2,52		
16		7,0		
17	Ipga osilgan shar	2,0	—	3
18		5,0		5
19		12,0		8
20		12,0		18
21	Sterjen	—	20	—
22			50	
23			80	
24			100	
25	Ipga osilgan sterjen	—	20	10
26			50	20
27			80	50
28			100	50

15.5 - masala. R radiusli bir jinsli shar L uzunlikdagi ipga osilgan. Bu fizik mayatnikni matematik, deb hisoblash mumkin, lekin bunday qarashda tebranish davrini aniqlashdagi xatolik $\varepsilon_T = |T_2 - T_1| / T_1$ ga teng. Bu erda T_1 – matematik mayatnikning tebranish davri; T_2 – fizik mayatnikning tebranish davri. Noma'lum kattalikni aniqlang.

Topshiriq raqami	R, cm	L, m	$\varepsilon_T, \%$
1	5,0	?	1,0
2		?	2,0
3		?	3,0
4		?	5,0
5	?	2,0	1,0
6	?		2,0
7	?		3,0
8	?		5,0
9	1,0	?	1,0
10	2,0	?	
11	3,0	?	
12	4,0	?	
13	?	1,0	1,0
14	?	2,0	
15	?	3,0	
16	?	4,0	
17	1,0	0,0346	?
18	5,0	0,078	?
19	10,0	0,215	?
20	20,0	0,313	?
21	10,0	?	1,0
22		?	2,0
23		?	5,0
24		?	10,0
25	?	0,5	1,0
26	?		2,0
27	?		5,0
28	?		10,0

15.6 - masala. Massasi e'tiborga olinmaydigan darajada kichik bo'lgan moddiy nuqta prujinaga osilgan bo'lib, A amplituda bilan garmonik tebranma harakat qilmoqda. Bunda moddiy nuqtaga ta'sir etuvchi maksimal kuch F_{max} ga, tebranma harakat qilayotgan nuqtaning to'liq energiyasi esa W ga teng. Prujina bikrligi – k . Noma'lum kattaliklarni toping.

Topshiriq raqami	A , cm	F_{max} , N	k , N/m	W , J
1	?	?	100	0,02
2	6	?	?	0,24
3	1	4	?	?
4	?	7	280	?
5	?	?	300	0,24
6	3	?	?	0,27
7	5	20	?	?
8	?	1,5	100	?
9	?	?	1 400	0,07
10	0,8	?	?	0,012
11	1,5	8	?	?
12	?	5	200	?
13	?	?	200	$5,625 \cdot 10^{-3}$
14	2,5	?	?	$7,5 \cdot 10^{-2}$
15	0,9	2,5	?	?
16	?	12	300	?
17	?	?	100	0,125
18	4	?	?	0,18
19	6	30	?	?
20	?	1,6	320	?
21	?	?	233,3	$1,05 \cdot 10^{-3}$
22	2	?	?	0,16
23	3	6	?	?
24	?	6,4	800	?
25	?	?	416,7	$7,5 \cdot 10^{-3}$
26	0,7	?	?	$1,4 \cdot 10^{-2}$
27	0,5	0,9	?	?
28	?	18	600	?

15.7 - masala. Massasi m bo'lgan moddiy nuqta $x = f(t)$ qonun bo'yicha garmonik tebranma harakat qilmoqda. Nuqtaning potentsial, kinetik va to'liq energiyalarini vaqtga bog'liqlik qonunlarini yozing va ularning t_1 hamda t_2 vaqt onlaridagi qiymatlarini hisoblang. Shu bilan birga bu energiyalarning har birini bir davr ichidagi vaqtga bog'liqlik grafiklarini chizing.

Topshiriq raqami	m, kg	$x \equiv f(t), \text{cm}$	t_1, s	t_2, s
1	0,25	$x = 4\cos 1.25\pi t$	T	$T/8$
2			$T/4$	$3T/8$
3			$T/2$	$5T/8$
Topshiriq raqami	Yadro reaksiyasining qisqacha yozilishi
1	${}^7\text{N}^{14} (? , p) {}^8\text{O}^{17}$
2	${}^1\text{H}^2 (d, n) ?$
3	${}^4\text{Be}^9 (d, 2\alpha) ?$
4	${}^3\text{Li}^6 (? , p) {}^3\text{Li}^7$
5	${}^4\text{Be}^9 (\alpha, ?) {}^6\text{C}^{12}$
6	${}^1\text{H}^2 (d, ?) {}^1\text{H}^3$
7	${}^{17}\text{Cl}^{35} (n, ?) {}^{16}\text{S}^{35}$
8	$? (p, \alpha) {}^2\text{He}^4$
9	$? (\alpha, n) {}^{15}\text{P}^{30}$
10	${}^1\text{H}^3 (d, n) ?$
11	${}^{26}\text{Fe}^{56} (d, ?) {}^{25}\text{Mn}^{54}$
12	${}^3\text{Li}^7 (? , n) 2 {}^2\text{He}^4$
13	${}^5\text{B}^{10} (\alpha, n) ?$
14	${}^1\text{H}^3 (\text{H}^3, 2n) ?$
15	${}^{42}\text{Mo}^{95} (? , n) {}^{43}\text{Tc}^{96}$
16	$? (d, \alpha) {}^2\text{He}^4$
17	${}^{12}\text{Mg}^{24} (d, \alpha) ?$
18	${}^2\text{He}^3 (? , p) {}^2\text{He}^4$
19	$? (p, n) {}^{50}\text{Sn}^{113}$
20	${}^{29}\text{Cu}^{65} (d, 2n) ?$
21	${}^3\text{Li}^7 (p, ?) {}^2\text{He}^4$
22	${}^2\text{He}^3 (? , 2p) {}^2\text{He}^4$
23	${}^{26}\text{Fe}^{54} (n, p) ?$
24	${}^{16}\text{S}^{32} (? , p) {}^{15}\text{P}^{32}$
25	${}^3\text{Li}^6 (p, ?) {}^2\text{He}^3$
26	${}^3\text{Li}^6 (n, \alpha) ?$
27	$? (p, \alpha) {}^{11}\text{Na}^{22}$
28	${}^7\text{N}^{14} (n, p) ?$

24.10 - masala. Yog'och (1-4 topshiriqlar) yoki yog'och to'qimasidan (15-28 topshiriqlar) bo'lgan arxeologik topilmalar yoshini aniqlashda namunalar aktivligi C^{14} izotop bo'yicha zamonaviy natural to'qimalar aktivligining $k\%$ ni tashkil etadi. C^{14} izotopning yarim emirilish davri 5730 yilga teng.

Qadimgi yog'ochdan namuna				Qadimgi matodan namuna			
Topshiriq raqami	$\beta, \%$	Topshiriq raqami	$\beta, \%$	Topshiriq raqami	$\beta, \%$	Topshiriq raqami	$\beta, \%$
1	80	8	1	15	98	22	84
2	60	9	0,8	16	96	23	82
3	40	10	0,6	17	94	24	80
4	20	11	0,4	18	92	25	78
5	10	12	0,52	19	90	26	76
6	5	13	0,05	20	88	27	74
7	2	14	0,01	21	86	28	72

Masalalar yechishga ko'rsatmalar

1.1. A jism h_A balandlikka tekis sekunlanuvchan harakat bilan ko'tarilmoqda, B jism tekis tezlanuvchan harakat bilan yiqilayotganda h_B masofani o'tadi. t_1 vaqt momentida jismlar orasidagi masofa h ga teng. Uchta balandliklar yig'indisi H ga teng.

1.2. Koordinatalardan vaqt bo'yicha xosila olib ularni tenglashtirib va hosil bo'lgan tenglamadan vaqtni topish kerak. Nuqtalarning tezlanishini aniqlash uchun koordinatalardan vaqt bo'yicha ikkinchi xosilani olish kerak.

1.3. Berilgan radius-vektorning o'zgarish qonunidan $x = f(t)$ va $y = f(t)$ ifodalang. Birgalikda bu tenglamalarni echib, t ni qisqartiring va $y = f(t)$ ko'rinishdagi traektoriya tenglamasiga ege bo'ling.

1.4. Berilgan radius-vektorlarininh o'zgarish qonunlaridan tezlanish vektorlari yoki X o'qi bo'ylab, yoki Y o'qi bo'ylab yo'nalganligi kelib chiqadi. Har bir topshiriq tezlik vektorlari orasidagi burchakni va koordinata o'qlaridan birini aniqlashga yo'naltirilgan.

1.5. Agar tezlanish o'zgarishi qonuni berilgan bo'lsa, u holda tezlik 0 dan t_1 gacha vaqt intervalida tezlanishdan olingan integralga teng, bosib o'tilgan yo'l esa o'sha intervalda (1.5) tezlikdan olingan integralga teng bo'ladi.

1.6. (1.10) ifodadan foydalaning.

1.7. Koptok harakatini gorizonta va vertical bo'yicha bir-biriga bog'liq bo'lmagan holda ko'rib chiqing. Havo qarshiligi hisobga olinmaganligi uchun, koptok harakati gorizonta bo'yicha tekis harakat, vertical bo'yicha tekis tezlanuvchan bo'ladi. Ikkita tashkil etuvchilari uchun tezlik va bosib o'tilgan masofa tenglamalari yozilsin va birgalikda echilsin.

1.8. Tangensial tezlanish o'zgarmasligi hisobga olinsin, shuning uchun vaqt bo'yicha tezlikdan olingan hosila tezlikni vaqtga nisbatiga teng deb hisoblansin.

1.9. To'la tezlanish moduli uchun ikkita ifodadan foydalanish tavsiya etiladi: (1.4) koordinatalar o'qiga proeksiyalari orqali va (1.9) tangensial va normal tashkil etuvchilari orqali.

1.10. 1.7 masalaning echimi uchun ko'rsatmadan foydalanish tavsiya etiladi.

2.1. Nyutonning ikkinchi qonunidan (2.1) foydalanish tavsiya etiladi.

2.2. Tezlikdan vaqt bo'yicha (1.3) hosila olish kerak. massaga ko'paytirish, olingan ifodalarni tenglashtirish va bu tenglamalardan vaqtni toppish tavsiya etiladi.

2.3. Aerostat pastga tushayotganda, havoning qarshilik kuchi ko'tarish kuchi tarafga yo'nalgan, ko'tarilayotganda esa qarama-qarshi yo'nalgan.

2.4. Tekis sekunlanuvchan harakatda yo'l va tezlik tenglamalarini birga echish va tormozlash kuchi uchun (Nyutonning ikkinchi qonuniga asosan) tezlanishni tomozlash boshlangandagi avtomobil tezligi orqali ifodalash.

2.5. Liftning yuqoriga harakatida tezlanish taranglik kuchi yo'nalishiga o'xshash tarafga yo'nalgan, pastga tushayotganda og'irlik kuchi tarafga yo'nalgan.

2.6. Tizimning har bir jisimi uchun Nyutonning ikkinchi qonunini

(2.1)
 $m\vec{a} = F_2 + \dots + F_n$ ko'rinishda yozish, jism harakati yo'nalishiga har bir tenglamalarni proeksiyalash va tenglamalar tizimini echish.

2.7. Impulsning saqlanish qonunidan (2.8) foydalanish, bu holda ajralib chiqqan jismning birinchi qismi massasi βm , ikkinchi qisminiki $(1 - \beta)m$ ga tenligi hisobga olinsin.

2.8. $s = s_1 + s_2$ tenglamada quyidagilar inobatga olinsin, s_1 - konki uchayotganning tekis sekunlanuvchan harakatida to'xtash joyigacha bosib o'tgan masofasi; s_2 - tosh otilgan joydan tushgan joygacha bo'lgan masofa. s_2 ni aniqlash uchun 1.7 masala ko'rsatmasidan foydalaning.

2.9. Vektor ko'rinishdagi impulsning saqlanish qonuni tenglamasini (2.8) yozing, uni platforma harakati yo'nalishiga mos ravishda o'qqa proeksiyalashtiring.

2.10. Rasm chizing, undan $\Delta\vec{v}$ ni toping, $F\Delta t = m\Delta v$ ni inobatga oling.

3.1. Ko'chish va tezlik yo'nalishini kuch proeksiyasiga ko'paytmasidan t_1 dan t_2 gacha integral olishda o'zgaruvchan kuch bajargan ish ifodasidan foydalaning. Oniy quvvat ishdan vaqt bo'yicha hosilaga (3.2) tengligini inobatga oling.

3.2. Konservativ kuchning ishi traektoriyaning shakliga bog'liq emas, shuning uchun siz (3.1) ifodadan foydalanib, o'zgaruvchan kuchni harakat yo'nalishiga qarab proektsiyaning x_1 dan x_2 oralig'ida integrallab aniqlashingiz mumkin.

3.3. (3,5) kinetik energiyani o'zgarishi to'g'risidagi teoremdan foydalaning.

3.4. Vertikal ravishda yuqoriga qarab otilgan jism tekis sekinlanuvchan harakatlanishini hisobga oling.

3.5. Potentsial energiyaning o'zgarishi zarrachaga ta'sir qiluvchi konservativ kuchning ishiga teng (3.6). Konservativ kuch maydonida zarrachaga ta'sir etuvchi kuch "-" belgisi bilan potentsial energiya gradientiga teng (3.7).

3.6. Gravitasion maydonning potentsiali - bu tortishish maydonidagi moddiy nuqtaning potentsial energiyasining uning massasiga nisbatiga teng bo'lgan fizik kattalikka aytiladi. Gravitasion maydon kuchlanganligi deb, tortishish maydonida harakat qiluvchi moddiy nuqtaga ta'sir qilayotgan kuchning uning massasiga nisbatiga teng bo'lgan fizik kattalikka aytiladi. Gravitasion maydonning kuchlanganligi "-" ishora belgisi bilan potentsialning gradientiga tengdir.

3.7. Yopiq tizimda jismlarning noelastik to'qnashishida impulsning saqlanish qonuni bajariladi, ammo to'liq mexanik energiyaning saqlanish qonuni bajarilmaydi. -

3.8. Mutlaq elastik to'qnashuvda, Yopiq tizimlarda jismlarning impulsning saqlanish qonuni ham, to'liq mexanik energiyaning saqlanish qonuni ham bajariladi.

3.9. O'qning kinetik energiyasi qisman mayatnik - o'q tizimining kinetik energiyasiga, qolgan qismi esa ushbu tizimning ichki energiyasiga aylanadi.

3.10. Tizimning to'liq mexanik energiyasining o'zgarishi konservativ bo'lmagan kuchlarning ishiga teng ekanligini hisobga oling (3.8). Mexanikada faqat ishqalanish kuchi (muhitning qarshilik kuchi) konservativ emas.

4.1. Agar burchak tezlanishining o'zgaruvchanlik qonuni berilgan bo'lsa, u holda burchak tezligi 0 dan t_1 gacha bo'lgan burchak tezlanishining integraliga va burchak siljishi shu vaqt - oralig'ida burchak tezligining integraliga tengdir.

4.2. $f = 2\pi n$ va $\omega = 2\pi\nu$ ekanligini hisobga olinsin

4.3. Burchak tezligi (4.3) bilan chiziqli tezli ifodalardan foydalaning, burchak tezlashishi bilan tezlashishni va burchak tezligi bilan normal bog'lang.

4.4. Tizimning inersiya momenti tizimni tashkil etuvchi jismlarning inersiya momentlarining yig'indisiga teng. Ayrim jismlarning inersiya momentini aniqlash uchun Shteyner teoremasini qo'llash kerak (4.19).

4.5. Qo'zg'almas o'q atrofida aylanadigan jism uchun dinamikaning asosiy qonunini qo'llang (4.20). Burchak tezlashishi burchakli ko'chishdan vaqt bo'yicha ikkinchi tartibli hosilaga teng ekanligini hisobga oling (4.2).

4.6. Nyutonning ikkinchi qonunini (2.1) ilgarilanma harakatlanuvchi tizimning har bir jismi uchun $ma = F_1 + F_2 + \dots + F_n$ shaklida, qo'zg'almas o'q atrofida aylanadigan har bir jism uchun (4.20) aylanma harakati dinamikasining asosiy qonunini yozing. Ilgarilanma va aylanma harakatdagi kinematik kattaliklarning o'zaro bog'liqligini hisobga olgan holda o'zgartirib (4.4) tenglama tizimini eching.

4.7. $\varphi_2 - \varphi_1$ burchakka burilgan, aylanma harakat qilayotgan jismga ta'sir qiladigan kuch momenti bajargan ish ifodasidan (4.23) foydalaning. Burchak burilishdan vaqt bo'yicha hosilani olish, $d\varphi$ ni ifodalash va integral chegaralarini mos ravishda o'zgartirish orqali o'zgaruvchilarni o'zgartiring. Qattiq jismning aylanma harakatiga kinetik energiyaning o'zgarishi haqidagi teoremani qo'llash orqali masalani boshqa yo'l bilan echish mumkin.

4.8. Tepalikka inersiya bilan dumalayotgan jismning (4.22) kinetik energiyasi to'liq potentsial energiyaga aylangan paytda to'xtashini hisobga oling.

4.9. (4.8.) ifodadan, qattiq jismning o'qqa nisbatan impuls momenti moduli radius vektorning impulsiga ($\sin 90^\circ = 1$) ko'paytmasiga tengligi kelib chiqadi. Boshqa tomondan, u inersiya momenti va burchak tezligining ko'paytmasiga teng (4.10).

4.10. Tizimning impuls momenti, tizimga kiritilgan jismlarning impuls momentlarining yig'indisiga teng ekanligini hisobga olib, impuls momentining saqlanish qonunini qo'llang.

5.1. Chizma chizing. Inersiya kuchi (5.1) modul bo'yicha teng ta'sir etuvchi og'irlik kuchi va ipning tarangligiga teng ekanligini hisobga oling.

5.2. Inersiyaning markazg intilma kuchi (5.2) modul bo'yicha markazdan qochma kuchiga teng.

5.3. Shuni yodda tutingki, joylashuv kengligi Yerning markazidan Yerning joylashish nuqtalari va xuddi shu meridianda joylashgan ekvator orasidagi chiziq bilan aniqlanadi.

5.4. Hisoblangan tezlik belgilangan yo'nalishda bo'lishi uchun ikkita tezlik vektorini qo'shing.

5.5. Maxsus nisbiylik nazariyasida tezlikni qo'shish uchun (5.7) ifodadan foydalaning.

5.6. Lorents o'zgarishlarini (5.8) qo'llab, jismning chiziqli o'lchami harakat yo'nalishi bo'yicha kamayishini kuzating.

5.7. Harakatlanuvchi sanoq tizimida ikkita hodisa orasidagi vaqt oralig'ini va kuzatuvchi sanoq tizimida, yani tinch turgan tizimda, xuddi shu hodisalar orasidagi vaqt oralig'ini bog'lovchi (5.9) ifodadan foydalaning.

5.8. Ikkita hodisa orasidagi vaqt oralig'ini ifodalovchi (5.10) ifodadan foydalaning

$$\Delta s = \sqrt{c^2 t^2 - \Delta x^2 - \Delta y^2 - \Delta z^2}$$

5.9. Zarrachaning relyativistik impulse uchun (5.11) ifodani qo'llang.

5.10. Zarrachaning relyativistik massa uchun (5.12) ifodani qo'llang.

6.1. Ideal gaz holatining (6.2) tenglamasidan foydalaning (Mendeleev - klaypeyron).

6.2. Gaz aralashmasining bosimi har bir alohida gazlarning bosimi yig'indisiga teng ekanligini hisobga oling (6.3), gaz aralashmasining egallagan hajmi umumiydir.

6.3. Birinchi gazning massasi $m_1 = (1 - g / 100) m$, ikkinchi gazning massasi esa $m_2 = (g / 100) m$ ekanligini inobatga oling.

6.4. Gazlarning molekulyar kinetik nazariyasining asosiy tenglamasidan foydalaning (6.1).

6.5. Bir atomli, ikki atomli va uch atomli gaz molekularining erkinlik darajalari soni har xil, ammo barcha holatlarda molekularlarning ilgarilanma harakat erkinlik darajasi bir xil ekanligini unutmang.

6.6. Gazlar aralashmasining ichki energiyasi har bir alohida gazlarning ichki energiyalari yig'indisiga teng (6.5).

6.7. Agar gaz yopiq idishda bo'lsa, u holda uning hajmi boshqa parametrlarning har qanday o'zgarishlari uchun o'zgarmas bo'lib qoladi.

6.8. O'zgarimas hajmdagi (6.10) va o'zgarimas bosimdagi (6.11) gazlarning molyar issiqlik sig'imi har xil ekanligini hisobga oling.

6.9. Gazning molyar massasini hisoblab, qaysi gaz ekanligini aniqlashingiz mumkin.

6.10. Gazlar aralashmasini ΔT ga qizdirish uchun talab qilinadigan issiqlik miqdori aralashmaning har bir gazini alohida ΔT ga isitish uchun talab qilinadigan issiqlik miqdorlariga teng.

7.1. 6.7. masalani echish uchun ko'rsatmalardan foydalaning.

7.2. Izobarik jarayonning tenglamasidan gazning oxirgi haroratini boshlang'ich haroratga nisbatini toping va bu ifodani gazga beriladigan issiqlik miqdorini, uning kengayish paytida bajargan ishini va ichki energiyasini o'zgarishini aniqlash uchun ifodalarga qo'ying.

7.3. Izotermik jarayon tenglamasidan gazning boshlang'ich hajmining keyingi hajmga nisbatini toping va ushbu qiymatni gazning kengayishida bajarilgan ish ifodasiga qo'ying.

7.4. Gazning ichki energiyasi (6.5) uning holat funksiyasi ekanligini hisobga olib, termodinamikaning birinchi qonunini (7.1) qo'llang.

7.5. Gazning boshlang'ich va oxirgi holatlari uchun (6.2) tenglamadan foydalangan holda, birinchi tenglamani ikkinchisiga bo'lib Puasson tenglamasidan (7.3), adiyabatik jarayonda T va V parametrlar nisbatini keltirib chiqarish mumkin:

$$\frac{T_1}{T_2} = \left(\frac{V_2}{V_1}\right)^{\gamma-1}$$

7.6. Oldingi masala uchun ko'rsatmalardan foydalaning. Berilgan gaz uchun adiabatik ko'rsatkichi darajasini niqlang. Gaz kengayganda, ish musbat, siqilganda manfiy bo'lishini hisobga oling.

7.7. Molekulalarning o'rtacha kvadratik tezligi (7.4) va izotermik kengayishda gazning bajargan ishi ifodalarida butun guruh bir xil kattaliklar mavjudligiga e'tibor bering.

7.8. Ideal gaz holati tenglamasidan (6.2) uning zichligini ifodalang, undan - o'rtacha kvadratik (7.4), o'rtacha arifmetik (7.5) va ehtimoligi kata bo'lgan tezlik (7.6) ifodalariga kiritilgan butun guruh kattaliklarni aniqlang.

7.9. Gaz molekulalarining effektiv diametrining qiymati 4 ilovadan oling.

7.10. Barometrik ifodadan foydalaning (7.10).

8.1. Tsiklni tashkil etuvchi barcha jarayonlarning tenglamalarini yozing va ushbu tenglamalar tizimini echib, Karno tsiklining FIK aniqlash uchun zarur bo'lgan maksimal va minimal tsikl haroratini aniqlang (8.3). Berilgan tsiklning FIKni aniqlash uchun bajarilgan ishni, har bir jarayondagi ishlarning yig'indisi sifatida hisoblang.

8.2. Har qanday tsiklda (8.2) va Karno tsiklida (8.3) ishlaydigan issiqlik mashinalarining FIKni hisoblash ifodalaridan foydalaning.

8.3. Bir tsikl uchun sarflangan ishning qiymati va qizigan jismga berilgan issiqlik miqdori moduli, masala sharti bo'yicha manfiy ekanligini hisobga oling.

8.4. Termodinamikaning birinchi qonuniga binoan berilgan jarayon uchun dQ ning ifodasini yozing va olingan ifodani entropiyaning o'zgarishi ifodasiga qo'yng (8.6).

8.5. $\Delta S = \int_{(1)}^{(2)} \frac{dQ}{T}$, $\int_{(1)}^{(2)} dQ = m\lambda$ (T_{erish} harorati doimiy va integraldan tashqariga chiqarish mumkin) keyin moddaning erishi paytida entropiyaning o'zgarishi $\Delta S = m\lambda / T_{erish}$, bu erda m - moddaning massasi; λ , T_{erish} - mos ravishda o'ziga xos issiqlik va erish nuqtasi. Xuddi shunday, bug'lanish paytida entropiyaning o'zgarishi $\Delta S = \frac{q_{par}}{T_{par}}$ bilan ifodalanadi, bu erda q_{par} , T_{par} bug'lanishning mos ravishda issiqligi va haroratidir. Ushbu miqdorlarning qiymatlari 6 va 8 ilovalardan olingan.

8.6. S entropiyni Ω holatning termodinamik ehtimoli bilan bog'lovchi Bolsmann ifodasidan (8.10) foydalaning.

8.7. Van der Waals (8.11) tenglamasidan qo'shimcha bosimning ulushini va molekularning harakati uchun idish hajmining mumkin bo'lmagan qismini aniqlang. Van der Waals doimiylarini 5 ilovadan oling.

8.8. Mendeleev - klapeyron (6.2) tenglamasidan T_{ideal} , T_{real} - Van der Waals tenglamasidan (8.11) toping.

8.9. Gazning bo'shliqqa kengayishida, tashqi kuchlar ustidan ish bajarilmasligini hisobga oling. Bu holda real gazning ichki energiyasining kamayishi (8.12) molekularning o'zaro ta'sir kuchlariga qarshi bajarilgan ishga teng.

8.10. Van-der-Waals gazining kritik parametrlari uchun (8.13) ifodalaridan foydalaning.

9.1. Chizmani chizing, q_1 ga ta'sir qiladigan barcha kuch vektorlarini va ularning teng ta'sir etuvchisini ko'rsating. Kulon qonuniga binoan kuchlarning kattaligini toping (9.1).

9.2. Muvozanat holatidan chqarilgan jism (zaryadlangan zarracha) yana o'z holatiga qaytgan holat barqaror muvozanat bo'ladi.

9.3. Zaryadlangan halqalar, yarim halqalar va iplar uchun biror elementni tanlab, uni nuqtaviy zaryad deb hisoblab, ushbu element tomonidan hosil bo'lgan maydon kuchlanganligini topish kerak (9.5); bu erda zaryadlangan jismning butun uzunligi bo'ylab integrallash zarur bo'lgan F - Kulon kuchi (9.1). Keng halqani, diskni va yarim sharni hayolan kichik halqalarga ajrating. Tor zaryadlangan halqa tomonidan hosil qilingan maydon kuchlanganligini ma'lum hisoblang. Tor halqa tomonidan hosil bo'lgan maydon kuchlanganligini yozib oling va keng halqaning, diskning yoki yarim sharning butun yuzasiga bo'yicha integrallang.

9.4. Zaryadlangan zarracha, atom yadrosiga yaqinlashganda, uning kinetik energiyasi zarrachaning yadro bilan o'zaro ta'sirining potentsial energiyasiga aylanganida to'xtaydi.

9.5. Zaryadlangan zarrachani harakatga keltiradigan maydon kuchlarining bajargan ishi uning kinetik energiyasini oshirish uchun sarf bo'ladi. Ikkata cheksiz uzun plastinalar tomonidan hosil qilingan elektrostatik maydoni birtekis ekanligi hisobga olinsin.

9.6. Elektrostatik maydon kuchlanganligi "-" ishorali potentsial gradiyantiga teng (9.19).

9.7. Turli jismlar tomonidan hosil qilingan maydon kuchlanganliklari har xil bo'lishini hisobga olgan holda elektrostatik maydon kuchlanganlik vektori oqimi (9.7) ifodadan foydalaning (ifodalar (9.9) - (9.14)).

9.8. 9.6 masalani echish uchun ko'rsatmadan foydalaning. Turli xil jismlar tomonidan hosil qilingan maydon kuchlanganliklari har xil ekanligini hisobga oling ((9.9) - (9.14) ifodalar).

9.9. Elektrostatik maydon konservativdir, shuning uchun elektr zaryadini maydon bo'ylab ko'chirishda bajarilgan ish (9.20), potentsial energiyaning "-" (3.6) ishorasi bilan o'zgarishiga tengdir. Potentsiallar farqni maydon kuchlanganligi va uning ma'lum bir nuqtadagi potentsiali o'rtasidagi bog'liqlik ifodasidan topish mumkin (9.19).

9.10. Chizmani chizing, sharchaga ta'sir qiladigan barcha kuchlarni ko'rsating. Tortishish kuchi va ipning tarangligi

zaryadlangan sharga ta'sir qiladigan elektrostatik maydon kuchi bilan muvozanatlanganida shar muvozanat holatida bo'lishini hisobga oling. Ushbu kuchning kattaligini maydon kuchlanganligi (9.5) va turli jismlar tomonidan hosil qilingan maydon kuchlanganliklari (9.9) - (9.14) ifodalari bilan bog'liqligini bilib, aniqlash mumkin.

10.1. Qutibsiz molekulaning (10.2) qutblanuvchanligi, moddaning dielektrik qabulqiluvchanlik (10.4) va dielektriklarning dielektrik singdiruvchanligi va dielektrik qabulqiluvchanligi o'rtasidagi bog'lanish ifodalaridan (10.6) foydalaning. Bosimni aniqlash uchun gazlarning molekulyar kinetik nazariyasining (6.1) asosiy tenglamasidan foydalaning.

10.2. Moddaning dielektrik singdiruvchanligini (10.5) ifoda, elektr siljishi (10.9) yoki (10.11) ifodalar bilan, dielektriklarning dielektrik singdiruvchanligi va dielektrik qabulqiluvchanligi o'rtasidagi bog'lanishni (10.6) ifodadan aniqlanadi. Dielektrikning chegaralarida bog'langan zaryadlarning sirt zichligi σ dielektrikning qutblanishi P ga teng ekanligini, uni (10.7) ifoda yordamida aniqlash mumkin.

10.3. Elektr siljishini aniqlash uchun dielektrikda elektrostatik maydon uchun Ostrogradskiy - Gauss teoremasini (10.10) qo'llang, so'ngra (10.11) ifodadan foydalanib, har bir dielektrikning dielektrik singdiruvchanligini aniqlang.

10.4. Ikkita dielektrik chegarasida elektr siljishini va maydon kuchlanganlik vektorinig normal va tangensial tashkil etuvchilari uchun o'zaro bog'liqlik ifodalarini (10.12) ishlatting.

10.5. Oynali tasvirlar usulidan foydalaning, bu fizikaviy jismning yerga o'rnatilgan cheksiz metall tekisligi bilan o'zaro ta'siri kuchi sirtning oynaga o'xshashligini faraz qilib, uning tasviri joylashgan joyda bir xil jism bilan o'zaro ta'sir kuchiga tengligini anglatadi.

10.6. Zaryadlangan sirt tomonidan hosil qilingan maydon kuchlanganligini bilgan holda sharning potentsialini (9.19) ifoda bilan, yakkalangan sharsimon o'tkazgichning sig'imini - (10.14) yoki (10.15) ifodalar bilan aniqlash mumkin. O'tkazgichning sirtiy zaryad zichligi uning yuzasiga yaqin elektr silg'ishiga teng (10.17). Vakuumba joylashgan bir tekis zaryadlangan sfera tomonidan, sfera tashqarisida hosil qilgan maydonning kuchlanganligi (9.11) ifoda bilan, kondensator elektr maydonining energiyasi (10.21) ifodasi bilan aniqlanadi.

10.7. Zaryadlangan metall sharlar o'tkazgich orqali ulanganda, ularning potentsiallari bir xil bo'ladi, umumiy zaryad o'zgarmaydi ammo zaryadning bir qismi bir shardan ikkinchisiga o'tishi mumkin.

10.8. Kondensator razryadlanishi paytida ajraladigan issiqlik miqdori (10.21) ifoda bilan aniqlanadigan kondensator elektr maydonining energiyasiga teng. Yassi kondensatorning sig'imi (10.20) ifoda bilan aniqlanadi.

10.9. Bajarilgan ishni hisoblash uchun (3.6) ifodadan, kondensatorning elektr maydon energiyasini (10.21) ifodadan, yassi kondensatorning sig'imini - (10.19) yoki (10.20) ifodalardan foydalanish mumkin. Kondensator qoplamalaridagi zaryad o'zgarmas bo'lib qolishini hisobga oling.

10.10. (10.23) va (10.24) ifodalar yordamida bosqichma-bosqich faqat parallel yoki faqat ketma-ket ulangan kondensatorlarning umumiy sig'imini hisoblang,

11.1. Zaryadlangan zarrachaning harakatini gorizontal va vertical bo'yicha bir-biriga bog'liq bo'lmagan, ravishda gorizontal bo'ylab harakat bir tekis, vertikal bo'ylab - bir tekizlanuvchan deb ko'rib chiqing. Zarrachga ta'sir etuvchi elektrostatik maydonning kuchi tortishish kuchidan 10 yoki undan kattaroq bo'lganligi sababli ikkinchisini e'tiboga olmaslik mumkin.

11.2. 11.1 masalani echish uchun ko'rsatmalaridan foydalaning

11.3. t_1 dan t_2 vaqt ichida o'tkazgichning ko'ndalang kesim yuzasidan o'tgan zaryadni, (11.1) tok kuchi ifodasini integrallash orqali aniqlang.

11.4. Ampermetrning o'lchov chegarasini kengaytirish uchun unga parallel ravishda qarshiligi kichik bo'lgan qarshilikni ulash kerak. Voltmetrning o'lchov chegarasini kengaytirish uchun unga qarshiligi katta bo'lgan qarshilik ketma-ket ulanadi. Qurilmaning aniqligi maksimal ruxsat etilgan tok kuchi yoki kuchlanishlarni qurilma shkalasi bo'linmalari soniga nisbatiga tengdir.

11.5. Kuchlanish bir xil bo'lgan va kuchlanishlari jamlanadigan, shuningdek, toklar yig'indisi manbadan keladigan tokka teng bo'lgan qismlarni aniqlang. Om qonunini (11.8) - (11.10) qo'llang. Elektr zanjirlariga Kirxof qonunlarini qo'llash mumkin.

11.6. Elektr isitgichning FIK suvni qaynatishga sarf qilinadigan issiqlik miqdorini foizlarda ko'rsatilgan elektr energiyasiga nisbatiga tengdir.

11.7. Zanjirdagi elektr toki qisqa tutashuv paytida maksimal, kuchlanish esa zanjirdagi tashqi qarshilik manbaning ichki qarshiligiga teng bo'lganda maksimal qiymatga erishadi.

11.8. Manbaning qarshiligini e'tiborga oimagan hold, metallarning qarshiligini haroratga bog'liqligi va berk zanjir uchun Om qonuni ifodasidan (11.14) foydalaning.

11.9. Ikkita ishorali zaryad tashuvchilarning tok zichligi $j = qn(u_+ + u_-)E$ ga tenglini hisobga olgan holda, tok zichlikning qiymatini aniqlash uchun (11.2) ifodadan foydalaning.

11.10. 11.9 masalani echish ko'rsatmalairdan foydalaning.

12.1. (12.3) ifodadan foydalanib, magnit maydonda tokli o'tkazgichga ta'sir qilayotgan kuch momentining moduli uchun ifodani yozing.

12.2. Chizma chizing. Har bir cheksiz uzun to'g'ri chiziqli o'tkazgichlar hosil qilgan magnit maydonning induksiya vektorlarini qo'shing va (12.6) ifodani hisobga olgan holda hosil bo'lgan induksiya vektorining modulini toping.

12.3. Ma'lum bir burchakka egilgan o'tkazgichni, bir tomoni chegaralangan ikkita o'tkazgich deb hisoblab (12.5) ifodadan foydalaning.

12.4. 12.2 masala ko'rsatmalaridan foydalaning, ammo (12.7) ifodadan foydalaning.

12.5. 12.2 masalaga berilgan ko'rsatmalardan foydalaning, ammo (12.8) ifodani ishlatib.

12.6. Berilgan konturni fikran elementlari tekis va aylanma tokli o'tkazgichlardan iborat bo'lgan o'tkazgichlarga ajrating va maydon superpozitsiyasi printsipini qo'llang.

12.7. Vazifa raqamiga mos keladigan kontur chizmasini chizing. Vakuumdagi magnit maydon uchun to'liq tok qonunini (12.9) (induksiya vektorining sirkulatsiyasi haqidagi teorema) qo'llang.

12.8. Uzun solenoid ichidagi magnit maydon induksiyasi uchun (12.10) ifodadan foydalaning. Shuni e'tiborga olingki, o'ramlar qatlamlarining soni zarur bo'lgan o'ram zichligining haqiqiy mumkin bo'lganiga nisbati bilan aniqlanadi, ikkinchisi sim diametriga teskari proportsionaldir.

2.9. 12.8 masalaga berilgan ko'rsatmalardan foydalanib, silindr yuzasi va qobiqning sirtidan o'tayotgan toklarni tok zichligi ifodasi orqali (11.3) ifodalang.

12.10. Lentani shunday ensiz halqalarga ajratib chiqingki, ularning har birini aylana tokli o'tkazgich deb hisoblash mumkin bo'lsin va lentaning butun uzunligi bo'ylab integrallang (5-8, 17-20 - vazifalar). Qolgan vazifalarni echishda, lentani shunday ensiz tasmalarga ajratigki, ularni har biri to'g'ri chiziqli tokli o'tkazgich deb hisoblanishi mumkin bo'lsin va lentaning butun kengligi bo'ylab integrallang.

13.1. Bir jinsli magnit maydonidagi zaryadlangan zarrachaning traektoriyasi radiusi (13.4) va aylanish davri (13.5) ifodalaridan foydalaning. Zarrachning impuls momenti modulini (4.8) ifodadan, moddiy nuqtaing tangensial va normal tezlanishlarini - mos ravishda (1.6) va (1.7) ifodalar orqali aniqlanadi. Agar zarracha elektrostatik maydonda tezlansa bu maydon kuchlarining bajargan ishi uning kinetik energiyasini oshirish uchun sarflanadi deb hisoblang.

13.2. 13.1. masalaga berilgan ko'rsatmalardan foydalaning. (13.6) ifodadan foydalanib, magnit maydonda harakatlanayotgan zaryadlangan zarrachnig vint chizig'i qadamini aniqlang.

13.3. Bu holda Lorentz kuchi (13.3) markazga intilma kuch ekanligini hisobga oling.

Использовать формулу (13.7) для напряжения, возникающего в результате эффекта Холла между параллельными гранями пластины.

13.4. Plastaning parallel qirralari orasidagi Xoll effekti ta'sirida kelib chiqadigan kuchlanishni aniqlashda (13.7) ifodadan foydalaning.

13.5. 13.4 masalaga berilgan ko'rsatmalardan foydalaning, n-turdagi yarimo'tkazgichda asosiy zaryad tashuvchisi elektronlar ekanligini hisobga oling. Tok zichligini (11.11) ifoda bilan aniqlash mumkin, bu erda yarimo'tkazgichning elektr o'tkazuvchanligi (o'tkazuvchanligi) koeffitsienti $\sigma = enu = 1 / \rho$ ga teng.

13.6. Amper kuchining modulini (13.2) ifodadan toping, tok kuchi o'tkazgichning ko'ndalang kesim yuzasidan o'tgan zaryaddan vaqt bo'yucha olingan hosilasiga (11.1) tengligini hisobga oling.

13.7. Magnit maydonida tokli konturga ta'sir qilayotgan kuch momentining modulini (12.3) ifoda orqali ifodalang. O'tkazgich uzunligi va kontur shakli berilganda o'tkazgichning yuzasi topilsin.

13.8. Chizmani chizing. Chizmadan, dt vaqt ichida diskning radiusi bilan kesishgan dS elementar yuzasini aniqlang. Magnit maydoni induksiya vektorining oqimi uchun $\Phi_s = \int B_n dS$

ifodadan foydalaning, dS uchun olingan ifodani qo'ying, va 0 dan t gacha bo'lgan vaqt oraliqda integrallang.

13.9. O'zgaruvchan tok kuchinig bajargan ishi uchun (3.1) ifodadan foydalaning, unga parallel cheksiz uzun o'tkazgichlar uchun Amper kuchi ifodasini (13.1) qo'ying.

13.10. (13.10) ifodadan magnit maydonida tokli kontur ko'chirishda bajarilgan elementar ish ifodasini keltirib chiqazing va uni φ_1 dan φ_2 oralig'iga integrallang.

14.1. Magnitlanish uchun (14.1), magnit singdiruvchanlik ucun (14.2), moddadagi magnit maydonning kuchlanganligi va uning induksiyasi orasidagi bog'lanish uchun (14.6) va moddaning magnit singdiruvchanligi va uning magnit qabul qiluvchanligi o'rasidagi bog'liqlik (14.7) ifodalaridan foydalaning

14.2. Moddadagi magnit maydon uchun to'liq tok qonunini (14.5) va magnit maydon kuchlanganligi va uning induksiyasi o'rtasidagi bog'liqlik ifodasini (14.6) qo'llang. Tor tirqish uchun tirqishdagi magnit induksiyasi bo'linish chegarasiga perpendikulyar deb hisoblash mumkin.

14.3. Ikkita magnetiklar bo'linish chegarasida magnit maydon kuchlanganligi, induksiyaning normal va tangensial tashkil etuvchilar orasidagi nisbatlarni (14.8) va magnit induksiya chiziqlarining sinish qonunini (14.9) qo'llang.

14.4. Elektromagnit induksiya qonunini (14.10) qo'llang. dS ni aniqlash uchun 13.8 masladagi ko'rsatmalardan foydalaning. Buriilish burchagidan vaqt bo'yicha olingan hosila burchak tezligi moduli (4.1) teng ekanligini hisobga oling.

14.5. Konturni kesib o'tuvchi magnit maydon induksiyasi oqimi aylanish o'qining magnit maydoni kuch chiziqlari yo'nalishiga qiyalik burchagi α o'zgarish bo'lganda, kontur burchak holati α o'zgarishda o'zgarishini hisobga olib elektromagnit induksiya qonunini (14.10) qo'llang.

14.6. Oldingi masalaga o'xshash, konturni kesib o'tuvchi magnit maydon induksiyasi oqimi buriilish burchagi holatining $\phi = \omega t = 2\pi\nu t$ o'zgarishida o'zgaradi. Oqim tutilishi $\psi = N\Phi$ ga teng.

14.7. Magnit maydon energiyasining xajmiy zichligi bu birlik hajmning energiyasidir. Solenoid ichidagi magnit maydonning energiyasini (14.14) ifoda bilan aniqlash mumkin, bu erda $L = \mu_0\mu n^2 l S$ uzun solenoidning induktivligidir.

14.8. Zanjirni uzishdagi, tokning kamayish qonunidan (14.16) foydalaning.

14.9. Siljish tokening zichligini (14.18) ifoda orqali aniqlash mumkin, bu erda $D = \epsilon$ Agar kondensator plastinalaridagi zaryadlar o'zgarmay qolsa, u holda zaryadining sirt zichligi va elektr siljishi o'zgarmasdan qoladi. Agar plastinalar orasidagi potentsiallar farqi o'zgarmay qolsa, u holda

$$\sigma = \frac{q}{S} = \frac{\epsilon_0 \epsilon S \Delta \Phi}{(d + vt)S}$$

14.10. Integral ko'rinishdagi Maksvellning uchinchi tenglamasidan (14.19) foydalaning, bunda tok zichligi (11.11) ifoda va elektr siljishi (10.11) ifoda bo'yicha aniqlanadi. Amplituda vektorlari yordamida o'tkazuvchanlik va siljish toklari zichliklari yig'indisini toping.

15.1. Amplituda va fazaning berilgan qiymatlarini q'yygan holda (15.2) tenglamalarning birinchisini yozing. (15.9) ifodadan tsiklik chastotani, tebranayotgan nuqtaning maksimal tezligini va tezlanishini - (15.3) va (15.4) ifodalar bo'yicha aniqlang.

15.2. x_1 siljish va v_1 tezliklar tenglamalarini kvadratga oshirib, ikkinchini ω^2 ga bo'lgandan keyin qo'shing. Shu kabi amallarni x_2 siljish va v_2 tezliklar tenglamalari bilan bajaring. Olingan tengliklarning chap tomonlarini tenglashtirib, oxirgi tenglamani eching.

15.3. (15.5) ifodadan olingan elastik kuch moduli va prujinali mayatnikning tebranish davri (15.10) uchun tenglamalarni birgalikda eching.

15.4. Inersiya momentini Shteyner teoremasi (4.19) orqali aniqlashdan so'ng fizik mayatnikning tebranish davri uchun (15.12) ifodadan foydalaning

15.5. Matematik va fizik mayatniklarning tebranish davri uchun mos ravishda (15.11) va (15.12) ifodalardan foydalaning.

15.6. Garmonik tebranadigan moddiy nuqtaning to'liq energiyasi uchun (15.8) ifodadan foydalaning. (15.5) ifodadan, tebranuvchi moddiy nuqtaning maksimal tezlanishida kuchning maksimal ekanligini hisobga olgan holda, elastik kuch modulini ifodalang.

15.7. Garmonik tebranuvchi moddiy nuqtaning potentsial energiyasi (15.6), kinetik (15.7) va to'liq (15.8) energiyalari uchun ifodalardan foydalaning.

15.8. Elektromagnit tebranish konturida siklik chastotasini induktivlik va sig'im bilan bog'lanish (15.16) ifodasidan foydalaning. klhastotas $\nu = c / \lambda$ ekanligini hisobga oling, bu erda c - vakuumdagi yorug'lik tezligi.

15.9. Kondensator plastinalaridagi zaryad garmonik qonunga (15.14) muvofiq o'zgaradi. (11.1) ifoda yordamida tebranish konturidagi tok kuchini aniqlang, (10.19) ifodadan kondensator qoplamalaridagi potentsiallar farqni, (10.21) ifodadan kondensatorning elektr maydon energiyasini hisoblang va (14.14) ifodadan solenoidning magnit maydon energiyasini hisoblang.

15.10. 15.9. masalaga berilgan ko'rsatmalardan foydalaning.

16.1. Natijaviy tebranish amplitudasini (16.1) ifodadan, boshlang'ich fazasini - (16.2) ifodadan aniqlang.

16.2. Tepki mavjudligida natijaviy tebranishlar amplitudasining o'zgarish qonuni (16.4) ifoda bilan tavsiflanadi. Tepkili tebranish davri $T_b = 2\pi / \Delta\omega$.

16.3. Bir vaqtning o'zida bir xil chastotadagi ikkita o'zaro perpendikulyar tebranishlarda qatnashadigan harakatlanuvchi nuqtaning traektorya tenglamasidan (16.5) foydalaning.

16.4. So'nishning logaritmik dekrementi ifodasidan (16.10), matematik mayatnikning tebranish davri ifodasidan (15.11), va relaksatsiya vaqti bilan so'nish koeffitsienti o'rtasidagi bog'liqlik (16.9) ifodasidan foydalaning

16.5. A_1 ni A_2 ga nisbatini natural logarifmini toping. So'nishning logaritmik derementini so'nish koeffitsienti va tebranish davri bilan bog'liqligi ifodasidan (16.11) foydalaning. Tebranuvchi tizimining aslligini ifodalovch (16.13) va (16.14) ifodalardan foydalaning.

16.6. So'nishning logaritmik derementini (16.10), elektr tebranish konturining aslligi (16.19) va tebranish konturining aslligini so'nishning logaritmik derementini bilan bog'liqligi (16.14) ifodalardan foydalaning.

16.7. Energiya tebranish amplitudasi kvadratiga mutanosib ekanligini hisobga olib, t va $t + \Delta t$ vaqtlarda amplituda orqali Δt gacha bo'lgan vaqt oralig'ida energiyaning nisbiy yo'qolishini ifoda eting. Tomson ifodasini (15.15) ideal tebranish konturida garmonik

elektromagnit tebranishlar davri uchun va (16.11) ifodasini soʻnishning logaritmik derementini soʻnish koeffitsienti va tebranish davri bilan bogʻliqlik ifodasidan foydalaning.

16.8. $\omega_0 = k/m$ ni hisobga olib, majburiy tebranishlar amplitudasi (16.16) ifodasidan foydalaning.

16.9. Rezonans amplitudasini quyidagi ifodadan aniqlash mumkin

$$A = \frac{F_0}{2m\beta\sqrt{\omega_0^2 - \beta^2}}$$

$\beta \ll \omega_0$ boʻlganidan, β ni ahamiyatga olmasa boʻladi. Prujinaning qattqlik koeffitsientini mayatnikning muvozanat holatidan olinadi.

16.10. $\beta \ll \omega_0$ da rezonans chastotasini $\omega_{res} = \omega_0$ deb hisoblash mumkin. Unda $q_{res} = \varepsilon_m / (\omega_{res}R)$, $I_{res} = \varepsilon_m / R$ va $U_{Cres} = \varepsilon_m / (\omega_{res}CR)$. Kontur aslligini (16.19) ifodadan va $Q = U_{Cres} / \varepsilon_m$ ifodadan aniqlash mumkin.

17.1. Toʻlqinning fazaviy tezligi $c = \lambda / T = \lambda v$, tebranadigan havo zarralarining tezligi $v = d\xi / dt$.

17.2. Toʻlqin fronti fazaviy tezlik bilan siljishini hisobga oling.

17.3. Tebranish fazasi (17.4) ifodadagi kosinus belgisi ostidagi qavslar ichidagi ifoda. Toʻlqin sonini (17.6) ifodadan aniqlang.

17.4. Turgʻun toʻlqin tenglamasidan (17.7) foydalaning.

17.5. 17.4 masalaga berilgan koʻrsatmalardan foydalaning. Toʻlqin, zichligi katta muhitdan aks etganda, toʻlqin uzunligining yarmi yoʻqolishini hisobga oling.

17.6. Bir jinsli va izotropik muhitlardagi elektromagnit toʻlqinning tezligi (17.11), elektromagnit toʻlqinning elektr va magnit maydonlarining kuchlanganliklari orasidagi bogʻlanishi ifodalaridan (17.12) foydalaning.

17.7. Toʻlqin paketining tenglamasidan (17.13), quyidagilarni hisobga olgan holda foydalaning $\omega_1 = \omega_0 - \Delta\omega$, $\omega_2 = \omega_0 + \Delta\omega$, $k_1 = k_0 - \Delta k$, $k_2 = k_0 + \Delta k$.

17.8. Toʻlqin dispersiaysi $D = dv / d\lambda$ boʻlganda, toʻlqinning guruhli va fazaviy tezliklari oʻrasidagi bogʻliqlik ifodasidan (17.14) foydalaning.

17.9. Umov – Poynting ifodasi (17.17) va elektromagnit to‘lqinning elektr va magnit maydonlari kuchlanganliklari o‘rtasidagi bog‘liqlik ifodasidan (17.12) foydalaning. Kosinus kvadrati argumentining o‘rtacha davrdagi qiymati $1/2$ ga teng ekanligini hisobga oling.

17.10. Umov - Poynting vektori bilan, yuzadan o‘tgan to‘lqin energiya oqimini bog‘lash ifodasini (17.18) qo‘llang. Umov - Poynting vektorining o‘rtacha qiymatidan foydalanib, $W = \Phi_w \tau$ va $\tau \ll T$ ekanligini hisobga oling. 17.9 masalaga berilgan ko‘rsatmalardan foydalaning

18.1. Interferentsiya tasmalar kengligi uchun (18.9) ifodadan foydalaning.

18.2. 18.1. masalaga berilgan ko‘rsatmalardan foydalaning.

18.3. Chizmani chizing. Yodda tuting, φ burchak - bu ikkinchi oyna birinchisining tekisligidan og‘ish burchagi. Bunday holda, ikkita mavhum manba‘lar orasidagi burchak 2φ ga teng va ular orasidagi masofa $d = 2r \sin\varphi$.

18.4. Bitta nur havoda d masofani o‘tganligi, boshqa nur shu masofani n sindirish ko‘rsatkichli plastinadan o‘tganligi sababli, nurlarning optic yo‘llar farqi o‘zgarishini esda tuting.

18.5. Kuzatish nuqtasida yorug‘lik jadalligining interferentsiya maximumi (18.7) va minimumi (18.8) kuzatish shartlari ifodalaridan foydalaning. formulalardan foydalaning. Optik zichligi katta muhitdan aks etganda to‘lqin uzunligining yarmi yo‘qotilishini hisobga oling.

18.6. 18.5 masalaga berilgan ko‘rsatmalardan foydalaning.

18.7. Chizmani chizing. Ikkita qo‘shni maximumlar hosil bo‘lishiga olib keladigan pona shaklidagi plastinkada nurlar yo‘lini chizing. Optik zichligi katta muhitdan aks etganda to‘lqin uzunligining yarmi yo‘qotilishini hisobga olgan holda ushbu maximumlar kuzatish shartlarini yozing va hosil bo‘lgan tenglamalar tizimini yeching.

18.8. 18.7 - masalaga berilgan ko‘rsatmalardan foydalaning, bu holatda interferentsiya havo ponasida vujudga kelishini inobatga oling.

18.9. Chizmani chizing. To‘lqin uzunligining yarmini yo‘qotilishini hisobga olgan holda ikkita nurning optik yo‘l farqini toping va uni vazifa raqamiga muvofiq minimum yoki maksimum kuzatish shartiga moslashtiring. Halqa joylashgan linza va plastina orasidagi pona kengligini, egrilik markazidan plastinalar tegib turgan nuqtaga va linzaning qavariq yuzasiga nur tushayotgan nuqta, hamda

halqaning radiusiga o'tkazilgan linzaning egrilik radiusi hosil qilgan uchburchakdan Pifagor teoremasi yordamida toping.

18.10. Yorug'lik ikki marta modda joylashgan kyuvtadan o'tishini hisobga oling. Qo'shimcha yo'l farqini toping va uni $m\lambda$ ga tenglang.

19.1. Frenel sohalari radiusi uchun (19.2) ifodadan foydalaning. Tarkibida $(\lambda / 2)^2$ bo'lgan qo'shiluvchlarni e'tiborga olmag.

19.2. Chizma chizing, unda yo'llar farqini ko'rsating. Pifagor teoremasini qo'llang. 19.1 masalaga berilgan ko'rsatmalardan foydalaning.

19.3. Teshikka bitta Frenel sohasi to'g'ri kelganda oxirgi maksimum, ikkita soha bo'lganda - oxirgi minimum kuzatilishini inobatga oling.

19.4. Teshikli diafragma manba'dan kuzatuv nuqtasigacha bo'lgan masofani yarmidan o'tganda, teshikka to'g'ri keladigan Frenel sohalari soni kamayadi, o'rtasidan keyin u ko'paya boshlaydi. Shu munosabat bilan, diafragma yorug'lik manbasidan a_1 masofada joylashganida, teshikka qancha Frenel sohalari to'g'ri kelishini aniqlash kerak va keyin barcha masofalarda kuzatiladigan minimumlar, va ularning a_1 dan a_2 gacha sonini hisoblang.

19.5. 19.2. masalaga berilgan ko'rsatmalardan foydalaning. Fresnel sohasi chegaralaridan nurlarning yo'llar farq $\lambda / 2$ ekanligini hisobga oling. Pifagor teoremasini qo'llang. b^2 bilan solishtirganda r^2 va $(\lambda/2)^2$ kattaliklarni hisobga olmasa ham bo'ladi.

19.6. Teshikdagi Fraungofer diffraksiyasida diffraksiya maksimumlari (19.7) va minimumlarini (19.8) kuzatish shartlaridan foydalaning.

19.7. Chizmani chizing. Teshikdagi Fraungofer diffraksiyasida minimumlar (19.8) kuzatish shartlaridan foydalaning. Rasmdan diffraksiya burchagining tangensini toping va bu tenglamalarni birgalikda yeching.

19.8. Chizmani chizing. Diffraksion panjaradagi Fraungofer diffraksiyasining asosiy maximumlar (19.9) shartidan foydalaning. Rasmdan diffraksiya burchagining tangensini toping va bu tenglamalarni birgalikda yeching.

19.9. Spektral qurilmaning burchak dispersiyasi uchun (19.12), uning aniqlash qobiliyati (19.13) va aniqlash qobiliyatini diffraksion panjara tirqishlari soni o'rtasidagi bog'liqlik (19.14) ifodalaridan foydalaning

19.10. Fazoviy panjaradagi diffraksiyada diffraksion maximumlar kuzatish shartidan (19.15) foydalaning.

20.1. Bryuster qonunidan foydalaning (20.2). Shuni e'tiborga olingki, nurni zichroq muhitdan zichligi kamroq muhitga o'tganda, nurning chegaraviy tushish burchagi tushish burchagi deb ataladi, bu holda singan nur ikki muhit chegarasida sirpanib o'tadi. Tushish burchagi chegaraviydan katta bo'lganda singan nur bo'lmaydi, yani to'la ichki qaytish kuzatiladi.

20.2. $I_p = I_0 / 2$ ekanligini ko'zda tutib, ideal polarizator va analizator uchun Malus qonunini (20.3) qo'llang.

20.3. Haqiqiy polarizator va analizatordan o'tgan yorug'likning jadalligi uchun Malus qonunidan (20.4) foydalaning.

20.4. 20.2 masalaga berilgan ko'rsatmalardan foydalaning. Ko'zgudan nur aks etganda, polyarizasiya tekisligi o'zgarmaydi, faqat yorug'lik jadalligi o'zgaradi, shuning uchun yorug'lik ikkinchi nikoldan o'tganda (endi u birinchi bo'lib) polyarizasiya tekisligi bir xil bo'lib qoladi.

20.5. Bir xil chastotadagi ikki o'zaro perpendikulyar tebranishlarda bir vaqtning o'zida ishtirok etadigan harakatlanuvchi nuqta traektoriyasining (16.5) tenglamasidan foydalaning va uni elektr maydon E kuchlanish vektoriga qo'llang. E_1 va E_2 vektorlarning o'zaro perpendikulyar tebranishlari qo'shilganda (16.5) tenglama hosil bo'ladi

$$\frac{E_1^2}{A_1^2} + \frac{E_2^2}{A_2^2} - \frac{2E_1E_2}{A_1A_2} \cos\delta\varphi \equiv \sin^2\delta\varphi$$

20.6. Odatiy va noodatiy nurlar bir oqli kristalda tarqalayotganda unga yassi qutblangan yorug'lik tushsa, ular o'zaro kogerent bo'ladi. Qalinligi chorak to'lqinli plastinka, qalinligi quyidagi shartni qoniqtirsa $d(n_o - n_e) = \pm(m + 1/4)\lambda_0$, bu erda $m = 0, 1, 2, \dots$ ("+" belgisi optik manfiy kristallga, "-" belgisi esa optik musbat kristallga to'g'ri keladi) oddiy va noodatiy nur o'rtasida $\pi / 2$ ga teng fazalar farqi hosil qiladi.

20.7. 20.6 masalaga berilgan ko'rsatmalardan foydalaning. $d\Delta n_1$ uchun maksimum kuzatish sharti va $d\Delta n_2$ uchun minimum kuzatish shartini yozing va ushbu tenglamalarni birgalikda eching.

20.8. Yorug'likni Kerr yacheykasidan o'tganida oddiy va noodatiy nurlar o'rtasida paydo bo'ladigan yo'llar farqi va faza farqi uchun (20.5) ifodani ishlatning.

20.9. Yorug'lik polyarizasiya tekisligining burilish burchagi α uchun l masofani optik faol eritmada $\alpha = b - k\lambda$ chiziqli qonunga muvofiq o'zgarishini hisobga olgan holda (20.6) ifodani qo'llang.

20.10. Yorug'lik polyarizasiyasi darajasi (20.1), qaytgan va singan nurlarida yorug'lik tushish tekisligiga perpendikulyar va yorug'lik tushish tekisligiga parallel ravishda, tebranayotgan yorug'lik vektorining jadalligi uchun Frenel ifodalaridan (20.7) dan foydalaning,

21.1. Nurlanish energiyasi vaqt o'tishi bilan o'zgarmaydi va eritish pechining kuzatish oynasidagi nurlanish absolyut qora jismning nurlanishiga yaqin bo'lgani va energetic yoritilganini vaqt bo'yicha o'zgarishini hisobga olib energetic yoritilganlik (21.1) va Shtefan - Boltsman qonunini (21.10) qo'llang.

21.2. Quyoshning barcha yo'nalishlarda butun yuzasi bo'yichaa, berilgan vaqtda nurlayotgan energiyasi va shu vaqtda berilgan masofada birlik yuza oladigan energiyani toping. Keyin ma'lum vaqt oralig'ida istalgan yuza oladigan energiyani aniqlang.

21.3. Cho'g'lanma lampaning quvvati birlik vaqtiga chiqariladigan energiyaga teng ekanligini va simning nurlanishi absolyut qora jism nurlanishining $k\%$ ga teng ekanligini hisobga olib, Stefan - Bolsman qonunidan (21.10) foydalaning.

21.4. Vinning siljish qonunidan (21.11) foydalaning. Vinn doimiysini 20 ilovadan oling.

21.5. Plank ifodasidan (21.12) foydalanib $(r_{\lambda,T})_1 / (r_{\lambda,T})_2$ nisbatini toping.

21.6. $\nu = c / \lambda$ ni hisobga olgan holda, fotonning energiyasi (21.13) va massasi (21.15) ifodalaridan foydalaning.

21.7. Metalldan elektronning chiqish isi ifodasini (21.17) hisobga olgan holda tashqi fotoelektrik effekt uchun Eynshteyn tenglamasini (21.16) qo'llang.

21.8. 21.7 masalaga berilgan ko'rsatmalardan foydalaning. Tormozlovchi kuchlanish uchun (21.18) ifodani qo'llang.

21.9. Tushayotgan nurlanishnig xajmiy energiya zichligi $w = En$ va foton konsentratsiyasi $n = N / \Delta V = N / (Sc\Delta t)$ ekanligini hisobga olib, sirdagi yorug'lik bosimi uchun (21.19) va foton energiyasi uchun (21.13) ifodalarni ishlatning.

21.10. Foton energiyasini $E = h\nu = hc / \lambda$ ifodadan to‘lqin uzunlikni ifodalab Kompton qonunini (21.20) qo‘llang.

22.1. Impuls momentini kvantlash qoidasidan foydalaning (22.1). Bu holda yadro va elektron o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir kuchi markazgaintilma ekanligini hisobga oling. $A_i = e\varphi_i$ ionlash ishi elektronni atomdan chiqarish uchun bajarilgan ishga tengligini hisobga oling.

22.2. De Broyl ifodasidan foydalaning (22.6). Agar zarracha elektrostatik maydonda tezlatilsa, bu maydon kuchlarining bajargan ishi uning kinetik energiyasini oshirish uchun sarflanadi, deb hisoblang.

22.3. De Broyl ifodasidan foydalaning (22.6). Elektronlar diffraksiyasida maksimumlar kuzatish shartlari fazoviy panjara yordamida rentgen nurlarining diffraksiyasida diffraksiya maksimumlarini kuzatish shartlariga (19.15) mos kelishini hisobga oling.

22.4. Geizenberg noaniqliklar nisbatini koordinata va impuls (22,7), shuningdek energiya va vaqt (22.8) uchun qo‘llang.

22.5. Geizenberg noaniqliklar nisbatini (22.7) koordinata va impuls uchun qo‘llang. Elektron nuri dastasini hosil qilish paytida elektron koordinatalarining noaniqligini yorug‘lik diametriga teng oling.

22.6. Potensial to‘siq orqali x masofaga zarrachalarning kirish ehtimolligining nisbiy zichligi uchun (22.14) ifodadan foydalaning.

22.7. Cheksiz chuqur bir o‘lchovli to‘g‘rtburchakli potensial o‘radagi zarrachning stasionar holatini tavsiflovchi to‘lqin funksiyasi uchun (22.12) ifodasidan foydalaning. To‘lqin funksiyasi modulinig kvadrati elementar hajmdagi dV zarrachani topish ehtimoli zichligining ma’nosini ifodalashini hisobga oling.

22.8. (22.13) ifodani cheksiz chuqur bir o‘lchovli to‘g‘riburchakli potensial o‘rada joylashgan zarracha energiyasining xususiy qiymatlari uchun qo‘llang.

22.9. Saralash qoidasini (22.16) hisobga olgan holda vodorod atomidagi elektronning xususiy qiymatlari (22.3), elektronning orbital magnit momenti (22.19) ifodalaridan foydalaning.

22.10. Vodorod atomining spektral seriyalari uchun Balmer ifodasidan (22.5) foydalaning. Rydberg doimiysining qiymatini 20 ilovadan oling.

23.1. Kristalning molayr issiqlik sig'imi uchun, $T \ll \theta$ shart bajarilganda, deb hisoblagan holda (23.5) ifodadan foydalaning.

23.2. $v_{\parallel} = v_{\perp} = v$ holatda panjaraning normal tebranishlarining maksimal chastotasini (23.7) ifodadan, umumiy holatda –

$$\int_0^{x_m} \frac{\omega^2 d\omega}{2\pi^2} \left(\frac{1}{v_{\parallel}^3} + \frac{2}{v_{\perp}^3} \right) = 3n$$

ifodadan, Debayning xarakterlovchi temperaturasini - $\theta = \hbar \omega_m / k$ ifodadan aniqlang.

23.3. Fermi sohasining energiyasini (23.11) ifoda bo'yicha aniqlang. Elektronning impulsini aniqlash uchun energiya va impuls o'rasidagi bog'lanish ifodasidan $E = p^2 / (2m)$ foydalaning.

23.4. $E_F - kT$ dan E_F (23.12 ifoda) gacha energetik sathlardagi kT energetic kenglikdagi elektronlar termik g'alayonlanish ta'sirida bo'ladilar. U holda energiyasi Fermi sathi energiyasidan yuqori bo'lgan sathlarga o'tgan elektronlarning ulushi (23.13) ifoda bilan aniqlash mumkin.

23.5. Xoll doimiysi $R_H = 1 / (ne)$ ga tengligini hisobga olgan holda, Fermi sathi energiyasi uchun (23.11) ifodadan foydalaning. Elektronning dreyf tezligini aniqlash uchun differentsial ko'rinishdagi Om qonunidan foydalaning (11.11), bu erda $j = env$, $\sigma = 1 / \rho$.

23.6. $J = \sigma E = en(u_n + u_p)E$ ni hisobga olgan holda yarimo'tkazgichning xususiy o'tkazuvchanligi uchun (23.16) ifodadan foydalaning. Elektron va teshiklarning konsentrasiyalarini teng deb faraz qiling.

23.7. Berilgan temperatura qiymatlarida yarimo'tkazgichning xususiy o'tkazuvchanligini inobatga olmaslik mumkinligini ko'zda tutib, yarimo'tkazgichning kirishmali o'tkazuvchanligi uchun (23.17) ifodani ishlatting.

23.8. Ichki fotoeffektning qizil chegarasini, $\nu = c / \lambda$ ekanligini hisobga olib, xususiy yarimo'tkazuvchilar uchun (23.18) ifoda, kirishmali yarimo'tkazgich uchun (23.19) ifoda orqali aniqlang.

23.9. Termoelektron emissiya to'yingan tok zichligini temperaturaga bog'liqligini aniqlashda (23.22) ifodadan foydalaning

